

Z.D.NIYOZOV

Kredit shakllari, turlari va ularni rivojlantirish

SAMARQAND -2008

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«BANK VA JAMG'ARMA ISHLARI» KAFEDRASI

Z.D.NIYOZOV

Kredit shakllari, turlari va ularni rivojlantirish
(ATB «Mikrokreditbank» Samarqand viloyat boshqarmasi misolida)

“Pul, kredit va banklar” fanidan uslubiy-amaliy qullanma

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'quv - uslubiy kengashining
24.12.2008 yil № 5 son majlisida kurib chikildi va nashir etishga tavsiya qilindi

Samarqand -2008

Niyozov Z.D. *Kredit shakllari, turlari va ularni rivojlantirish :*

Uslubiy-amaliy qullanma-C,: SamISI. 2008 - 124 bet

Uslubiy-amaliy qullanmada respublikamiz mustaqillikka erishishi bilan, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda banklar tomonidan berilayotgan kreditlarning ahamiyati beqiyos darajada oshib borayotganligi. Bank kreditlari yordamida iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini rivojlantirilishi, yangidan-yangi kichik, qo'shma korxonalar barpo etilayotganligi, servis va xizmat ko'rsatish hamda aholi uchun qo'shimcha ish joylari tashkil qilinayotganligi, banklar tomonidan berilayotgan kreditlarning turlarni rivojlantirish va bu borada kuproq kadrlar va mutasislar talab qilinishi borasida fikirlar bildirilgan.

Uslubiy qo'llanmada, kreditning shakllari, turlari va ularni kelgusida rivojlantirish istiqbollari ATB "Mikrokreditbank" Samarqand boshkarmasi ma'lumotlari asosida ko'rib chiqilgan. Qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalari, kollejlarning o'quvchilari uchun muljallangan. Undan bank mutaxasislari va kredit soxasini qiziquvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: i.f.n. dosent Sh.A.Raxmonov

O.X.Baxriyev

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2008 yil.

KIRISH.

I BOB. KREDITNING MAZMUNI, TURLARI VA SHAKLLARI.

- 1.1 Kreditning mohiyati, vazifalari va manbalari.....6-9
- 1.2 Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning ahamiyati.....10-11
- 1.3 Kreditning turlari va shakllari.....12-48

II BOB. KREDIT SIYOSATINING MOHIYATI VA MAZMUNI.

- 2.1 Kredit siyosatining asosiy maqsadi va strategiyasi.....49-51
- 2.2 Bank kredit siyosatining asosiy mezonlari va kredit turlari.....52-54
- 2.3 Tijorat banklari kredit siyosatini amalga oshirishning
asosiy yo'nalishlari.....55-57

III BOB. KREDIT PORTFELINI SHAKLLANTIRISH VA UNING TAHLILI.

- 3.1 Kredit portfelini shakllantirishning ahamiyati va zaruriyati.....58-65
- 3.2 Kredit portfeli tahlili.....66-74

IV BOB. KREDIT TURLARI VA SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.

- 4.1 Kredit turlari va shakllarining afzalliklari va kamchiliklari.....75-83
- 4.2 Kredit turlari va shakllarini kelgusida rivojlantirish
istiqbollari.....84-89

XULOSA90-93

ILOVALAR.....94-113

TAYANCh SO'Z VA IBORALAR.....114-120

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR 120-122

Kirish

Insoniyat turmush tarzini banklar xizmatlashtirish tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki banklar xo'jalik subyektlarini kredit mablag'lari bilan ta'minlab, ijtimoiy sarmoyani qayta taqsimlash jarayonida vositachi sifatida qatnashadi va jamiyat miqyosida umumiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Aynan shu jarayonda bank va mijoz o'rtasida qonun talabi va me'yoriy hujjatlar asosidagi, turli shakl va usulga ega munosabatlar yuzaga keladi. Bu munosabatlar jahon andazalari talabida shakllanishi va huquqiy tenglik asosida rivojlanib borishi davr talabi bo'lib, endilikda banklar faoliyatining rivoji bevosita mijozlar faoliyatiga bog'liqdir.

Ma'lumki, respublikamiz mustaqillikka erishishi bilan, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda banklar tomonidan berilayotgan kreditlarning ahamiyati beqiyos darajada oshib bormoqda. Bank kreditlari yordamida iqtisodiyotning muhim tarmoqlari rivojlantirilmoqda, yangidan-yangi korxonalar barpo etilmoqda va aholi uchun qo'shimcha ish joylari tashkil qilinmoqda, ilg'or texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlar joriy etilmoqda, yangidan-yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda.

Har qanday taraqqiyot jarayoni qarama-qarshiliklar, muammolar asosida mukammallashib boradi. Mamlakatimiz banklari taraqqiyoti jarayonini ham muammolardan xoli deb bo'lmaydi. Ushbu muammolarning bank faoliyatiga salbiy ta'sir etish doiralarini aniqlash va bartaraf etish bizlardan ijodiy izlanishni talab etadi.

O'zbekiston tijorat banklari bilan aholi o'rtasidagi kredit munosabatlarining rivojini tavsiflovchi ko'rsatkichlar sur'atini tahlil qilish muammoli kreditlarning yuzaga kelayotganligini namoyon qilmoqda. Bunday ahvolning yuzaga kelishiga sabab bo'lguvchi omillar qatoriga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

1. Ssudadan boshqa maqsadlarda foydalanish yoki aholining bank oldidagi qarzini o'z vaqtida qaytarmaslik kabi holatlarning tez-tez yuz berib turishi;

2. Bankning foiz siyosati, qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini baholashdagi kamchiliklar va hokazo.

Mazkur yuqorida ta’kidlab o’tilgan omillar ta’sirini pasaytirish chora-tadbirlari hamda kredit turlari va shakllarini rivojlantirish istiqbollarini o’z ichiga olgan.

Bundan ***maksad***, Respublikamiz tijorat banklari kredit siyosatining amaldagi holatini tahlil qilish va banklararo raqobatni rivojlantirish sharoitida kredit turlari va shakllarini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berishdan iborat.

Asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda, qo’yidagilarni o’rganish vazifalarini tashkil etadi:

- ❖ qo’yilgan masalani nazariy nuqtai nazardan ko’rib chiqish;
- ❖ statistik ma’lumotlarni to’plash hamda ularga qayta ishlov berish;
- ❖ to’plangan ma’lumotlar asosida tahlil o’tkazish;
- ❖ kredit turlari va shakllarini takdim etish yuzasidan yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni asoslash;
- ❖ kredit turlari va shakllarini kelgusida rivojlantirish masalalariga nisbatan xulosa va takliflar berib, istiqbollarini aniqlash.

O’quv-amaliy uslubiy qo’llanmaning obyekti va predmeti.–

ATB «Mikrokreditbank» Samarqand viloyat boshqarmasi hamda uning faoliyat yo’nalishlari hisoblanadi. Predmeti esa, bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan hozirgi sharoitda kredit turlari va shakllarini rivojlantirish yuzasidan amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

O’quv-amaliy uslubiy qo’llanmaning nazariy va metodologik asoslari.

O’zbekiston Respublikasi Qonunlari, Qarorlari va Farmonlaridan kelib chiqqan holda asoslab berilgan **yangiliklari** qo’yidagilarda namoyon bo’ladi:

- kredit to’g’risida umumiy tushuncha, ularning o’ziga xos belgilariga qarab turlarga va shakllarga tasniflanishini to’liq yoritilishida;
- tijorat banklari kredit siyosatining tashkiliy – huquqiy asoslarining mohiyatini izohlab o’tilishida;
- tijorat banklarining kredit siyosatiga xos asosiy tendensiyalarni aniqlab berilishida;

- tijorat banklari kredit siyosatining jozibadorligini oshirish borasidagi mavjud muammolarning izohlab o'tilishida;
- bank kredit portfelining tahlilini yoritilishida;
- tijorat banklari kredit turlari va shakllarini rivojlantirishda istiqbollarini belgilashda.

Ma'lumki, kredit tizimida raqobatni shakllantirish va rivojlantirish kredit tizimining samarali faoliyat kursatishining zaruriy shartidir. Bunda markaziy o'rinni kredit tizimining yadrosi bulgan bank tizimida raqobatni kuchaytirish masalasi egallaydi.

Mazkur ishda kreditning iqtisodiy mazmuni keng ko'lamda o'rgangan holda, tijorat banklari faoliyatida kreditlash jarayonining huquqiy-me'yoriy asoslari, kredit siyosatining mazmun-mohiyati, shuningdek, tijorat banklari tomonidan kreditlarni berish, qaytarish va foizlarini hisoblash tartibi, kredit portfelining amaldagi holati tahlil qilinib, uni boshqarishning optimal yo'nalishlarini misollarda ko'rsatib o'tilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kredit-bu mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlovchi, banklar daromad manbaining asosini tashkil etuvchi iqtisodiy kategoriyadir.

KREDIT SHAKLLARI, TURLARI VA ULARNI KELGUSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

I BOB. KREDITNING MAZMUNI, TURLARI VA SHAKLLARI.

1.1 Kreditning mohiyati, vazifalari va manbalari

Jamiyat faoliyatining o'ta muhim jihati – bu ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy resurslar ishlatiladi, mahsulotlar va xizmatlardan iborat hayotiy ne'matlar yaratiladi.

Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini moddiy va mehnat omillari ta'minlaydi. Ishlab chiqarishning bu omillar bilan bir tekisda ta'minlanishi muammodir.

Bu muammo o'z yechimini *kredit* orqali topadi.

Kredit tovar-pul munosabatlari mavjud sharoitdagi takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas bir qismi bo'lib, tovar ishlab chiqarish kredit munosabatlari vujudga kelishining tabiiy asosi hisoblanadi. Kreditning vujudga kelishining nafaqat ichki iste'mol uchun tovar ishlab chiqarish doirasidan emas, balki asosan yuridik jihatdan mustaqil, bir-biriga mulkdor sifatida qarama-qarshi turuvchi va iqtisodiy munosabatlarga kirishishga tayyor tovar egalari faoliyat ko'rsatayotgan muomala doirasidan qidirish kerak.

Ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishidagi va fondlarning bir marta aylanishidagi qiymatning harakati qisqa muddatli kredit munosabatlari paydo bo'lishining iqtisodiy asosidir.

Kredit orqali jamiyatimizda qo'yidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

birinchidan, fondlar aylanishi jarayonida chetga chiqib, bo'sh qolgan mablag'larning harakatsiz turib qolishining oldini olinadi.

ikkinchidan, takror ishlab chiqarishni keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.


Kredit – foizda qaytarish sharti bilan vaqtincha foydalanish uchun pul yoki material mablag'lari berish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi.

Kreditlar O'zbekiston Respublikasi qonunlari va normativ aktlari bilan man etilmagan maqsadlar uchun barcha egalik va xo'jalik mulki shaklidagi jismoniy va yuridik shaxslarga belgilangan tamoyillar asosida qisqa va uzoq muddatga ajratiladi.

Kredit munosabatlarining mazmun va mohiyatini tushunish uchun uning zaruriy elementlari – kreditning obyekti va subyektini tushunib olish zarur. (1-chizmaga qaralsin.)

1-chizma.

Kredit munosabatlarining zaruriy elementlari



Kredit munosabatlarida subyektlar ikki xil bo'ladi.

1. Qarz beruvchi.
2. Qarz oluvchi.

Kredit subyektlari har xil. Bular yuridik va jismoniy shaxslar, bank, korxona, firma, davlat, turli toifa aholi bo'lishi mumkin.

Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida qator vazifalarni bajaradi:

1. **Taqsimlash.** Bo'sh pul mablag'larini qaytarish sharti bilan qarzga berish orqali kapitalni turli tarmoqlar, korxonalar o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashni amalga oshiradi va ishlab chiqarish resurslarining ko'chib yurishini ta'minlaydi.
2. **Emissiya.** Kredit asosida va unga bog'lik xolda pul belgilari, pulga tenglashtirilgan naqd pulsiz to'lov vositalari, turli qimmatbaho qog'ozlar emissiya qilinadi, xo'jalik oborotiga kiritiladi.

3. **Nazorat qilish.** Kredit operatsiyalarini bajarish jarayonida iqtisodiy faoliyat, moliyaviy ahvol nazorat qilinadi.

4. **Bo'sh pul mablag'larini harakatdagi, oborotdagi kapitalga aylantirish.**

5. **Rag'batlantirish.** U yoki bu maqsad uchun qarz berish, qarzni undirish orqali tejamkorlik, iqtisodiy o'sish rag'batlantiriladi.

Kredit resurslaridan korxona qo'yidagi hollarda foydalanishi mumkin:

1) Korxona kreditni xarajatlarning biron turini amalga oshirish uchun, masalan, xom-ashyo, materiallar sotib olish, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki jo'natilgan tovarlar uchun olishi mumkin.

2) Korxona aylanma fondlarning doiraviy aylanishining barcha bosqichlarida kreditni jalb qilishi mumkin.

3) Korxonani kompleks kreditlashtirish zarur bo'lganda amalga oshiriladi.

Kreditning harakat bosqichlari

$$B_k - O_{kz} - I_k V_r Q_k - F_{ks}$$

B_k - Kreditning berilishi;

O_{kz} – Kreditni qarz oluvchi tomonidan uning vaqtinchalik ehtiyojlarini qondirish uchun olinishi;

I_k – Kreditning ishlatilishi;

V_r – Qarz oluvchi xo'jaligida olingan qiymatning aylanishi tugallanishini resurslarning aylanishidan chiqarilishi;

Q_k – Kreditni qaytarish;

F_{ks} – Kreditning qaytib kelishi, foiz bilan.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarning bozor iqtisodiyoti sharoitida ish yuritishida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash, korxonaning asosiy va aylanma fondlarining doiraviy aylanishining to'xtab qolishiga yo'l qo'ymaslik, korxonalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, korxonalar tomonidan tovar mahsulotini sotganda sotilgan tovar uchun to'lov summasini olish obyektiv va subyektiv sabablar tufayli kechiktirilgan holda kreditning zarurligi kelib chiqadi.

Ammo, kredit berish uning zarurligi bilan kifoyalanib qolmasdan, uning maqsadli ishlatilishi shart-sharoitlari bilan ham belgilanadi.

Shunday qilib, kredit munosabatlarini rivojlantirishda banklar kredit uchun xarakterli muhim shartlar va qonunlarga asoslangan holda kreditlash jarayonini amalga oshirishlari zarur.

1.2 Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning ahamiyati

Ma'lumki, kredit takror ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi va ijtimoiy ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi.

Korxonalarga beriladigan kredit ularni vaqtinchalik moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi va takror ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz davom etishini ta'minlaydi. Pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyoj ishlab chiqarishning nafaqat mavsumiy, shuningdek boshqa sabablariga ham bog'liq. Barcha hollarda, kreditdan foydalanish asosiy va aylanma fondlarning uzluksiz doiraviy aylanishini, ishlab chiqarish jarayoni va tovarlar muomalasini tezlashtirishni ta'minlaydi.

Boshqa iqtisodiy kategoriyalar singari kredit mahsulot ishlab chiqarishni va muomala sohasini rag'batlantiradi. Shuningdek, kredit ijtimoiy-iktisodiy maqsadlarni amalga oshirishga, iqtisodiy vazifalarni bajarishga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Kreditning *umumiy maqsadi* – bu ijtimoiy ishlab chiqarishning dinamik va proporsional rivojlanish asosida aholining moddiy va madaniy turmush darajasining oshishini ta'minlashdan iborat.

Kreditning *asosiy maqsadi* ishlab chiqarishni rivojlantirishning intensiv omillarini qo'llash asosida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdir.

Kredit davlatning iqtisodiy vositalaridan biri sifatida butun iqtisodiyotning rivojlanishiga va alohida korxona faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kreditning iqtisodiyotga va ilmiy texnika taraqqiyotini rivojlanishiga ta'siri korxonalarning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlashdagi rolini oshiradi.

Xo'jalik hisobiga qarz oluvchi yuridik mustaqil shaxs sifatida kreditor bilan kredit shartnomasi tuza oladi.

Kreditning xo'jalik subyektlarining mustaqilligiga ta'siri qo'yidagicha amalga oshiriladi:

- Qarz maqsadli yo'nalishga ega bo'ladi;
- Qarz qaytarib berishlilik va muayyan to'lov majburiyati qarz oluvchini olingan qarzni samarali ishlatishga undaydi.

Kreditning hozirgi sharoitda rolini oshirish uchun banklar kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini ta'minlashlari, likvidlikka ega bo'lmagan zahiralar va

xarajatlarga kreditlar bermasliklari, kreditni muomala xarajatlarini iqtisod qilishda keng qo'llanishini hisobga olishlari zarur.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar doirasida ham kreditning ahamiyati ortib bormoqda. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tishdek qiyin sharoitda respublikamiz xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasiga kirib bormoqda va bunda kredit muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kredit mamlakatlararo o'zaro hamkorlikni amalga oshirishda, xususan, qo'shma korxonalar qurishida va ularning faoliyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizning ichki kredit tizimida kreditning o'rini yanada muhimroq bo'lib ko'rinadi. Buni respublikamizning kredit tizimiga oid qonunlar, qarorlar, me'yoriy hujjatlar orqali ko'rishimiz mumkin. Respublikamizning «Korxonalar to'g'risida»gi qonunida, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi, «Ipoteka to'g'risida»gi, «Iste'mol kreditlari to'g'risida»gi va boshqa bir qator qonunlariga asosan yuridik va jismoniy shaxslarga kreditlar berish va shunga oid xizmatlar ko'rsatish, davlatimiz olib borayotgan pul-kredit siyosatini rivojlantirish istiqbollari belgilashda muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

1.3 Kreditning turlari va shakllari

Kredit qaysi usulda va muddatda, kim tomonidan berilishi va qarz oluvchilarga taklif qilinishiga qarab, bir necha tur va shakllarga bo'linadi.

A. Kreditning berilish muddatlariga qarab qo'yidagi turlari qo'llanilib kelinmoqda:

1. Qisqa muddatli kreditlash;
2. Uzoq muddatli kreditlash (investision loyihalarni moliyalashtirish).

Shuni ham aytish joizki, qisqa muddatli kredit berishda kreditlar bir necha oydan bir yilgacha bo'lgan muddatda beriladi. Bu turdagi kreditlar ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomala fondlarining doiraviy aylanishining uzluksizligini ta'minlaydi. Bir yil fondlar aylanishining tabiiy o'lchovi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham bir yil qisqa va uzoq muddatli kredit berishning chegarasi bo'lib xizmat qiladi.

1.1. Tijorat banklari yuridik shaxslarga qisqa muddatli kreditlarni qo'yidagi maqsadlar uchun ajratadi:

- 1) xom-ashyo va materiallarni sotib olish;
- 2) yuqori likvidli tovar-moddiy boyliklarni xarid qilish;
- 3) ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq tayyorlov mahsulotlari uchun;
- 4) ishlab chiqarish jarayonida yangi mahsulotlarni joriy qilish bilan bog'liq xarajatlar va bu maqsadlarga aylanma mablag'larning xarajatlari uchun;
- 5) ishlab chiqarish texnologik jarayonlari sifati, tovar-moddiy boyliklarni hajmini oshirish, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish, mahsulotlari sifati va ishonchliligiga hamda uzoq muddat xizmat qilishini ta'minlash maqsadida;
- 6) aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish uchun;
- 7) qonunchilikda ta'qiqlanmagan tijorat faoliyatlari uchun;
- 8) import qilinadigan va mahalliy texnologik jihozlarni sotib olish;
- 9) eksport va import amaliyotlarini o'tkazish uchun;
- 10) korxona va tashkilotlarning ish haqqiga;
- 11) yuqori likvidli tovarlar savdosi uchun;
- 12) boshqa qonunchilik ta'qiqlanmagan faoliyat turlari uchun.

1.2. Jismoniy shaxslarga ajratiladigan qisqa muddatli kreditlar:

- xalq iste'moli tovarlarini sotib olish uchun iste'mol kreditlari;
- ta'lim kreditlari;
- aholiga ko'rsatiladigan tibbiyot (sihatgohlarda davolanish) xizmatlari va aviachiptalar sotib olish uchun;
- qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa yo'nalishlar uchun kreditlar.

Uzoq muddatli kredit turlariga kelganda esa, u ham kredit munosabatlari tarkibida alohida o'rin egallaydi.

Uzoq muddatli kreditlar - xo'jalik yurituvchi subyektlarga ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlarga mo'ljallangan obyektlarni qurish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta jihozlashga doir harajatlarni sarmoya (investisiya) bilan ta'minlash, yangi turdagi mahsulot va yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirish, shuningdek boshqa investision maqsadlar uchun va ishlab chiqarishni qayta tiklash va yangilash bilan bog'liq tez qoplanuvchi va yuqori samara beruvchi tadbirlar uchun beriladi.

Uzoq muddatli kredit 1 yildan oshiq muddatgacha beriladigan ssudadir, lekin ssuda muddati ssudaning qoplanish (biznes rejada ko'rsatilgan) muddatidan oshmasligi kerak.

A.2.1.Uzoq muddatli kreditlar yuridik shaxslarga quyidagi maqsadlarga beriladi:

1. ishlab chiqarish quvvatlari va vositalarining qurilishi uchun;
2. bino va inshootlarni qurilishi uchun;
3. qishloq joylardagi aloqa va axborotlashtirish infrastrukturasini qurish va qayta qurish hamda rivojlantirish uchun;
4. ishlab chiqarishga mo'ljallangan obyektlarni kengaytirish, qayta qurish va texnik ta'minoti uchun;
5. asosiy fondlarni, texnika va texnologiya, transport vositalari va jihozlar sotib olish uchun;
6. chorva mollari va urug'chilik mahsulotlarini sotib olish uchun;
7. yangi yerlarni o'zlashtirish uchun;
8. uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish yoki sotib olish uchun;
9. daraxt va ko'chat mahsulotlarini o'tqazish uchun;

10. yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan kichik biznes subyektlarini boshlang'ich sarmoyasini shakllantirish uchun;

11. yuridik shaxslar tomonidan boshqa korxona va tashkilotlarning aksiyalarini sotib olish uchun;

12. boshqa qonunchilik bilan taqiqlanmagan faoliyat turlari uchun kreditlar.

A.2.2. Jismoniy shaxslar uzoq muddatli kreditlar quyidagi maqsadlarda ajratiladi:

- xo'jalik iste'mol mollarini sotib olish uchun;

-uy-joyni sotib olish va qurish uchun;

-uy-joyni rekonstruksiya qilish uchun;

-ta'lim kreditlari uchun;

-obyektlarni sotib olish uchun (savdo do'konlari, maishiy xizmat uylari, oshxona, choyxona va boshqa obyektlar);

- qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa yo'nalishlar uchun kreditlar.

B. *Qaytarish muddatlari bo'yicha muddatli, muddati o'tgan va muddati uzaytirilgan kredit turlari mavjud.**

Muddatli kredit - kredit shartnomasiga ko'ra to'lov muddati hali yetib kelmagan ssudadir.

Muddati uzaytirilgan kredit - ayrim hollarda kreditni qaytarish muddati kelmasdan avval qarzdor tomonidan bankka taqdim etilgan iqtisodiy asoslangan yozma iltimosnoma asosida kreditni qaytarish muddatini keyinroqqa surilishi to'g'risida filial kredit komissiyalari qarorlari asosida Bosh bank kredit qo'mitasi bilan kelishilgan holda ijobiy qaror qabul qilingan qarzlardir.

Muddati o'tgan kreditlar - kredit shartnomasida belgilangan qaytarish muddati, shuningdek, garchi ularning muddati uzaytirilgan bo'lsa, uzaytirish muddati ham tugagan qarzlardir. Muddati o'tgan kreditlar iqtisodiy mohiyatiga ko'ra qayta rasmiylashtirilgan hisoblanadi, chunki kredit shartnomasida muddati o'tqazib yuborilganligi uchun oshirilgan foiz stavkalarini qo'llash ko'zda tutiladi.

* Tadqiqot uchun qilingan guruhlar

Alohida ssuda hisob-raqami orqali berilgan kreditlar muddati o'tgan hisob raqamiga kreditni qaytarish muddati o'tgan va hisob raqamida mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda o'tkaziladi.

Kontokorrent hisob-raqamidan berilgan kreditlar kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddatda qaytarilmagan va 12 oy muddat tugagandan keyin kredit saldo yopilmagan bo'lsa muddati o'tgan hisoblanadi

Lombard krediti kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddatda qaytarilmagan bo'lsa, muddati o'tgan hisob raqamiga o'tkaziladi. Kredit shartnomasida imtiyozli davr o'rnatilgan bo'lsa, "Garov to'g'risida" gi qonunga muvofiq garov predmetini muomaladan olib qo'yishga ruxsat berilmaydi.

Overdraft hisob-raqami orqali berilgan kreditlar har oyning oxirida kredit saldo qoldig'i bilan ta'minlanmagan bo'lsa kelasi oydan boshlab yoki shartnomada ko'rsatilgan muddatda qaytarilmagan bo'lsa muddati o'tgan hisoblanadi.

*V. Miqdori bo'yicha kreditlarning quyidagi turlari mavjud:**

V.1. Mikro-kreditlar:

Mikrokredit - qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun beriladigan eng kam ish haqining 1000 baravari miqdoridan oshmaydigan ssudadir.

Boshlang'ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun mikrokreditlar:

- yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik subyektlari uchun eng kam oylik ish xaqining 50 baravarigacha miqdorda;
- mikrofirmalar va dexqon xo'jaliklari uchun (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan) eng kam oylik ish xaqining 100 baravarigacha miqdorda;
- fermer xo'jaliklari uchun eng kam oylik ish xaqining 200 baravarigacha miqdorda beriladi.

V.2. Makro-kreditlar:

Makrokredit - turli mulkchilik shaklidagi subyektlarga beriladigan eng kam ish haqining 1000 baravari miqdoridan oshadigan kreditlar.

V.3. Mono-kreditlar:

* Tadqiqot uchun qilingan guruhlar

Mono kreditlar - 1-darajali bank kapitalining 25% idan oshadigan miqdorda yirik investision loyihalarini sindisiyalash asosida beriladigan kreditlar.

1. «Ishonchli» (blank) kreditlarini berish tartibi.

Tijorat banklari va ularning filiallari xo'jalik yurituvchi subyektlarga ta'minlangan yoki "ishonchli" deb nomlanadigan, ta'minlanmagan (blankli) kreditlar berish to'g'risida qarorlar qabul qilishlari mumkin.

Kreditlarni ta'minotsiz - ishonch asosida berish bank uchun katta xatar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham, bunday kreditni oluvchining kreditni qaytarish qobiliyati (reytingi) 1-sinfdan past bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, bank bilan kredit oluvchi o'rtasida doimiy aloqa mavjud bo'lishi va kredit oluvchining to'lovga layoqatliligi (qobilligi) shubha tug'dirmasligi lozim.

Ishonchli kreditlar reytingi 1-sinfga mansub bo'lgan (ayrim xollarda istisno tariqasida, kreditlarni muntazam ravishda o'z vaqtida yoki muddatidan oldin qaytargan kreditga layoqatliligi 1-sinfdan past bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga), yaxshi kredit tarixi va yetarli o'z sarmoyasiga ega bo'lgan likvidlik darajasi o'rtadan yuqori bo'lgan hamda kam-ko'stsiz kreditni qaytara olish qobiliyatiga ega bo'lgan mijozlarga beriladi. Ishonchli kreditlarni berishni asosiy shartlaridan biri qaytarish muddati 1 yilgacha bo'lishidir.

Ba'zi xollarda istisno tariqasida bank filiali kredit komissiyalari yoki Bosh bank kredit qo'mitasining qaroriga muvofiq 12 oydan ortiq bo'lgan muddatlarga ishonchli kreditlar ajratilishi mumkin.

Ishonchli kredit belgilangan muddatda qaytarilishi lozim, uning muddatini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'minlangan yoki ta'minlamagan ishonchli kreditlarni berish, kreditning maqsadidan kelib chiqqan holda kredit shifriga asosan ochiladigan alohida ssuda, kontokorrent va overdraft hisob raqamlari bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

Kreditni qaytarish muddati kelganida, qarzdorning kreditni qaytarish uchun pul mablag'lari bo'lmasa, kredit muddati o'tgan ssuda hisob raqamiga o'tkazilib, u bo'yicha majburiyatnomalar esa, №2-kartotekaga joylashtiriladi va kalendar navbati tartibida undiriladi.

2. Alohida ssuda hisob raqami bo'yicha kreditlash tartibi.

Tijorat banki va uning filiallari xo'jalik yurituvchi subyektlarni kredit liniyalari ochib yoki ochmasdan alohida ssuda hisob raqamlari orqali quyidagi maqsadlar uchun kreditlashlari mumkin:

- tovar-moddiy boyliklarini sotib olish uchun, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul-hisob-kitob hujjatlarini to'lab berishga;
- kredit oluvchining asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan va amal qilish muddati 30 kundan oshmaydigan akkreditivlarni ochishga.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni "Kredit liniyasi ochmasdan" alohida ssuda hisob raqami orqali kreditlash, kredit shartnomasida ko'rsatilgan maqsadga muvofiq, tovar-moddiy boyliklarini sotib olish, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar xaqini to'lash uchun kredit oluvchining to'lov topshiriqnomasini bajarish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ssuda hisob raqamidan to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi bank qarori har bir to'lovni o'tkazish maqsadi kredit shartnomasida qayd etilgan maqsadlarga mosligini tahlil etish asosida qabul qilinadi.

Bank tomonidan kreditni undirish, kredit shartnomasida belgilangan muddat va o'rnatilishi mumkin bo'lgan quyidagi tartiblarda amalga oshiriladi:

- kreditni qaytarish jadvali yoki majburiyatnomada ko'rsatilgan kreditni qaytarish muddati yetib kelganida, kredit oluvchining asosiy "talab qilib olinguncha" depozit hisob raqamidan memorial order asosida undirish yo'li bilan;
- kredit oluvchining to'lov topshiriqnomasiga asosan, muddatidan oldin, uning "talab qilib olinguncha" depozit hisob raqamidagi erkin pul mablag'larini ssuda hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan;
- bank tomonidan kredit ta'minotiga kafillik bo'yicha olingan majburiyatlardan, sug'urta polisi bo'yicha sug'urta qoplamalaridan, shuningdek, garov xuquqini sotishdan tushadigan mablag'lardan foydalanish orqali undiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni "Kredit liniyasini ochish" orqali kreditlash, kredit shartnomasida avvaldan qayd etilgan kredit summasi doirasida, alohida ssuda hisob raqamidan amalga oshiriladi. Bunda, kredit oluvchining asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lgan tovar-moddiy boyliklarini sotib olish uchun, bajarilgan ishlar va

ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul-hisob-kitob hujjatlari kredit mablag'lari hisobidan to'lab beriladi.

“Kredit liniyasini ochish” orqali kredit berish, bankning kafolat majburiyatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bank bunda, vakillik hisob raqami xolatidan qat'iy nazar, xech qanday to'sqinliklarsiz kredit oluvchiga, kredit shartnomasida belgilangan muddat va o'rnatilgan limit doirasida kreditlashni kafolatlovchi majburiyatni o'z zimmasiga oladi.

Bankning kafolat majburiyatnomasi ikki nusxada tuzilib, ulardan bir nusxasi kredit bo'limi xodimining farmoyishiga ko'ra ko'zda tutilmagan xolatlar 91809-“Bankning ssuda berish bo'yicha majburiyatlari” hisob raqamida hisobga olish uchun buxgalteriyaga topshiriladi. Ikkinchi nusxasi esa kredit oluvchiga beriladi va uning kreditga doir hujjatlari bilan birga yig'majildda saqlanadi.

“Kredit liniyasini ochish” yo'li bilan beriladigan kreditning miqdori, undan foydalanish muddatlari va uni qaytarishning davriyligi kredit oluvchini maxsulot yetkazib beruvchilar, haridorlar bilan tuzgan shartnoma - bitimlarini tahlil etish asosida belgilanishi hamda, ular kredit shartnomasida o'z aksini topishi lozim.

Kredit oluvchiga “ochiq kredit liniyasi” bo'yicha xizmat ko'rsatilganligi uchun, u bankka kredit shartnomasida qayd etilgan kreditlash limitining foydalanilmagan summasiga hisoblanadigan vositachilik xaqini to'laydi. Kredit oluvchi kreditlash liniyasining amalda foydalanilgan qismi uchun foizlar to'laydi.

3. Overdraft hisob raqami orqali kreditlash tartibi.

Overdraft kontokorrent hisob raqamining maxsus shakli hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bank mijozning asosiy “talab qilib olinguncha” depozit hisob raqamida qisqa muddat mobaynida debetli (qoplanmagan) qoldiq bo'lishiga ruxsat beradi.

Overdraft hisob raqamidan foydalanish xuquqi eng ishonchli mijozlargagina beriladi.

Overdraft hisob raqamidan kredit berish, kredit oluvchining asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lgan tovar - moddiy boyliklarini sotib olish uchun, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul-hisob-kitob hujjatlarini to'lab berish yo'li bilan

amalg oshiriladi. Overdraft hisob raqamidan to'lovlarning boshqa (kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlar, byudjetga to'lovlar va boshqa) turlari overdraft hisob raqamidagi kreditli (qoplangan) qoldiq doirasida amalga oshiriladi.

Kredit overdraft hisob raqamidan berilganda, kredit oluvchining shu hisob raqamga kirim qilinadigan barcha summalar kreditni qoplashga sarflanadi. Shuning uchun ham, overdraft hisob raqamiga mablag'larning tushishiga qarab, berilgan kreditni hajmi ham o'zgarishi mumkin. Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar kelishilgan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Kontokorrent hisob raqamdan farqli o'laroq, overdraft hisob raqami orqali kreditlash, bank va mijoz o'rtasidagi kelishuv, shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Kreditni berish sharti va uni qaytarish tartibi, bankka kredit oluvchining hisob raqamida mavjud bo'lgan mablag'laridan ortiqcha miqdordagi to'lovlarni amalga oshirish xuquqini beradi.

Overdraft hisob raqamidan kredit berilganida, kredit oluvchi har oyning oxirida bu hisob raqam bo'yicha kreditli (qoplangan) qoldiqni ta'minlashi kerak. Agarda, mijoz bankda muddatli depozit hisob raqamiga ega bo'lsa, u holda unga o'z depozit mablag'lari doirasida doimiy debetli (qoplanmagan) qoldiqqa ega bo'lish xuquqi beriladi. Kredit oluvchining mazkur bankda muddatli depozit hisob raqami bo'lmagan va oy oxirida ham overdraft hisob raqamida debetli (qoplanmagan) qoldiq saqlanib qolgan taqdirda, shu mijozga kredit berish, berilgan kredit to'liq qaytarilgunga qadar, to'xtatiladi.

Kredit oluvchi overdraft hisob raqamidan foydalanganda, u kreditni qaytarish ta'minoti mavjudligi va qisqa muddatli kreditning belgilangan muddatiga rioya etish shartlariga amal qilgan holda, kreditning bu turini boshqa turiga qaytadan rasmiylashtirish xuquqiga ega.

Overdraft hisob raqamidan berilgan kredit, kreditning kontokorrent turiga qaytada rasmiylashtirilmaydi.

4. Kontokorrent hisob raqami bo'yicha kreditlash tartibi.

Bank kontokorrent hisob raqamidan moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarni kreditlaydi. Bu hisob raqam mijozning yagona hisob

raqami hisoblanib, kredit shartnomasiga asosan ochiladi va bank shu hisob raqam orqali mijozning barcha turdagi amaliyotlarini amalga oshiradi. Mazkur hisob raqam aktiv-passiv hisoblanib, ya'ni ham aktiv, ham passiv qoldiqqa ega bo'lishi mumkin. Kontokorrent hisob raqami ochilishi bilan kredit oluvchining asosiy "talab qilib olinguncha" depozit hisob raqami yopiladi.

Kredit oluvchi kontokorrent hisob raqami bo'yicha o'rnatilgan kreditlash limiti doirasida kreditlanadi. Kontokorrent hisob raqamiga kredit oluvchining barcha tushadigan mablag'lari kirim qilinadi. Agar kirim qilingan summa (tushum)lar olingan kredit summasidan oshib ketsa, u holda kontokorrent hisob raqami o'z belgilangan maqsadini o'zgartirmagan holda kreditli(qoplangan) qoldiqqa ega bo'ladi.

Kontokorrent hisob raqamidan kreditlash, kredit oluvchining asosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan tovar-moddiy boyliklarini sotib olish, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul-hisob-kitob hujjatlarini to'lash yo'li bilan amalga oshiriladi. Boshqa turlari (kechiktirib bo'lmaydigan extiyojlarga, byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga va x.k.) to'lovlar kontokorrent hisob raqamidagi mavjud kreditli (qoplangan) qoldiq doirasida amalga oshiriladi.

Kontokorrent hisob raqamidan berilgan kreditlarni undirish (qoplash) sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun tushadigan tushumni shu kontokorrent hisob raqamiga kirim qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Kontokorrent hisob raqamidagi qoldiqlar bo'yicha foizlarni hisoblash, kredit shartnomasida qayd etilgan muddatlarda, debetli (qoplanmagan) va kreditli (qoplangan) qoldiqlar bo'yicha alohida - alohida amalga oshiriladi:

- debetli qoldiq bo'yicha, mijoz bankka, kredit shartnomasida ko'rsatilgan foiz stavkasiga muvofiq foizlarni to'laydi;

- kreditli qoldiq bo'yicha esa, bank mijozga, bankdagi hisob raqamga xizmat ko'rsatishga doir tuzilgan shartnomada belgilangan foizlarni to'laydi.

Kontokorrent hisob raqamining amal qilish muddati 12 oydan oshmasligi kerak. Kredit oluvchi 12 oylik muddat tugashi bilanoq, bu hisobvaraqda kreditli qoldiqni ta'minlashi lozim. Agarda kreditlash muddati tugaganda ham, hisob raqamda debetli

(qoplanmagan) qoldiq bo'lsa, u holda berilgan kredit to'liq qaytarilmaguncha keyingisini berish to'xtatiladi.

Kredit oluvchi, kredit shartnomasining shartlariga qat'iy rioya etib, barqaror moliyaviy xolatga ega bo'lsa, uning yozma iltimosnomasiga ko'ra kontokorrent hisob raqami bo'yicha kreditlash, ilgari belgilangan limit doirasida takroran tiklanishi mumkin. Bu hisob raqamda mablag'larning kreditli (qoplangan) aylanishini (debetli aylanishga nisbatan) ustunligi aniqlansa, kredit oluvchining moliyaviy - xo'jalik faoliyatini tahlili natijalari asosida kredit bo'limi xodimining xulosasi tayyorlanadi. Shu xulosani inobatga olgan holda, kontokorrent hisob raqamidan kelgusida foydalanishning maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Kredit oluvchining moliyaviy ko'rsatkichlari, to'lov qobiliyati yomonlashgan va kelgusida ularni yaxshilash imkoniyatlari bo'lmagan taqdirda, kredit komissiyasi kredit oluvchiga kontokorrent hisob raqami bo'yicha kredit berishni to'xtatish hamda berilgan kreditlarni, sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun tushadigan tushumni kontokorrent hisob raqamiga kirim qilish yo'li bilan qoplash to'g'risida qaror qabul qiladi.

5. Qimmatli qog'ozlar garovi asosida beriladigan (lombardli) kreditlarni taqdim qilish tartibi.

Lombardli kredit, kredit oluvchining asosiy faoliyatga taalluqli bo'lgan tovar - moddiy boyliklarni sotib olish uchun, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning xaqini to'lash uchun qimmatli qog'ozlarni garovga olib, alohida ssuda hisob raqamidan berilgan qisqa muddatli ssudadir.

Lombardli kredit ta'minotiga, garov shartnomasini rasmiylashtirgan holda, quyidagi qimmatli qog'ozlarni qabul qilish mumkin:

- davlatning qimmatli qog'ozlari;
- boshqa emitentlarning aksiyalari, obligasiyalari va depozit sertifikatlari.

Bankning o'z aksiyalari garov sifatida qabul qilinishi mumkin emas.

Lombard kreditining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, garovga olinadigan qimmatli qog'ozlar, shartnoma tuzilgan kundagi nominal qiymati bo'yicha emas,

balki uni sotishda yuzaga keladigan, kursga bog'liq risklarni inobatga olgan holda aniqlangan qiymati bilan baholanadi. Shuning uchun ham, banklar qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish asosida lombard kreditini berish to'g'risida qaror qabul qilishda, kredit oluvchining moliyaviy ahvoli va kreditni qaytarish qobiliyatini tahlil etish bilan birga, kredit ta'minotiga olinadigan qimmatli qog'ozlar kursi bo'yicha risklar darajasini baholashga ham alohida ahamiyat berishlari lozim. Qimmatli qog'ozlar bozorida birja kursini tebranib turishi munosabati bilan qimmatli qog'ozlarni kotirovkalashda kursga bog'liq riskni mavjudligi sababli, ularning garov qiymati birja bahosining 75 foizidan oshmasligi kerak.

Birjada kotirovka qilinmaydigan qimmatli qog'ozlarning garov qiymati esa, ular nominal qiymatining 60 foizidan oshmasligi lozim.

Qimmatli qog'ozlar garovi asosida beriladigan kredit 12 oygacha bo'lgan, lekin shu qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lish davridan oshmagan muddatga beriladi.

Kredit shartnomasida qimmatli qog'ozlarning qiymati birjadagi kotirovka kurslari, fond birjasida bo'lib o'tgan so'nggi savdodagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda aks ettiriladi. Davlat qimmatbaho qog'ozlari yuqori reyting darajasiga ega ekanligi uchun, ularni garovga olib kredit berilganda, kreditning maksimal summasi garov qiymatining 90 foizigacha yetishi mumkin.

Kredit oluvchi fond birjasidan sotib olgan boshqa qimmatli qog'ozlarini garovga qo'yganida, beriladigan kreditning eng maksimal miqdori ular garov qiymatining 75 foizidan yuqori bo'lmasligi lozim.

Lombardli kreditlarni berish, undirish va foydalanganlik uchun foizlarni to'lash, alohida ssuda hisob raqami bo'yicha kreditlashga o'xshash bo'lgan umumiy tartibda amalga oshiriladi. Bunda kredit oluvchining asosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan tovar-moddiy boyliklarini sotib olish uchun, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul-hisob-kitob hujjatlari to'lovga qabul qilinadi.

Qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish asosida kredit shartnomasi tuzilganidan keyin, bank emitentga, uning qimmatli qog'ozlarini garovga qo'yish to'g'risidagi bitim amalga oshirilganligi va qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar o'tkazilishi

lozim bo'lgan depozit hisob raqami to'g'risida xabar qiladi. Lombardli kreditda garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromadlar, kredit oluvchining muddatsiz depozit hisob raqamiga (depozit shartnomasini rasmiylashtirmagan holda) kirim qilinadi va birinchi navbatda ularni saqlash bo'yicha harajatlarni qoplashga shuningdek, kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni to'lashga sarflanadi.

Bank kreditlash jarayonida teleks, kompyuter va boshqa aloqa vositalari yordamida garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlarning birjadagi kotirovka kurslarini o'zgarishlariga doir axborotlarni yig'ib boradi. Agar kreditlash davomida fond birjasida bo'lib o'tgan savdolar natijasida garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlarning qiymati pasayib ketsa, u holda ana shu miqdordagi summaga kredit komissiyasining qarori bilan qo'shimcha ta'minotni taqdim etilishi talab qilinishi yoki kreditning ta'minlanmagan qismi muddatidan oldin undirilishi mumkin.

Kredit oluvchiga, garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar va ular bo'yicha olingan daromadlar, lombardli kredit bo'yicha barcha majburiyatlar to'liq bajarilganidan keyingina qaytariladi. Lombardli kredit bo'yicha majburiyatlar belgilangan muddatda bajarilmagan taqdirda, bank imtiyozli oy o'tishi bilan garov xaqidagi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, o'zining garovga doir xuquqini amalga oshiradi.

6. Xo'jalik subyektlarini ish xaqini to'lash uchun kreditlash tartibi.

Xo'jalik subyektlariga ish xaqini to'lash uchun beriladigan kreditlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 19 martdagi "Ish xaqi o'z vaqtida to'lanishiga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 88-sonli qaroriga binoan beriladi. Ish xaqini to'lash uchun kreditlar muddatlilik, to'lovlilik, qaytarishlik hamda maqsadli ishlatishlik tamoyillariga qat'iy amal qilish, kredit xatarlarni hamda garovga olinayotgan mol-mulkning bozor narxlarini diqqat bilan baholash asosida, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektning depozit hisob raqamiga mablag' kelib tushishi faqatgina obyektiv sabablarga ko'ra, ya'ni unga bog'liq bo'lmagan sabablar, hamda davlat buyurtmalarini bajarish bilan bog'liq maxsulotlarni ishlab chiqarish yoki O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan o'ta muxim

vazifalarni bajarish natijasida kechiktirilgan xollarda ajratiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektni kreditlash pul oqimining amalda yaqin 1-1,5 oy ichida xo'jalik yurituvchi subyektiga aniq kelib tushishi mumkinligini tasdiqlovchi prognoz bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlariga ish xaqini to'lash uchun kredit 45 kun muddatga tuziladigan kredit shartnomasiga binoan alohida ssuda hisob raqamini ochish orqali beriladi. Ish xaqini to'lashga kredit olish uchun xo'jalik subyektlari bankka quyidagi hujjatlarni:

- a) ish xaqini to'lashga kredit olish uchun arizani;
- b) oxirgi hisobot davri uchun kreditorlik va debitorlik qarzlari ro'yxatini;
- v) ish xaqini to'lashga olingan kreditni so'ndirish manbai sifatidagi pul oqimlari prognozini;
- g) kreditni qaytarilishi ta'minoti sifatida - yuqori likvidli mol-mulk garovini, shuningdek moliyaviy barqaror tashkilotning kafilligini taqdim etadilar.

Banklar tomonidan ta'minot sifatida qarz oluvchining yuqori likvidli mol-mulki, shu jumladan ishlab chiqarish va infratuzilma obyektlari, transport vositalari hamda boshqa likvidli aktivlari qabul qilinadi.

Bank tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda mavjud axborotlari asosida hamda xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini tahlili, ish xaqini berish uchun mablag' yetishmasligi sabablarini, kreditni so'ndirish uchun real manbalarni aniqlash asosida ariza berilgan kundan boshlab ikki ish kunida ish xaqiga kredit berish (yoki bermaslik) to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Quyidagi xollarda ish xaqini berish uchun kredit berish taqiqlanadi:

- a) to'lov qobiliyatini yo'qotgan korxonalarga va bankrot deb e'lon qilingan korxonalarga;
- b) agar korxona bankka kreditni so'ndirishi to'g'risida aniq va ishonchli axborotni bermaganda;
- v) korxona tomonidan uzoq vaqt moliyaviy va xo'jalik uzilishlarga yo'l qo'ysa;
- g) so'ndirish uchun real manbaalari mavjud bo'lmasa.

Bank qarzdor korxonadan ish xaqini to'lash uchun berilgan kreditni maqsadli ishlatgani to'g'risidagi hisobotni talab qilishi mumkin. Zarur bo'lib qolgan taqdirda bank kredit shartnomasida nazarda tutilgan tartibda joyiga chiqib ish xaqini to'lash uchun berilgan kreditni maqsadli ishlatilganligini tekshirishi mumkin.

Ish xaqini to'lash uchun beriladigan kreditlarning foiz stavkasi kredit beriladigan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Ish xaqini to'lash uchun berilgan kreditni so'ndirishni shartnomada ko'rsatilgan muddatlardan kechiktirilgan xollarda bank quyidagi xuquqlarga ega bo'ladi:

a) qarzdorlarning ikkilamchi hisob raqamlariga, shuningdek boshqa banklarda ochilgan hisob raqamlariga ham, ijrosi majburiy bo'lgan inkasso talabnomalarini qo'yish;

b) qarz oluvchining roziligidan qat'iy nazar, keyinchalik belgilangan tartibda uni sotish xuquqi bilan bankning mulkiga o'tadigan garovga qo'yilgan mol-mulkka qonunda belgilangan tartibda egalik qilish;

v) kredit bo'yicha qarzni qarzdorning roziligi bilan yoki xo'jalik sudi orqali to'lovni qarzdorning mulkiga qaratish yo'li bilan qarzdorning likvidli mulki hisobidan yoki Xo'jalik sudi qarori asosida so'ndirish.

Qarz oluvchi tomonidan uning asosiy qarzni va unga hisoblangan foizlarni kredit shartnomasida kelishilgan muddatda so'ndirilmagan xollarda garovga qo'yilgan mol-mulk, qarz oluvchining roziligidan qat'i nazar, uni keyinchalik sotish xuquqi bilan birga bank mulkiga o'tadi.

Ish xaqini to'lash uchun berilgan kreditni muddatini uzaytirish (prolongasiya) ga yo'l qo'yilmaydi.

Tijorat banklari tomonidan investision loyihalarni moliyashtirish tartibi.

Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi subyektlar va jismoniy shaxslarga investision kreditlar qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va berilgan kreditlarni maqsadga muvofiq ishlatishlik tamoyillariga rioya qilingan holda, shartnoma asosida beriladi. Ushbu ajratilayotgan kreditlar mijozning birlamchi hisob raqami ochilgan

bank filialidan, ayrim hollarda ikkilamchi hisob raqami ochilgan bank filialidan berilishi mumkin.

Zarar ko'rib ishlovchi, nolikvid balansga ega xo'jalik yurituvchi subyektlarga investision kreditlar berilmaydi, agar ilgari kreditlar berilgan bo'lsa belgilangan tartibda muddatidan oldin undirib olinadi. Ushbu qoida kredit shartnomasida qayd etilishi shart.

Kredit resurslaridan uzoq muddatli moliyaviy tangliklar, xo'jasizlik va zararlar o'rnini qoplashda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Qurilish, qayta ta'mirlash, texnik jihatdan ta'minlash va ishlab chiqarish majmualarini (obyektlari) kreditlash quyidagi shartlar bajarilgan taqdirdagina amalga oshiriladi:

- loyiha - smeta hujjatlarini muvofiqlashtirish va tasdiqlanishini amaldagi tartib asosida amalga oshirilishi;

- Davlat Qurilish nazorati yoki uning mahalliy organlarining barcha turdagi qurilish ishlari, turlarini mulkchilik shaklidan qat'iy nazar olib borish to'g'risida yozma ruxsatnomasi;

- loyihalarning kontrakt-shartnomasi bilan ta'minlanganligi;

- pudrat ishlarini amalga oshirish davridagi jarayonlarni hisobga olgan holda tuzilgan kontrakt-shartnoma bilan ta'minlanganligi;

- qarz oluvchi tomonidan taqdim etilayotgan loyiha iqtisodiy jihatdan o'zini oqlashini bank ekspertiza komissiyasi tomonidan maqullanishi;

- loyiha qiymatidan kelib chiqqan holda uning xususiy yoki boshqa moliyaviy manbalar bilan ta'minlanganligi. Bunda xususiy mablag'lari kreditlanayotgan obyektning 25% miqdoridan kam bo'lmasligi lozim;

Investision kreditlar-xo'jalik yurituvchi subyektlarga yangi turdagi maxsulot va yangi texnologik jarayonlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarishni qayta tiklash va yangilash bilan bog'liq tez qoplanuvchi va yuqori samara beruvchi tadbirlar uchun beriladi. Kreditdan foydalanishning aniq muddati kreditlanayotgan obyektlar bo'yicha mablag'larning aylanishi va harajatlar oqlanishi asosida belgilanadi.

Investision kreditlar-ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlarga mo'ljallangan obyektlarni qurish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta jixozlashga doir harajatlar bilan bog'liq investisiya maqsadlari uchun 3 yil va undan ortiq muddatga beriladi.

Kapital qurilishi obyektlarini qayta ta'mirlash va texnologik jarayonlarni ishga tushirishni kreditlash quyidagi shartlar bajarilgandan keyingina amalga oshiriladi. Jumladan:

- loyiha-smeta hujjatlarini amaldagi andozalar(normativ) asosida va ushbu tartib shartlaridan kelib chiqqan holda kelishib, tasdiqlash;

- davlat arxitektura nazorati yoki mahalliy xokimiyat organlarining barcha turdagi qurilish ishlarini amalga oshirish uchun yozma ruxsatnomasi;

- olinadigan yangi texnologiya va xom-ashyolarning shartnoma bilan ta'minlanganligi;

- bajariladigan ish va xizmatlar pudrati inflyasiya xolatlarini hisobga olgan hisob-kitobi va shartnoma bilan ta'minlanganligi;

- kredit oluvchi tomonidan taqdim qilingan iqtisodiy hisob-kitoblarning o'z-o'zini qoplashi to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan ekspertizadan o'tkazilganligi to'g'risidagi xulosalar;

- majmualar xo'jalik subyektlarining o'z manbalari hisobidan yoki loyiha qiymatining 25% tayyorgarligi mavjud bo'lgan taqdirdagina kreditlanadi;

- qurilish majmualari agar xo'jalik yurituvchi tomonidan oldin olingan kreditlaridan muddati o'tgani mavjud bo'lsa u holda kreditlanmaydi;

- bank tomonidan berilgan kreditni o'z vaqtida to'liq qaytarilishini ta'minlash maqsadida kafolatnoma, garov, yoki boshqa majburiyatlar olinadi.

Mijoz bankka uzoq muddatli (investision) kredit olish uchun murojaat qilganda Bank bo'limining vakolatli xodimi (kredit inspektori) unga kreditni berish tartibi va shartlarini tushuntiradi, Kredit olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxatini tuzadi, mijoz bilan kredit berish shartlarini kelishib oladi.

Kreditlarni rasmiylashtirish quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- * kredit oluvchining xuquqiy statusi (darajasi)ni aniqlash uchun uning arizasini ko'rib chiqish;

- * kredit oluvchining moliyaviy xolati va to'lovga layoqatini aniqlash;
- * kreditlanadigan majmualarning ekspertizasi;
- * kreditni rasmiylashtirib shartnoma tuzish.

Kredit oluvchining arizasini bank 10 kun muddat ichida ko'rib chiqib, kredit arizasi bo'yicha yozma xulosasini beradi.

Kredit oluvchining moliyaviy xolati va to'lovga layoqatligini aniqlash ishlari 15 bank ish kuni amalga oshirilishi shart. Istisno tariqasida, yirik investision loyihalar bo'yicha hujjatlar 20 bank ish kuni davomida ko'rib chiqilishi mumkin.

Kreditni rasmiylashtirish mijoz tomonidan taqdim qilingan arizani ko'rib chiqish bilan boshlanadi. Kredit arizasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- * so'ralayotgan kredit summasi va loyiha maqsadi;
- * muddati;
- * aktivlar summasining nisbati;
- * kreditlanayotgan majmuaning o'z-o'zini qoplash muddati;
- * asosiy qarz va foiz to'lovlarini qaytarish muddati;
- * kredit ta'minoti vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- * jalb qilingan (qarz) vositalari;
- * boshqa banklardagi hisob-varaqlari to'g'risidagi ma'lumot;
- * boshqa korxona, tashkilotlarda o'z mablag'i bilan qatnashishi.

Agar kreditlanayotgan majmua (obyekt) qurilish, ta'mirlash, texnologik qayta qurish ishlari bilan bog'liq bo'lsa, u holda mijoz tomonidan moliyaviy xolati va kreditni qaytarish layoqatligini hamda loyihani kompleks ekspertizadan o'tkazish uchun quyidagilar taqdim qilinadi:

- * loyiha texnik - iqtisodiy hamda loyiha qiymati bo'yicha tegishli hujjatlarini o'rnatilgan tartib - qoidalarga muvofiq asoslash;
- * qurilish loyihasining moliyaviy nuqtai nazardan qiymatini baholash, loyiha moliyaviy baholash hisob-kitobi;
- * qurilishni chorak (yillar) bo'yicha bajarilishini kerak bo'lgan ishlarini o'rnatilgan tartib asosida tasdiqlash;

- * davlat arxitektura qo'mitasi tomonidan berilgan lisenziyaga ega bo'lgan mustaqil ekspertiza tashkilotining loyiha smeta hujjatlari bo'yicha ekspert xulosasi;
- * davlat ekologiya nazorati organlarining qurilish bo'yicha ekspert xulosasi;
- * loyiha summasi 50,0 mln so'mdan yuqori bo'lgan loyihalar bo'yicha pudrat tashkilotining tender tanlovidan o'tganligi to'g'risidagi hujjatlar to'plami;
- * to'lovga layoqatliligini aniqlash uchun mijozning oxirgi uch yildagi moliyaviy hisoboti (moliyaviy hisobotlarning № 1,2,2a va 5 shakllari);
- * kreditni ta'minlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- * mahalliy xokimiyat organlari tomonidan yangi quriladigan uy va yerdan foydalanishga ruxsat berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

Bank yuqoridagi hujjatlardan tashqari investision dasto'rni to'liq amalga oshirish va mijozni kreditga layoqatini aniqlash uchun boshqa hujjatlarni talab qilish mumkin;

Kredit shartnomasi imzolangandan keyin mijozga ssuda hisob varaqasi ochiladi hamda barcha amaliyotlar kredit shartnomasi shartlaridan kelib chiqqan holda ssuda hisob varaqasi orqali amalga oshiriladi.

Ssuda hisob raqamidan bo'ladigan amaliyotlar kredit shartnomasi asosida obyekt loyiha qiymatidan kelib chiqqan holda, loyiha tarkibiy qismlarining harajatlari yillik o'rnatilgan me'yordan oshmagan va belgilangan manzilli (adresli) ro'yxatlar asosida narxlar indeksiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ssuda hisob raqamidan to'lov hujjatlari asosida amalga oshirilgan ishlar, sotib olingan asbob va uskunalar hamda boshqa harajatlar loyiha doirasida amalga oshiriladi.

Markazlashtirilgan kreditlar hisobidan moliyalashtirilayotgan mablag'lar hisobidan berilayotgan bo'naklar pudratchilar tomonidan maqsadli ishlatilmagan taqdirda bank buyurtmachiga ushbu xolat yuzasidan xabar beradi va davlat soliq organlari, xuquqni ximoya qiluvchi organlarga belgilangan tartibda xabar beradi.

Ssuda hisob varaqasida to'lov foizlarini qaytarish jadvali mijoz hisob raqamiga pul oqimlarining kelib tushishiga qarab o'rnatiladi. Taraflarning kelishuviga muvofiq asosiy qarz va to'lov foizlarini qaytarish jadvaliga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Asosiy qarz va to'lov foizlarini o'z muddatidan oldin qaytarilishi mumkin. Bunday holda mijoz kreditdan haqiqiy foydalangan kunlari uchun foiz to'lovlarini to'laydi.

Agar mijoz tomonidan asosiy qarz va foiz to'lovlari shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lab borilmasa bank quyidagi choralarni qo'llashi mumkin:

- * norozilik (pretenziya) xati jo'natish;
- * O'zbekiston Respublikasi FKning 279-moddasiga muvofiq qarz beruvchining talablarini qondirish uchun undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratish.
- * xo'jalik sudlariga ariza orqali murojaat qilish.

Investision (uzoq muddatli) kreditlar bo'yicha asosiy qarzni qaytarish biznes-reja muvofiq pul oqimlarining kelib tushishi va ishlab chiqarish jarayonlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Kredit resurslarining samarali ishlatilishi, mablag'lar aylanishini tezlashtirish maqsadida kreditlarni qaytarish muddati sharnoma amal qiladigan muddat ichida har chorakda teng miqdordagi to'lovlar asosida belgilanadi.

Ta'lim krediti

Ta'lim kreditlari tijorat banklari filiallari tomonidan oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlariga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqorosi bo'lgan talabalarining o'qishi uchun talabalarining o'zlariga, ularning ota-onalariga yoki vasiylariga berilishi mumkin.

Ta'lim kreditlari, oliy ta'lim muassasalarida o'qish davri hisobga olgan holda, bakalavriatga o'qishga qabul qilingan talabalarga 10 yilgacha, magistraturaga o'qishga qabul qilingan talabalarga 5 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi. Muddatli harbiy xizmatni o'tash davri bu muddatga kirmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 26 iyuldagi 318-sonli qaroriga muvofiq bank filiallari tomonidan berilgan ta'lim kreditlari bo'yicha quyidagi foiz stavkalari belgilanadi:

-chin yetimlarga, "Mehribonlik uylari"da tarbiyalanganlarga hamda bolalikdan I va II guruh nogironlariga-nol foiz stavkasi (foizsiz kredit);

-talabalarning qolgan toifalariga - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan o'zgaruvchan foiz stavkalari.

Kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan talabalar uchun kredit bo'yicha qo'shilgan foizlarning 50 foizi mehnat, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofaza qilish tuman bo'limlari tomonidan Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'laridan to'lanadi.

Ta'lim kreditlari bo'yicha foiz stavkasi va bank filiallari tomonidan qo'shiladigan foizlar uchun to'lovlar miqdori Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi o'zgarishiga qarab o'zgarishi mumkin, bu kredit shartnomasida qayd etilishi kerak.

Bankka ta'lim kreditini olish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1. Ta'lim krediti olish to'g'risida ariza.

2. Talaba va oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi to'lov-kontrakt asosida o'qish haqida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan shartnoma (kontrakt). Kontraktda o'qishning belgilangan muddati va bir yil uchun to'lov miqdori ko'rsatilgan bo'lishi lozim. O'qish uchun to'lov miqdori keyingi yillarda o'zgargan hollarda kontraktlarga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi, bu haqda oliy ta'lim muassasasi o'n kun muddatda bankka yozma ravishda ma'lum qiladi, so'ngra qarz oluvchi, bank va oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi kredit shartnomasiga zarur o'zgartirishlar kiritiladi.

3. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan qarz oluvchining yashash joyi to'g'risida berilgan ma'lumotnoma.

4. Kreditni qaytarishining ta'minlanishi to'g'risida hujjat:

Agar uchinchi shaxs tomonidan kafillik berilsa, avval kafilning moliyaviy ahvoli va to'lov qobiliyati o'rganilib chiqiladi va so'ngra kafil bilan shartnoma tuziladi. Kafillik shartnomasi kreditning to'liq summasini va uning foizlarini o'zida jamlab olishi lozim. Agar kafillik beruvchi yuridik shaxs bo'lsa, unda kafillik shartnomasida:

■ kafilning bank hisob raqami ahvoli to'g'risida ma'lumot;

- kafilning boshqa bankdagi hamma bank hisob raqamlari hamda undagi qoldiqlari bilan birga ko'rsatilgan ma'lumotnoma;

- kafilning bank oldida ssuda bo'yicha va boshqa qarzlari yo'qligi to'g'risidagi ko'rsatma;

- kafilda kartoteka №2 yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnomalar ilova qilinadi.

Agar kafillik beruvchi jismoniy shaxs bo'lsa, albatta uning ish joyidan ish haqining hajmi va boshqa to'lovlar haqida ma'lumot hamda pasporti bo'lishi kerak.

5. Sug'urta kompaniyasining qarz oluvchining kreditni qaytara olmasligi xavfi sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi. Bunda sug'urta mukofoti summasi nafaqat kredit summasini qoplashi kerak, balki uning foizlarini ham. Sug'urta polisida bank sug'urta mukofotini oluvchi ekanligi aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, sug'urta polisi bo'yicha sug'urta to'lovi to'langanligi to'g'risidagi isbotlovchi ko'rsatmani ko'rsatishi kerak;

6. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining kafilligi(faqat chin yetimlar va "Mehribonlik uylari" da tarbiyalanganlar, bolalikdan I va II guruh nogironlari va kam ta'minlangan oilalardan chiqqanlar uchun).

Qarz oluvchi yuqoridagi hujjatlarni bankka taqdim etish bilan ayni bir vaqtda pasportni shaxsan o'zi ko'rsatadi. Bank pasportdan va taqdim etilgan boshqa hujjatlardan zarur ko'chirmalar va nus'halar olishga haqlidir.

Uy-joy qurishga, uni rekonstruksiya qilishga va sotib olishga ipoteka kreditlarini berish keng yo'lga qo'yilib kelinmoqda. Shuni aytish lozimki, so'nggi yillar davomida aholining uy – joyga bo'lgan talabi keskin ravishda oshib bormoqda. Buni so'nggi ikki yil davomida uy – joy bozoridagi narxlarning tahlilida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Narxlar indeksi deyarli o'n barobardan oshib ketdi. Mavjud holat aholining bank kreditlariga bo'lgan talabini ko'paytirib yubordi. Bu esa albatta O'zbekiston Respublikasi hukumati Markaziy banki va tijorat banklari rahbariyatidan chetga qolgani yo'q. Uy – joy bozoridagi holatini stabillashtirish va aholining bank kreditlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida «Ipoteka to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonun asosida 2007 yil 3 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2-sonli Qarori bilan «Uy-joy qurilishiga, uni rekonstruksiya qilishga va sotib olishga ipoteka krediti berish to'g'risida»

gi Nizomning tasdiqlanishi ipoteka krediti bo'yicha huquqiy-me'yoriy bazani yanada mustahkamladi.

Shu asoslarga ko'ra ipoteka kreditining berilish tartibi to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tsak:

Ipoteka kreditlari tijorat banklari tomonidan qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik va muddatlilik shartlari asosida quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

❖ qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kelishilgan yakka tartibdagi va namunaviy loyiha asosida, qurilishning belgilangan normalari va qoidalariga rioya qilib yakka tartibda uy-joy qurish va rekonstruksiya qilish;

❖ yakka tartibdagi uy-joyni yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani sotib olish.

Tijorat banklari tomonidan ipoteka kreditlari qo'yidagilar hisobidan beriladi:

- ipoteka krediti berishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining imtiyozli kredit liniyalari;
- kredit liniyalari, shu jumladan imtiyozli kredit liniyalari, xalqaro va xorijiy moliya institutlarining ipoteka krediti uchun berilgan grantlari va investisiyalari;
- tijorat banklarining o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lari.

Odatda Jamg'armaning imtiyozli kredit liniyalari hisobidan beriladigan kreditlar uch yillik imtiyozli davr va foiz stavkasi bilan kamida 15 yil muddatga beriladi, foiz stavkasi miqdori ipoteka krediti berishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini boshqarish bo'yicha Vasiylik Kengashi tomonidan har bir kredit liniyasi bo'yicha tasdiqlanadi va u yiliga 5 foizdan ortiq bo'lishi mumkin emas. Tijorat banki tomonidan Jamg'armaning imtiyozli kredit liniyalari hisobidan beriladigan ipoteka krediti miqdori:

- yakka tartibda uy-joy qurilishi va sotib olishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish xaqining 3000 baravarigachani;

- yakka tartibda qurilgan uy-joyni rekonstruksiya qilish, shuningdek ko'p kvartirali uydagi kvartirani sotib olish uchun eng kam oylik ish haqining 2500 baravarigachani tashkil etadi.

Qarz oluvchi ipoteka krediti olish uchun buyurtmanoma taqdim etganda bankning ipoteka krediti olish uchun buyurtmanomalarni qabul qilish bo'yicha mas'ul xodimi mijozga ipoteka kreditining asosiy yo'nalishlari bo'yicha izoh beradi. Shuningdek, u mijozning barcha savollariga javob beradi hamda unga ipoteka krediti berish yuzasidan buyurtmanomani rasmiylashtirish uchun talab etiladigan barcha hujjatlar ro'yxatini taqdim etadi. Qarz oluvchi ipoteka krediti olish uchun bankka murojaat qilgandan keyin bank qarz oluvchini ipoteka kreditini olish jarayonidagi taxminiy xarajatlar turlari bilan tanishtiradi. Qarz oluvchi ipoteka krediti olishda qo'yidagi xarajatlarni amalga oshirishi kerak:

- ipoteka krediti to'g'risidagi shartnomani notarial tasdiqlash uchun davlat boji;
- garovga qo'yilgan ko'chmas mulkni sug'urtalash bilan bog'lik xarajatlar;
- mulk qiymatini baholash uchun to'lov;
- ipoteka to'g'risidagi shartnomani ro'yxatdan o'tkazish uchun to'lov.

Qarz oluvchi tomonidan yakka tartibda uy-joy qurishga kredit olish uchun tijorat bankiga so'ralayotgan kredit summasini ko'rsatgan holda kredit olishga buyurtmanomasi va arizasi (ariza nusxasi: ilovaga qaralsin) bilan birga qo'yidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- yakka tartibda uy-joy qurish uchun ariza beruvchining yer uchatkasiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatning notarial tasdiqlovchi hujjatning notarial tasdiqlangan nusxasi;
- ariza beruvchining va u bilan birga yashaydigan oila a'zolarining daromadlari to'g'risidagi oxirgi 12 oy uchun doimiy ish joyidan berilgan ma'lumotnomalar;
- yakka tartibda uy-joy qurishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kelishilgan va qarz oluvchi tomonidan tasdiqlangan loyiha nususxasi;
- ariza beruvchining nomiga ochilgan jamg'arma omonat hisob raqamida pul mablag'lari joylashtirilgani to'g'risidagi bank ma'lumotnomasi

- ariza beruvchining oilasi tarkibi to'g'risidagi yashash joyidan berilgan ma'lumotnoma va uning pasporti nusxasi.

Bank tomonidan ipoteka kreditlari ssuda hisob raqamidan mablag'larni qarz oluvchining bank kredit kartochkalariga o'tkazish yo'li bilan ham berilishi mumkin. Bunda bank kredit kartochkasi qarz oluvchi nomiga alohida shartnomani rasmiylashtirish yo'li bilan beriladi. Shartnomada ushbu bank kredit plastik kartochkasidagi mablag'lardan fakat yakka tartibda uy-joy kurishga yoki yakka tartibdagi uy-joyi rekonstruksiya qilish uchun qurilish materiallarini sotib olishda foydalanilishi belgilab qo'yilishi kerak. Ushbu bank kredit plastik kartochkalaridan naqd pul berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qarz oluvchi bank kredit plastik kartochkasi vositasida amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida har oyda bankka terminallar cheklari, sotib olingan tovarlar uchun chakana savdo tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan beriladigan schyotlar, kvitansiyalar, yukxati yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hujjatlar ilova qilgan holda hisobot taqdim etishi kerak. Bank hisobotga ilova qilingan hujjatlarni tahlil etish jarayonida bank kredit kartochkasi vositasida hisob-kitob qilish vaqtida kreditdan boshqa maqsadlarda foydalanilganini aniqlagan taqdirda bank kredit kartochkasi to'g'risidagi shartnoma bekor qilinadi, bank kredit kartochkasi hisob raqami yopiladi va bank kredit kartochkasi olib qo'yiladi. Kreditning boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan qismi uchun kredit shartnomasida belgilangan miqdorda jarima solinadi va uni undirib olish choralari ko'riladi.

Bugungi kunda tijorat banklari oldidagi ustuvor vazifa – aholi turmush darajasini oshirish, iste'mol kreditlari berishni jadallashtirish, ayniqsa uy-joy qurilishi va sotib olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. 2003-2006 yillarda aholiga 16,2 mlrd. so'm iste'mol kreditlari ajratildi.

Banklarda kelgusida bu boradiga olib boriladigan ishlarni yanada jonlantirish, shuningdek, 2008 yil «Yoshlar yili» Davlat dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, asosiy e'tibor aholiga beriladigan iste'mol kreditlari miqdorini keskin oshirishga qaratilmoqda.

Ya'ni, kam ta'minlangan, ko'p bolali va yangi turmush qurgan yosh oilalarga uy-joy, mebel va boshqa zaruriy jihozlar sotib olish uchun kredit ajratish ishlarini yanada jadallashtirish choralari ko'rilmogda.

«O'zbekiston Respublikasida yoshlarga doir davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonun, «Yoshlar yili» Davlat dasturiga muvofiq yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, mehnat faoliyatini boshlash, mustaqil hayotga kirib kelishda ularga zarur yordam ko'rsatish, barqaror daromad manbalarini shakllantirish mexanizmlari, amaliy rag'batlantirish omillarini yaratish hamda ularning uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 18 maydagi «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga asosan yosh oilalarga ipoteka va iste'mol kreditlari ajratish yo'li bilan uy-joy sotib olish yoki qurish, uy xo'jaligini yo'lga qo'yishda qo'llab-quvvatlanmogda.

Xususan, 2007 yilning 6 oyida jami 903 ta yosh oilaga 1589,3 mln.so'm, shu jumladan, 40 ta oilaga 463,3 mln. so'm ipoteka kreditlari, 426 ta oilaga 472,2 mln. so'm iste'mol krediti va 473 ta yosh oila hisoblangan tadbirkorlik subyektlariga 653,8 mln.so'm imtiyozli mikrokreditlar ajratildi.

Xususiy tadbirkorlar, fermer xo'jaliklari va kichik biznes subyektlariga beriladigan mikrokreditlar va mikrolizing xizmatlari.

So'nggi yillarda respublikamizda kichik biznes subyektlarini imtiyozli kreditlash mexanizmi yaratildi va kredit berishda talab qilinadigan hujjatlar soddalashtirildi hamda son jihatidan qisqartirildi.

Buning natijasida tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslaridan foydalanish imkoniyati tubdan yaxshilandi.

Mamlakatimizning moliyaviy tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri tijorat banklarining kreditlashiga alternativ ravishda nobank kredit tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash shakllarini rivojlantirish hisoblanadi. Bu sohada birinchi qadam 2002 yilning aprelida kredit uyushmalari faoliyatini me'yoriy-huquqiy

asoslarini belgilaydigan «Kredit uyushmalari to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi bo'ldi.

2006 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to'g'risida»gi hamda «Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunlari respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan navbatdagi ishlarni amalga oshirishga qo'yilgan qadam bo'ldi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida birgina 2007 yil davomida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar hajmi 2006 yilga nisbatan 136% ga oshib, **110,0 mlrd.so'mni** tashkil etgan. (1-jadvalga qaralsin.)

1-jadval.

Tijorat banklari tomonidan milliy valyutada kichik biznes subyektlariga 2007 yil davomida ajratilgan mikrokreditlar to'g'risida ma'lumot.

№	Banklar nomi	Mrld.so'm	Foizda, %
1	TIF Milliy banki	10,4	9,5
2	Paxta bank	18,6	16,9
3	Asakabank	6,3	5,7
4	Mikrokreditbank	35,0	31,8
5	O'zsanoatqurilishbank	10,9	9,9
6	Ipotekabank	6,1	5,5
7	Savdogarbank	3,6	3,3
8	G'allabank	3,0	2,7
9	Turonbank	2,4	2,2
10	Boshqa banklar	13,7	12,5
	Jami:	110,0	100%

2007 yil iyul holatiga tijorat banklarida hisob raqam ochib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan kichik va xususiy biznes subyektlari soni Samarqand viloyati miqyosida 35279 tani tashkil etdi.

Barcha moliyalash manbalari hisobidan kichik va xususiy biznes subyektlariga berilgan kredit miqdori 43556,9 mln. so'mni tashkil etdi.

Berilgan kreditlar tarmoqlar bo'yicha tahlil qilinganda, umumiy kreditning (43556,9 mln.so'm) 14852,9 mln.so'mi yoki 34,1 foizi sanoat, 13197,7 mln.so'mi yoki 30,3 foizi qishloq xo'jaligi, 9756,8 mln.so'mi yoki 22,4 foizi savdo va vositachilik, 3658,8 mln.so'mi yoki 8,4 foizi qurilish hamda maishiy xizmat ko'rsatish va 2090,7 mln.so'mi yoki 4,8 foizi boshqa sohalarni rivojlantirishga yo'naltirildi.

Berilgan 43556,9 mln.so'mlik kreditning 16860,4 mln.so'mi qisqa va 26696,5 mln.so'mi uzoq muddatli kreditlardir.

Ajratilgan kreditlar hisobiga jami 6934 ta yangi ishchi o'rinlari yaratildi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida ushbu subyektlarga 7553,7 mln.so'mlik mikrokreditlar ajratildi.

2008 yil yanvar xolatiga tijorat banklari kreditlarining tarmoqlar bo'yicha ulushini 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

Tijorat banklari kreditlarining tarmoqlar bo'yicha ulushi, mln.so'mda.

(1-yanvar holatiga)

Tarmoqlar	2005 y	2006 y	2007 y
Sanoat	25994,7	36756	49584
Qishloq xo'jaligi	10222,1	13147,2	20247,5
Transport va aloqa	722,5	1001,2	807,1
Qurilish	2508,9	4669,1	4883,6
Savdo va umumiy ovqatlanish	6950	8585	13922,1
Moddiy texnik ta'minot	1547,9	3164	2878,6
Kommunal xizmat	617	512,5	497,6
Boshqalar	11354,2	13011	23351,4

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2007 yil mobaynida Samarqand viloyati miqyosida 2625 ta kam ta'minlangan xo'jaliklarga jami 2231,7 mln.so'mlik imtiyozli, maqsadli mikrokreditlar ajratildi. Bundan 2021,7 mln.so'mi tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobiga va 210,0 mln.so'mi Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi hisobiga to'g'ri keladi.

Milliy iqtisodiyotda yetakchi tarmoqlarning qayta tarkibiy tuzilishini ta'minlovchi investision dasturlar, loyihalarni amalga oshirishga viloyat banklari ham faol ishtirok etmoqda.

Respublikamiz tijorat banklari tomonidan mijozlarni mablag'lar bilan ta'minlash yagona tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, uning batafsil bayonini 3- jadvalda ko'rib o'tishimiz mumkin.

3 -jadval.

Mijozni mablag' bilan ta'minlash shartlari:

Kredit shartlari kredit turiga bog'liq		
Kredit turi	Kreditlash muddati	Kredit bo'yicha foiz stavkalari
Milliy valyutada qisqa muddatli kredit	1 yilgacha	12% - 14%
AQSh dollarlarida qisqa muddatli kredit	1 yilgacha	12% - 14%
Byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobiga	2 yilgacha	5% - 9%
Avtomobil xaridi uchun kredit	3 yilgacha	12%-14%

(jismoniy shaxslar uchun)		
Iste'mol kreditlari (jismoniy shaxslar uchun)	1 yilgacha	
Kreditning maksimal/ minimal summasi:	Yuridik shaxslarga – 1 mln. soʻmdan 1 mlrd. soʻmgacha Jismoniy shaxslarga – 100 000 soʻmdan 12 mln. soʻmgacha	
Qarz oluvchining oʻz kapitali qatnashuvi:	20-25 % kam boʻlmagan miqdorda	
Garov taʼminoti:		
<i>Turi</i>	▪ Koʻchmas mulk (faqat noturarjoy fondlari) ▪ Harakatlanuvchi mulk (transport) ▪ Uskunalar ▪ Zargarlik buyumlari, milliy va xorijiy valyutada pul mablagʻlari	
<i>Summa</i>	Kredit summasidan 125 %	
Qarzni qaytarishning imtiyozli muddati:	Loyihaning oʻzini oqlash muddati, yetkazib berish muddatlari va loyiha quvvatiga chiqishiga bogʻliq holda	
Kreditni olish/ foydalanishdan maqsad	▪ Aylanma mablagʻlarni toʻldirib olish ▪ Asosiy mablagʻlarni moliyalashtirish ▪ Savdo vositachilik operatsiyalari ▪ Vaqtinchalik ehtiyojlar (jismoniy shaxslar uchun – avtokreditlar va kompyuter va maishiy texnika, mebel olish uchun)	
Toʻgʻri keluvchi loyihalarga	▪ Ijobiy kredit tarixi	

talablar:	▪ Foydali va xaridorgir balans ▪ Hisob raqamidagi harakatlar 3 oydan kam bo'lmashligi lozim ▪ Xaridorgir garov ta'minoti, moliyaviy barqaror korxona kafilligi ▪ Bank bilan doimiy aloqa
Kredit olish arizasini ko'rib chiqish uchun zarur xujjatlar to'plami:	▪ Korxona Nizomi ▪ Notarial tasdiqlangan Ta'sis shartnomasi ▪ Agar faoliyat turi maxsus lisenziya talab qiluvchi faoliyat turiga kirsa, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi lisenziya ▪ Kredit arizasi ▪ Davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) bo'limi tomonidan tasdiqlangan so'nggi hisobot davri bo'yicha buxgalterlik balans. Unda 60 kundan ortiq kreditorlik va debitorlik qarzdorliklari, qarzdorlik bor-yo'qligini tekshirish dalolatnomalari tahlili aks etgan bo'lishi lozim. ▪ Foyda va zararlar haqida hisobot. ▪ Boshqa kreditorlardan olingan qarzlar va boshqa banklarda saqlanayotgan ekin mablag'lar haqida ma'lumotnoma. ▪ O'z kapitali bilan boshqa korxonalar tashkil qilishda qatnashganlik haqida ma'lumotlar ▪ Pul oqimlari harakati haqida hisobot . ▪ Pul oqimi harakatining tahlili albatta

	ko'rsatilgan biznes-reja (loyihaning texnik-iqtisodiy asosnomasi). ▪ Kreditni rasmiylashtirish masalasida ta'sischilarning roziligi haqida bayonnoma. (agar garov rasmiylashtirish ko'zda tutilayotgan bo'lsa, bu masala yuzasidan ham). ▪ Qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar to'g'risida (ilgari berilgan kafilliklar va h.k.). ▪ Xom-ashyo, uskunalar yetkazib berish bo'yicha yurist tomonidan tasdiqlangan shartnomalar. ▪ Ishlab chiqarilayotgan mahsulotni realizasiya qilish bo'yicha shartnomalar, niyatlar haqida bayonnomalar. ▪ Xususiylashtirilgan obyektlar bo'yicha davlat mulk qo'mitasi Hududiy boshqarmasining Davlat orderi yoki ijara haqida shartnoma. ▪ Auditorlik xulosasi.
Kredit arizasini ko'rib chiqish muddati:	To'liq xujjatlar paketi taqdim qilingan holda: ▪ mikrokreditlash uchun – 10 kungacha ▪ sarmoya loyihalari uchun – 20 kungacha.
YeTTB Kredit liniyalari mablag'lari hisobiga kredit berilganda:	

Kredit liniyasi	Asosiy me'yorlar/ kredit liniyasi talablari		
KfV kredit liniyasi	Kreditlash shartlari:	Kreditning maksimal muddati - 5 yil (60 oy) Foiz stavkasi – yiliga 12% Majburiyat uchun komissiya – tanlangan kredit summasidan yillik 3%	
	Kreditning maksimal summasi:	500 000 Yevro	
	Arizachining o'z kapitali qatnashishi:	Loyiha umumiy qiymatining 25% kam bo'lmagan miqdorda	
	Garov ta'minoti:	Turi – uskunalar, ko'chmas mulk Summa – muqobil diskontni hisobga olgan holda kredit summasining 120% kam emas	
	Qarzni qaytarishning imtiyozli muddati:	1,5 yildan ko'p emas (18 oy)	
YeTTB Kredit liniyasi (mikrokreditlash)	Kredit turi	Kreditlash muddati	Kredit bo'yicha foiz stavkalari
	Naqd	6, 9, 12 oy	Yillik 48%
	Naqsiz	6, 9, 12 oy	Yillik 30%
	AQSh dollarlarida	6, 9, 12 oy	Yillik 24%
	Kreditning maksimal/minimal summasi:		100 000 so'm. – 50 000 000 so'm. 10 000 AQSh dollarigacha

	Qarz oluvchining o'z kapitali qatnashuvi:	Yo'q
	Garov ta'minoti:	Turi – transport, noturarjoy binolari, oltin, uskunalar Summa – 118%; 120%; 125% (kreditning qoplanishi + qo'shilgan foiz)
	Qarzni qaytarishning imtiyozli muddati:	Imtiyozlar yo'q
	Kredit olish arizasini ko'rib chiqish uchun xujjatlar paketi:	XK uchun: ▪ Patent ▪ Pasport ▪ Lisenziya ▪ Ijara shartnomasi ▪ Sertifikat ▪ Garov MChJ XF uchun: ▪ Nizom ▪ Balans ▪ Ijara shartnomasi ▪ Direktorga buyruq ▪ Ta'sis bayonnomasi ▪ Kreditga buyrug'i ▪ Lisenziya ▪ Sertifikat ▪ Pasport

		▪ Garov
	Kredit arizasini ko'rib chiqish muddati	3 kun

II BOB. KREDIT SIYOSATINING MOHIYATI VA MAZMUNI

2.1. Kredit siyosatining maqsadi va strategiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 2 martdagi «Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomiga asosan, bankning kredit siyostiga qo'yidagicha ta'rif beriladi:

Bank kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklari boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlari kreditlash portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir.

Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini ko'rsatishi va aniqlab berishi shart.

Tijorat banklarining kredit siyosati kredit menejmentini samarali olib borishning asosi hisoblanadi. Bu siyosat bank xodimlarining kredit berish, bankning kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq obyektiv standartlarini va mezonlarini aniqlab beradi.

Tijorat banklari kredit siyosati hujjat sifatida ishlab chiqiladi va bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Har bir bank o'z kredit siyosatini ishlab chiqishi va amalga joriy etishi lozim. Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank Kengashi va Boshqaruvi a'zolari, bankning boshqa mansabdor shaxslariga yuklatiladi.

Bankning kredit siyosati uning joriy bank strategiyasi va iqtisodiy holatiga muvofiqligini ta'minlash uchun bank Kengashi tomonidan yiliga bir marta tegishli yilning 1 fevraligacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi kerak.

Bank kredit siyosatining mazmuni qo'yidagilardan iborat:

- bank kredit portfelini aniqlash va shakllantirish (kredit turlari, qoplash muddatlari, miqdori va sifati) bilan bog'liq masalalar;
- bank raisining kredit faoliyati uchun javob beradigan o'rinbosari, kredit qo'mitasi raisi va kredit inspektoriga yuklangan vakolatlar ro'yxati;

- bankning kredit berish sohasidagi huquqlari va axborot taqdim etish bo'yicha jami majburiyatlari;
- kredit arizalari bo'yicha tekshirish va qaror chiqarish tizimi bayoni;
- kredit arizasiga ilova qilinadigan zaruriy hujjatlar va kredit ishida albatta saqlanadigan hujjatlar ro'yxati;
- kredit ishlari saqlanishi va tekshirilishi uchun kim javobgarligi, kim va qanday holatda ularni olish huquqiga egaligi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar;
- kreditning ta'minlanganligi va uni qabul qilish, baholash va amalga oshirishning asosiy qoidalari;
- barcha kreditlar sifatini belgilaydigan me'yorlar bayoni;
- eng yuqori kredit imtiyozlarini belgilash va ko'rsatish;
- bank xizmat ko'rsatadigan mintaqa, kredit qo'yilmalarining asosiy qismi joriy etiladigan tarmoq, iqtisodiyot sohasi yoki sektori;
- muammoli kreditlar tarkibi va tahlili, bunda muammolarni qanday hal etilishi ehtimollari ko'rsatiladi.

Odatda tijorat bankining kredit siyosati yo'nalishlari ko'yidagilardan iborat:

-  bank o'rni va obro'sini moliyaviy barqaror banklar singari yaxshilash;
-  O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativlariga muvofiq darajada o'z kapitalining yetarliligini ta'minlash;
-  bankning samaradorligi va barqarorligini inobatga olgan holda uning daromadlarining maksimallashtirishini ta'minlovchi aniq kredit va investisiya siyosatini o'tkazish;
-  strategik jihatdan muhim bo'lgan shahar rayonlarida yangi omonat kassalarini ochish bilan bog'liq bo'lgan tarmoqni kengaytirish.

Kredit siyosatining asosiy tamoyillari:

-  kreditlash to'g'risida qaror qabul qilishning barcha darajalari bo'yicha javobgarlikni taqsimlash;
-  bank tomonidan amalga oshiriladigan kredit operatsiyalari uchun aniq belgilangan shartlarning mavjudligi;

▣ maxsus kreditlash tamoyillari – muddatlilik, to'lovlilik, qaytarib berishlilik, ta'minlanganlik va maqsadlilik asosida beriladigan kreditlarni majburiy nazorat qilish;

▣ bank boshqaruvining umumiy siyosati bilan maxsus faoliyat yo'nalishi siyosatining uzviy bog'liqligi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat bankining kredit siyosati bankning kreditlashni amalga oshirishdagi maqsadi va strategiyasini, kredit berish jarayonida bank xodimlari vakolat darajasi va mas'uliyatini, tijorat banki tomonidan beriladigan kreditlarning turlari va toifasi, bank krediti yo'naltiriladigan iqtisodiyot sohalarini belgilab olish, kreditlash usullari, kreditlash ko'rsatkichlari, kreditlarni qaytarib to'lash shartlari va qoidalari, kreditning muddati, qarzdorlikni undirib olish bo'yicha chora-tadbirlar, yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar, mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida ifoda qiluvchi qarzdorlarning faoliyatiga doir moliyaviy axborotlar, garov ta'minotiga qo'yiladigan talablar, kredit monitoringiga qo'yiladigan talablar, foiz stavkalari bo'yicha bajariladigan operatsiyalar, ko'zda tutilmagan holatlar moddalari, kredit portfelini audit qilish bo'yicha talablar bank boshqaruvi va kengashiga taqdim qilinadigan hisobotlar bo'yicha talablarni o'zida ifoda qilishi lozim.

2.2. Bank kredit siyosatining asosiy mezonlari.

Kredit siyosatining birinchi navbatdagi maqsadi mijozlarning bank kreditlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, bankning o'z va jalb qilingan mablag'larini qulay shart-sharoitlarda joylashtirish orqali daromadlilikini oshirish, bank aksiyadorlarining yuqori daromad olishlarini ta'minlash, likvidlik ko'rsatkichlarini me'yor talablari darajasida ushlab turish, kredit portfelini diversifikasiyalash orqali tavakkalchiliklar (risklar)ni kamaytirish, kreditlash jarayonlarida qonun va me'yoriy huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini ta'minlashdan iboratdir.

Tijorat banki kredit siyosatini amaliyotga joriy etish orqali (odatda) quyidagilarga erishish rejalashtiriladi:

-iqtisodiy jihatdan kelajagi porloq, moliyaviy jihatdan o'zini – o'zi qoplab foyda keltiruvchi hamda bankning strategik maqsadlariga mos keluvchi loyihalarni moliyalashtirish uchun kreditlar berish;

-bank mijozlari bilan uzoq muddatli o'zaro foyda keltiruvchi munosabatlarni o'rnatish;

-bank amaliyotida kreditlashning o'z-o'zini oqlamagan turlari va usullari hamda muvaqqat harakterga ega va kelajagi yo'q turlarini amalda joriy etmaslik;

-yuqori sifatli bank kredit portfelini shakllantirilishini ta'minlovchi malakali kredit xodimlarini tayyorlash.

Tijorat banki kredit siyosatining *asosiy yo'nalishlari* - bu birinchi navbatda u xizmat ko'rsatadigan xalq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat ko'rsatuvchi tashkilot, korxonalar, shuningdek xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari, jumladan kichik biznes subyektlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va aholining barcha qatlamlariga hisob-kredit xizmatlarini ko'rsatish, kreditlash bo'yicha yangi bank mahsulotlarini joriy etishdan iboratdir.

Bank kredit siyosatining *strategiyasi* qo'yidagi vazifalarni amalga oshirishni asosiy vazifa deb biladi:

a) bank faoliyatining maqsadlaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining mikro va makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga muvofiq va belgilangan ravishda:

- kredit resurslari auksioni orqali tijorat banklariga banklararo kreditlar berish;
- korporativ mijozlar bilan ishlashni kuchaytirish. Imkoniyat doirasidan ko'proq yuqori obro' va e'tiborga ega bo'lgan mijozlarni banka jalb etish va ular bilan muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha hukumat dasturlarini amalga oshirishda iqtisodiyot tarmoqlariga maksimal darajada yordam berib, iste'mol bozorini kengaytirish;
- yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan xususiy tadbirkorlarga, fermer xqjaliklariga mikrokreditlar berish;

- davlat buyurtmalari asosida o'ta muhim vazifalarni bajarayotgan, rivojlanishi istiqbolli korxonalarga ish haqini to'lash uchun 45 kungacha bo'lgan muddatda hamda kelajakda (30-45 kun ichida) real pul oqimlariga ega xo'jalik subyektlariga qisqa muddatli kreditlar ajratish;

- qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishga mo'ljallangan aylanma mablag'larni to'ldirishga qaratilgan kreditlarni ajratish;

- aholini iste'mol mollari va mahsulotlari bilan ta'minlovchi savdo korxonalarining qisqa muddatli kreditlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish;

- hukumat qarorlaridan kelib chiqqan holda, yakka tartibda uy-joy qurilishini, rekonstruksiya kilishni rag'batlantirish maqsadida fuqarolarga uzoq muddatli kreditlar ajratish;

- kadrlarni rivojlantirish milliy dasturidan kelib chiqqan holda aholiga ta'lim kreditlarini ajratish;

- lizing amaliyotlarini keng tadbiq etish;

- mijozlar o'rtasida debitorlik-kreditorlik qarzlarini kamaytirish maqsadida faktoring amaliyotlari va maqsadli kreditlar ajratish ko'lamini yanada ham kengaytirish;

b) bank kredit portfeli sifatini yaxshilash va likvidliligini ta'minlash maqsadida:

- kredit portfelida muammoli kreditlar ulushini qisqartirish;

- muammoli kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zahiralarini o'z vaqtida va belgilangan tartibda tashkil etish;

- avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasini yaratish va kunlik monitoring o'rnatish orqali berilagan kreditlar ustidan nazoratni kuchaytirish va qaytarilishiga to'liq erishgan holda bank kredit portfeli sifatini oshirib borish;

- bevosita bankning o'z mablag'lari hamda yuridik va jismoniy shaxslardan jalb qilingan mablag'lar hisobidan ajratilayotgan kreditlarni berish jarayonida mijozlarning kreditga layoqatlilik darajasining mukammal tahlili va aniq hisob-kitobi asosida yuqori daromad keltiruvchi sarmoyalarga joylashtirish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolarga berilayotgan turli muddatli kreditlar va maxsus dasturlarni moliyalashtirish bilan bog'liq rasmiy hujjatlarning amaldagi qonun va ma'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlash.

Shunday qilib, kredit siyosati tijorat bankining daromadli va barqaror faoliyat yuritishi, uning raqobatbardoshligini oshirish nuqtai-nazaridan optimal, har taraflama muvozanatlashgan kredit portfelini shakllantirish hamda kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi bank tavakkalchiligini boshqarishga yo'naltiriladi.

Kredit siyosati tijorat banki strategiyasining bir qismi sifatida **strategik jihatdan**, kredit bozorida bankning harakat qilishidan ko'zlagan maqsadini, tamoyillarini va yo'nalishlarini, **taktik jihatdan** esa moliyaviy yoki boshqa vositalarni, kredit bitimlarini amalga oshirishdan bankning strategik maqsadlariga erishish yo'nalishlarini va qoidalarini hamda kreditlash jarayonini tashkil etish tartibini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

2.3. Tijorat banklari kredit siyosatini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari.

Tijorat banklarining kredit siyosatini amalga oshirish amaliyotining asosiy yo'nalishlari:

1. Bank tomonidan berilgan kreditlarning iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida joylashtirilganlik holati. Ushbu yo'nalishning ahamiyati, kredit portfelini diversifikasiya qilishning asosiy mezonlaridan biri – kreditlarni mijozlarning tarmoq xususiyatiga qarab joylashtirilganligidir.

2. Tijorat banki tomonidan berilayotgan qisqa va uzoq muddatli kreditlarning o'zaro nisbati. Inflyasiya darajasi nisbatan yuqori bo'lmagan va barqaror bo'lgan sharoitda uzoq muddatli kreditlar hajmini oshirish bank daromad bazasini mustahkamlashning asosiy belgilaridan biri sanaladi.

3. Bank tomonidan berilgan jami kreditlar hajmida muddati o'tgan kreditlar salmog'i o'zgarishi.

4. Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlar hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash.

5. Kreditlash shartlaridan foydalanish darajasi.

6. Foizlarni o'stirmaslik maqomiga ega bo'lgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar miqdorining o'zgarishi.

7. Banklarning kreditlash faoliyatida garov obyektlaridan foydalanish samaradorligi.

8. Tijorat banklarining yetarli darajada barqaror resurs manbalariga ega ekanligi.

Kredit siyosatining birinchi navbatdagi maqsadi mijozlarning bank kreditlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, bankning o'z va jalb qilingan mablag'larini qulay shart-sharoitlarda joylashtirish orqali daromadlilikini oshirish, bank aksiyadorlarining yuqori daromad olishlarini ta'minlash, likvidlik ko'rsatkichlarini me'yor talablari darajasida ushlab turish, kredit portfelini diversifikasiyalash orqali tavakkalchiliklar (risklar)ni kamaytirish, kreditlash jarayonlarida qonun va me'yoriy huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini ta'minlashdan iboratdir.

Tijorat banklari (odatda) faol kredit siyosatini amalga oshirib, istiqbolli investision loyihalarni moliyalashtirish orqali o'z resurslarini samarali joylashtiradi. Bundan tashqari import mahsulotlarini o'rnini bosadigan va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar, xalq iste'mol mollari, korxona tashkilotlarining moliyaviy holatini sog'lomlashtirish bo'yicha loyihalarni moliyalashtiradi.

Tijorat banklarining investision faoliyati davomida moliyaviy loyihalarni moliyalashtirish sohasida kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek loyihalarni chet el valyutasida moliyalashtirishni ko'zda tutgan. Buning natijasida tijorat banklarining investision portfeli yangi sifat darajasiga ko'tariladi va loyihalar bo'yicha xatarlarni baholashning aniq darajasi va ekspertiza sifati oshiriladi.

Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarni kreditlash, o'z kredit siyosatlari asosida to'lovlilik, qaytarishlilik, muddatlilik, ta'minlanganlik va ajratilgan mablag'larni maqsadga muvofiq ishlatishlik tamoyillariga muvofiq ravishda olib boradi.

Kreditlar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha turdagi subyektlarga ajratiladi va shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining filiallari kredit siyosati talablaridan kelib chiqqan holda kredit oluvchilar bilan munosabatlarini mustaqil ravishda tartibga soladilar hamda kreditlash obyektlari va u bilan bog'liq tadbirlarda mustaqil ish yuritadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kredit siyosati bankning o'ziga xos "kredit tili"ni yaratadi va u bank faoliyati yomonlashganda hamda kredit vakolatlari va majburiyatlari o'zgarganda huquqni saqlab qolish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qat'iy siyosat asosida berilgan bank umumiy kreditlash faoliyatining rivojlanishi va kreditlarning samarali ishlatilishi uchun zamin yaratadi. Kredit siyosati qoidalariga rioya etish bankning asosiy maqsadlari: foyda olishni ta'minlash, risklarni boshqarish bank faoliyati me'yorlariga rioya etishga erishish imkonini beradi.

Kredit siyosatining mavjudligi, eng muhimi – barcha darajalarda ishlab chiqilgan siyosatga rioya etish bank ssuda portfelini sifatli boshqarish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, uning qarzdorlari va aksiyadorlari foydasini ko'paytiradi va faravonligini oshiradi.

III BOB. KREDIT PORTFELINI SHAKLLANTIRISH VA UNING TAHLILI.

3.1. Kredit portfelini shakllantirishning ahamiyati va zaruriyati.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining kredit siyosatiga, ularning kredit portfeli va uning sifatiga, undan foydalanish darajasiga katta e'tibor beriladi. Chunki, kredit portfelining to'g'ri tashkil qilinishi banklarning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh etish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonida bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish, tijorat banklarining mustaqilligini oshirish, banklar hamda ularning mijozlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini shakllantirish, bank aktivlari, shu jumladan, kredit portfelini shakllantirish bilan bog'liq xatarlarni boshqarish kabi vazifalarni tijorat banki rahbariyati zimmasiga yuklash va uning vakolatiga kiritish ta'kidlab o'tilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, banklar kredit portfelining samarali boshqarilishi, avvalambor bank rahbariyatiga bog'liqdir.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat bo'lishi, bank faoliyatida yuzaga keluvchi xatarlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Bular:

- kredit xatari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
- ssudalarni xatar guruhlari bo'yicha tasniflash;
- kredit portfelini kredit xatari, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo'yicha ma'qullashtirish;
- kredit xatarini prognoz qilish maqsadida qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvoli o'zgarishi ehtimolini aniqlash;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;
- yaratilayotgan zahiralarini yetarliligini baholash va uni o'z vaqtida ta'minlab borish;

- kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilish, ularning likvidligini va daromadligini ta'minlash;
- bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni kredit portfelining sifatli tahliliga asoslangan holda yuritishdan iborat.

Bank kredit portfelining monitoringini o'tkazish orqali kredit portfelini holatiga baho berish mumkin.

Bank kredit portfeli monitoringi - bu kredit resurslarini rasional joylashtirish va undan samarali foydalanish hamda berilgan kreditlar va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlashga yo'naltirilgan bilimlar, uslublar va chora-tadbirlar majmuasidan iborat.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda.

Bank kredit portfeli monitoringi jarayoni to'rt bosqichdan iborat:

- kreditlarni rasmiylashtirishning qonuniyligi va to'g'riligini nazorat etish;
- berilayotgan kreditlarning maqsadga muvofiq ishlatilishini ta'minlash va nazorat etish;
- qarzdorning va kafolat beruvchining moliyaviy holatini, garovga olingan mulkning butligini doimiy kuzatib borish hamda kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarning belgilangan grafik asosida undirilishini nazorat qilish;
- kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarni shartnomada belgilangan muddatlarda to'liq undirib olishni ta'minlash, o'z vaqtida undirilmagan taqdirda zudlik bilan keskin chora-tadbirlar belgilash.

Kreditlarni rasmiylashtirishning dastlabki bosqichida, avvalo mijozning taqdim etgan biznes-rejasi bilan birgalikda uning moliyaviy ahvolini chuqur tahlil etish lozim.

Kreditni rasmiylashtirish jarayonida mijozning moliyaviy ahvolini o'rganish bilan birga, kreditning ta'minot obyektini chuqur tahlil etish ham muhim ahamiyatga ega. Agar kredit ta'minoti sifatida uchinchi shaxslarning kafolati taqdim etilgan bo'lsa, bu shaxslarning moliyaviy holati chuqur tahlil etilishi lozim va qarzдор tomonidan ba'zi bir sabablarga ko'ra kreditni o'z vaqtida qaytarishda qiyinchiliklar tug'ilgan paytda ushbu kreditni kafolat beruvchi shaxsdan undirib olishga shubha bo'lmagan taqdirdagina, kafolatni kredit ta'minoti sifatida qabul qilish mumkin.

Agar kredit ta'minoti sifatida ko'chmas yoki ko'chadigan mulklarni garovga qo'yish taklif etilsa, kredit vaqtida qaytarilmagan taqdirda, ushbu mulklarni tezlikda sotib, unlan tushgan tushumdan kredit va hisoblangan foizlarni to'liq undirib olishga shubha bo'lmagan taqdirdagina, qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Kreditni rasmiylashtirishda undan foydalanish muddatini to'g'ri belgilash ham juda muhimdir. Chakana savdo korxonalariga tovarlarning oldi-sotdi operasialari uchun berilayotgan qisqa muddatli kreditlarning muddati 1-2 oydan ortiq bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir. Chunki, bunday korxonalarda tovar aylanishi tez sodir bo'ladi va kreditni so'ndirish, kreditga olingan tovarlarning sotishdash tushayotgan kunlik tushum miqdorida har kuni amalga oshirilmog'i lozim. Kredit va ular bo'yicha hisoblangan foizlar o'z vaqtida to'liq undirib olingandan so'ng yana kreditga talab bo'lsa, yangidan kreditni rasmiylashtirish mumkin. Kredit rasmiylashtirilgandan so'ng, uning maqsadli ishlatilishini nazorat etish kerak.

Bank kredit portfelini tahlil etishning asosiy bosqichlari 4- jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

4-jadval

Bank kredit portfelini tahlil etishning asosiy bosqichlari

№	Tahlil etish bo'limlari	Ma'lumotlar
1	Kreditlar holati tahlili	Joriy, muddati o'tgan kreditlar, undirilmagan kreditlar, suddagi ssudalar, ro'yxatdan chiqarilgan kreditlar
2	Kreditlarning muddatlari	Qiska muddatli kreditlar

	bo'yicha tahlil	Uzoq muddatli kreditlar Overdraft krediti Kontokorrent krediti
3	Iqtisodiy sohalar bo'yicha tahlil	Sanoat, qishloq xo'jaligi, kichik biznes, savdo, davlat transhi, mikro kreditlar, iste'mol krediti
4	Foiz stavkalari tahlili	Imtiyozli foiz stavkasi Kayta moliyalashtirish stavkasi Tijoratli foiz stavkasi
5	Ta'minot turi bo'yicha tahlil	Ishonchli kreditlar, mol-mulk garovi ostida beriladigan kreditlar, uchinchi shaxs kafilligi ostida berilgan kreditlar va kafolatlangan kreditlar
6	Kreditlar sifati tahlili	Birinchi sinf(yaxshi), standart, substandart, shubxali va umidsiz
7	Kredit tarixi tahlili	Bank o'z mablag'lari hisobiga beriladigan kreditlar, qayta moliyalashtirish mablag'lari, filiallararo va transh mablag'lari xisobidan berilgan kreditlar
8	Kreditlarning maqsadlariga qarab tahlil etish	Tijorat krediti Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlar
9	Tahlil jarayonidagi kreditlar o'zgarishi dinamikasi	Kredit hajmining o'sishi(kamayishi), muammoli kreditlar hissasi va ular bilan ishlash samaradorligi, zahiralar summasi, kredit aktivlarining rentabelligi

Kredit monitoringiga qo'yiladigan talablar

A. Kredit tavakkalchiligini boshqarishga mos bo'lgan muhitni yaratish.

1 Tamoyil: Bank Kengashi bank kredit siyosati va kredit tavakkalchiligini boshqarish strategiyasini tasdiqlash va unga rioya qilinishini nazorat qilish bo'yicha

javobgardir. Strategiya bankning tavakkalchilikka nisbatan ehtiyotkorligi hamda bank tomonidan zimmaga olingan kredit risklarining daromadlilik darajasini aks ettirishi lozim.

2 Tamoyil: Boshqaruv Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan kredit tavakkalchiligi bo'yicha strategiyani amaliyotga joriy etish bo'yicha javobgardir. U shuningdek kredit tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring va nazorat qilish mezonlarini ishlab chiqadi. Bunday siyosat va mezonlar bank faoliyatining barcha jabhalarda yuzaga keladigan kredit tavakkalchiligini qamrab olishi shart.

3 Tamoyil: Faoliyatning barcha yo'nalishlari va xizmatlar bilan bog'liq kredit tavakkalchiligini aniqlash va boshqarish zarur. Bank o'z zimmasiga yangi faoliyat yoki xizmat turlarining joriy etilishi bildan bog'liq kredit tavakkalchiligini qabul qilishdan oldin tegishli mezonlarni ishlab chiqishi hamda bankning oliy rahbariyati yoki tegishli qumita tomonidan tavakkalchilikni zimmaga olinishi tasdiqlanganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

B. Asoslangan kreditlarni berish chog'idagi faoliyat.

4 Tamoyil. Bank qat'iy aniqlangan va belgilangan mezonlar doirasida kreditlarni berish faoliyatini amalga oshiradi. Bunday mezonlar jumlasiga bank ish olib borayotgan bozorning aniq ko'rsatilishi, qarzdor yoki kontrhamkor to'g'risida to'liq ma'lumot bo'lishi, shuningdek kreditning yo'nalishi va strukturasi hamda uni so'ndirish manbalari aniq ko'rsatilishini oladi.

5 Tamoyil. Bank tegishli kitoblar, balans va balansdan tashqari hisob raqamlarda qarzdorlar va kontrhamkorlar, shuningdek o'zaro bog'liq kontrhamkorlar darajasida turli turdagi tavakkalchiliklarni taqqoslash va ahamiyatini aniqlash asosida umumiy kredit me'yorlarini belgilashi zarur.

6 Tamoyil. Bank yangi kreditlarni tasdiqlashning hamda mavjud kreditlarga tegishli o'zgartirishlar, yangiliklar kiritishning aniq o'rnatilgan tizimiga ega bo'lishi kerak

S. Kredit boshqaruvini olib borish.

7 Tamoyil. Bankda turli kredit portfellarini boshqarish tizimi bo'lishi kerak.

8 Tamoyil. Bankda rezervlarga ajratmalar va rezervlar adekvatligini aniqlashni o'z ichiga oluvchi alohida kreditlar holati yuzasidan monitoring tizimi bo'lishi lozim.

9 Tamoyil. Bank kredit tavakkalchiligi boshqarish uchun kreditlarning ichki reytingi tizimini ishlab chiqishi va undan foydalanishi zarur. Reyting tizimi bank faoliyatining turi, ko'lam va murakkabligiga mos kelishi kerak.

10 Tamoyil. Bankda rahbariyat tomonidan balans va balansdan tashqari faoliyatga oid kredit tavakkalchiligini boshqarish imkoniyatini beruvchi informasion tizimlar va analitik texnologiyalar bo'lishi kerak.

11 Tamoyil. Bankda kredit portfelining umumiy tarkibi va sifati monitoringini o'tkazish tizimi bo'lishi lozim.

12 Tamoyil. Alohida kreditlar, shuningdek umuman kredit portfelini baholashda bank kelajakda iqtisodiy sharoitning o'zgarishini hamda noqulay sharoitda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit tavakkalchiligini hisobga olishi zarur.

V. Tegishli kredit nazoratini ta'minlash.

13 Tamoyil. Bank kredit tavakkalchiligini boshqarish jarayonlarini baholashning mustaqil tizimini tashkil etishi va tahlil ma'lumotlarini Bank Kengashi yoki oliy rahbariyatga to'g'ridan – to'g'ri taqdim etishi kerak.

14 Tamoyil. Bank kreditlarni berish jarayonlarini boshqarishni ta'minlashi va kreditlar standartlar va me'yorlar doirasida berilayotganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

15 Tamoyil. Bankda kredit tavakkalchiligini boshqarishdagi muammolarni tezkorlik bilan hal qilish tizimini bo'lishi lozim.

Kredit portfelini auditdan o'tkazish tartibi.

Bank kredit siyosatiga muvofiq, barcha kreditlarning auditi va tahlili kreditlash jarayonida qatnashmaydigan xodimlar, ichki audit va kredit boshqarmasi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Xodimlar kreditlash jarayonlari ushbu siyosat asosida mijozlarning moliyaviy holati tahlili, ta'minot turlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq amalga oshirilayotganligi, amaldagi qonunchilikga to'g'ri kelishini tekshirishadi. Tekshiruv natijalarida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Audit va tahlil o'tkazish davrida quyidagi elementlarga asosiy ahamiyatni qaratish kerak:

- kredit munosabatlarining xuquqiy me'yor va kredit siyosati talablariga javob bera olishi;

- berilgan kreditlar muayyan me'yorlar asosida va vakolatli bo'linmalar tomonidan tasdiqlanganligi;

- mijozlar to'g'risida yetarli ma'lumotlarning mavjudligi;

- ta'minot vositalari ushbu siyosat talablariga javob berishi;

- kreditlarning to'liq amal qilish davrida garov ta'minotini ushlab qolish va mol-mulkning sotilishini ta'qiqlash masalalarining yuridik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilganligi;

- kredit xatari belgilangan tartibda baholanganligi;

- har bir kredit bo'yicha kredit shartnomasi va muddatli majburiyatnomalarning rasmiylashtirilganligi;

- foiz stavkasi bankning foiz siyosati talablariga muvofiq o'rnatilganligi;

- ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zahiralar Markaziy bankning 242-sonli yuriqnomasiga muvofiq tashkil etilganligi;

- bank tomonidan kreditlarning to'planishi va tavakkalchilik darajasi bo'yicha belgilangan me'yorlarga amal qilinayotganligi;

- kreditlarning amaldagi kredit siyosati va belgilangan tartibda tasdiqlanganligi.


Shuningdek, mijozlarning kreditga layoqatliligini aniqlash, jumladan mijozning tavsifi, moliyaviy imkoniyatlari, kapitali, mol-mulki, umumiy iqtisodiy sharoitlar hamda mijozlar bilan o'rnatiladigan munosabatlar, asosiy qarz va foiz to'lovlarini qaytarish shartlariga e'tiborni qaratish kerak. Tahlil natijasida kreditni qaytmaslik xatari aniqlanganda shubhali ssudalar uchun rezervlar tashkil etish tavsiya etiladi.

3.2. Kredit portfeli tahlili

Biz qo'yida ATB «Mikrokreditbank» Samarqand viloyat boshqarmasi misolida bank kredit portfeliining amaldagi holatini tahlil qilib chiqamiz.

Bank o'z mablag'lari va jalb qilingan resurslar hisobiga xo'jalik yurituvchi subyektlar, tadbirkorlar, ayniqsa, kichik biznes namoyandalari hamda iste'mol bozorini kreditlashga katta ahamiyat bermoqda. Buning natijasida 2007 yil mobaynida bank tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'z mablag'lari hisobidan kichik biznes subyektlariga ajratgan kreditlari umumiy miqdori 3084,2 mln. so'mni tashkil etmoqda. Shundan 826,7 mln. so'mi qisqa muddatli va 2257,5 mln.so'mi uzoq muddatli kreditlar ulushiga to'g'ri keladi. Bu bilan mahalliy yoshlarni ish bilan ta'minlashga zamin yaratildi. (1-diagramma)

1 - diagramma




Bundan tashqari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, yerning haqiqiy egalari bo'lgan fermer xo'jiliklarning moddiy-texnika bazalarini kengaytirish maqsadida 232,09 mln.so'm, traktor sotib olish maqsadlarida 53,065 mln. so'mlik lizing hamda 210,3 mln. so'mlik mikrolizing xizmatlari ko'rsatildi. O'z navbatida fermer xo'jaliklariga paxta va g'alla hosilini yetishtirish uchun 2829,92 mln so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi.

«Mikrokreditbank» 2007 yil mobaynida yosh oilalarga jami 16,6 mlpd. so'm sarmoyalar, 13,2 mlrd.so'm miqdorida mikrokreditlar ajratdi.

(2- diagrammaga qaralsin. (respublika miqyosida))

2- diagramma



Bank jamoasi Prezidentimizning 2007 yil 21 maydagi «O'zbekiston Respublikasida 2010 yilga qadar xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash borasida ham talaygina ishlar bajardi. Jumladan, ushbu qarorni targ'ib qilish maqsadida «Mikrokreditbank» mijozlari orasida «Xizmat ko'rsatish va servis sohasidagi eng yaxshi loyiha» ko'rik tanlovini tashkil qildi. Ko'rik-tanlovga taqdim qilingan ishlarning asosini mehmonxona xizmati, avtomobillarga xizmat ko'rsatish, sartaroshxona, suratxona, stomaservis singari o'nlab loyihalar tashkil qildi. Bundan ko'rinadiki, bank mablag'lari hisobiga chekka hududlarga maishiy va tibbiy jabhalarda faoliyat yuritishni istovchilar safi kengaymoqda va aholining turmush madaniyati tobora yuksalib bormoqda.

Ayni paytda «Mikrokreditbank» mablag'laridan foydalanib, tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan ayol tadbirkorlar soni ham ortib bormoqda. Ular o'z mehnatlari bilan mahalla-kuy xotin qizlarini ish bilan ta'minlash barobarida ularni moddiy tomondan ham rag'batlantirib kelishyapti.


«Mikrokreditbank» aksiyadorlik banki o'z mablag'lari hisobiga ham respublikamiz hududida yirik yaratuvchilik ishlarini sarmoyalamoqda. Jumladan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga 1742 mln. so'm, qurilish va maishiy xizmat

ko'rsatish sohasiga 144,6 mln.so'm, sanoatga 472,2 mln.so'm, savdo va vositachilikka 388,1 mln.so'm, va boshqa tarmoqlarga 121,3 mln so'm kreditlar ajratdi. (5 - jadval, 3 - diagrammalarga qaralsin.) Bu esa, bank o'z bunyodkorlik qudratini tinmay oshirib borayotganligidan va mamlakatimiz taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shayotganidan dalolat beradi.

Mazkur kreditlar tarkibidagi mikrokreditarga nazar tashlaydigan bo'lsak, jami yil boshitdan ajratilgan mikrokreditlar 2102,2 mln.so'mni tashkil etmoqda. Jumladan, sanoat sohasiga 582,5 mln.so'm, qishloq xo'jaligiga 1104,0 mln.so'm, shu jumladan, dehqon (fermer) xo'jiliklariga 655,3 mln.so'm, qurilish va maishiy xizmat ko'rsatish sohasiga 146,1 mln.so'm va boshqa tarmoqlarga 268,6mln. so'mlik mikrokreditlar bank tomonidan axoliga taqdim etilgan.

«Mikrokreditbank»ning o'z mablag'lari hisobidan 2008 yilning 1 yanvar holatiga kichik biznes subyektlariga ajratgan kreditlari to'g'risida tarmoqlar bo'yicha ma'lumot

Tarmoklar	summasi (mln.sum)	Foizda, %
Sanoat	472,2	16%
Kishlok xujaligi(dexkon va fermer xujaliklari bilan birga)	1742	61%
Savdo va vositachilik	388,1	14%
Kurilish va maishiy xizmat kursatish	144,6	5%
Boshka tarmoklar	121,3	4%
Jami:	2868,2	100%



Yuqoridagi jadval va diagramma ma'lumotlariga asoslangan holda shunday xulosa qilish mumkinki, bank tomonidan ajratilgan kreditlarning asosiy qismi, ya'ni 61 foizi qishloq xo'jaligiga jalb etilgan. Sababi, mamlakatimiz aholisining 60 foizga yaqini qishloq joylarida istiqomat qilishadi va asosiy iste'mol tovarlari ham qishloqlarda yetishtiriladi. Ammo infratuzilmani rivojlantirish va kreditlarning tarmoqlar o'rtasidagi mutanosibligini saqlash uchun bank tomonidan boshqa tarmoqlarga ajratiladigan kreditlarning salmog'ini oshirish lozim. Shundagina, rivojlanish ro'y berib taraqqiyot bir tekisda davom etadi.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida Mikrocreditbankning o'z mablag'lari hisobidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslangan holda kredit portfelini tahlil qilishda, ularni qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Uzoq muddatli kreditlar bo'yicha oy boshidagi ssuda karzdorlik qoldigi 2381,9 mln.so'm, oy davomida berilgan ssudalar 197,1 mln.so'm, oy davomida qaytarilgan ssudalar 507,2 mln.so'm, hisobot sanasidagi ssuda qarzdorlik qoldig'i 2071,8 mln.so'm hamda yil boshidan berilgan kreditlar umumiy summasi 2257,5 mln. so'mni tashkil etmoqda.

Oy boshidagi ssuda qarzdorlik qoldig'i qisqa muddatli kreditlarda 329,9 mln. so'mni tashkil etib, oy davomida berilgan ssudalar 101,6 mln. so'm, oy davomida qaytarilgan ssudalar 101,7 mln.so'm, hisobot sanasidagi ssuda qarzdorlik qoldig'i 329,8 mln. so'm va yil boshidan berilgan kreditlar summasi 826,7 mln. so'mni tashkil etayotganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. (6- jadval, 4-diagrammalarga qaralsin.)


Shunday qilib, bank tomonidan respublikamiz aholisiga taqdim etgan kreditlarining 27 foizi qisqa muddatli kreditlar va 73 foizi uzoq muddatli kreditdarga to'g'ri keladi. (5-diagrammaga qaralsin)


Tadbirkorlikni kullab-kuvvatlash maksadida Mikrocreditbankning uz mablaglari xisobidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar tugrisida 2008 yil 1 yanvar xolatiga tumanlar kesimida

kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar tugrisida 2008 yil 1 yanvar xolatiga

M A ' L U M O T

Kredit turi	Oy boshidagi ssuda karzdorlik koldigi	shu jumladan muddati utgan karzdorlik	Oy davomida berilgan ssuda	Oy davomida kaytarilgan ssuda	Xisobot sanasidagi ssuda karzdorlik koldigi	shu jumladan muddati utgan karzdorlik	Yil boshid berilgan kreditlar
Uzok muddatli kreditlar	2381,9	0	197,1	507,2	2071,8	0	2257,5
Kiska muddatli kreditlar	329,9	0	101,6	101,7	329,8	0	826,7





Endi «Mikrokreditbank»i tomonidan ajratilgan kreditlarni to'lov shakli bo'yicha tahlil qilib chiqamiz.(7-jadvalga qaralsin)

7-jadval

**АТБ "Mikrokreditbank" tomonidan berilgan kreditlarning tulov shakli
buyicha taxlili**

Tulov shakli buyicha	Milliy valyutada		
	soni	%da	summasi
nakd	470	48,81	1512900000
nakd pulsiz	493	51,19	588300000
JAMI	963	100	2101200000

Jadval ko'rsatkichlari shundan dalolat beradiki, bank tomonidan asosan naqd pulsiz shaklda kredit olishgan, ularning soni 493 tani tashkil etmoqda. Ya'ni jami 588300000 so'm miqdoridagi kreditlar naqd pulsiz shaklda berilgan. Bundan tashqari qarz oluvchilarning 470 tasi jami 1512900000 so'm miqdoridagi kreditlarni naqd pul shaklida olishgan.

«Mikrokreditbank» tomonidan byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan kichik biznes subyektlariga sarmoya shaklida kreditlar ajratilgan bo'lib, ular to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni quyidagi jadvaldan ko'rib o'tishimiz mumkin. (8-jadvalga qaralsin.)

8-jadval.

**Byudjetdan tashkari jamgarmalar xisobidan kichik biznes subyektlariga
yil boshidan**

boshlangich sarmoya

shaklida ajratilgan kreditlar

tugrisida 2008 yil 1 yanvar xolatiga ma'lumot

Banklar nomi	Boshlangich sarmoya shaklida ajratilgan kreditlar			
	Mikrokreditbank jamgarma mablagi xisobidan		shu jumladan dexkon va fermer xujaliklariga	
	soni	summasi	soni	summasi
V	1	2	3	4
Samarkand shaxar	62	58,7	6	14,3
Kattakurgon shaxar	37	26,1	2	4,3
Okdaryo tumani	60	38,9		
Narpay tumani	95	62,4	1	2,4
Paxtachi tumani	24	33,5	10	23,3
Urgut tumani	47	53,8	3	7,4
Bulungur tumani	7	8,7	2	5
Jami	332	282,1	24	56,7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Mikrocreditbank jamg'arma mablag'lari hisobidan 332 ta kichik biznes subyektlariga jami 282,1 mln.so'm va dehqon va fermer xo'jiliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan 24 ta kichik biznes subyektlariga 56,7 mln.so'm hajmida boshlang'ich sarmoya shaklida kreditlar ajratilgan.

(6-diagrammaga qaralsin.)

6- diagramma



Xulosa tarzida aytish mumkinki, tijorat banki tomonidan joriy yilda ham asosiy maqsadni mamlakatimiz iqtisodiyotining asosini tashkil etayotgan xususiy mulk zahirida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish ko'lamini kengaytirishga qaratilmoqda.

Shu bilan birga, fermerlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirishga ham alohida e'tibor berilib, aholini qator mikromoliyaviy xizmatlardan bahramand etmoqda.

IV BOB. KREDIT TURLARI VA SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.

4.1 Kredit turlari va shakllarining afzaliklari va kamchiliklari

**IPOTEKA KREDITINI QO'LLAB-QUVVATLASH JAMG'ARMASI
TOMONIDAN BERILADIGAN IMTIYOZLI IPOTEKA KREDITI SHARTLARI.**

- ➡ **Ipoteka kreditining muddati:** kamida 15 yil.
- ➡ **Foizi:** 3 yillik imtiyozli davr bilan yillik 5%.
- ➡ **Summasi:** 1. Yakka tartibdagi uy-joy sotib olish uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 3000 barobarigacha;
2. Ko'p kvartirali uydagi kvartirani sotib olish uchun eng kam oylik ish haqining 2500 barobarigacha;
3. Yakka tartibdagi qurilgan uy-joyi rekonstruksiya qilish uchun eng kam oylik ish haqining 2500 barobarigacha;
4. Yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 300 barobarigachani tashkil etadi.
- ➡ **Afzalligi:** a) foizi past; b) uzoq muddatli; v) pulni birdan olib, kam-kam qaytarish imkoniyatining mavjudligi.
- ➡ **Kamchiligi:** 1. To'planadigan hujjatlarning ko'pligi; 2) Navbatda turgan davr mobaynida uy-joy narxining o'zgarishi (ko'tarilib ketishi); 3) Uy-joy qurish va rekonstruksiya qilish uchun olingan ipoteka krediti monitoringining murakkabligi.
- ➡ **Muammosi:** * Davlat resursining kamligi; * ipoteka krediti berish mexanizmining murakkabligi; * Olinayotgan kredit umumiy summasining 25% miqdorini o'z hisobidan to'lash muammosi; * ish haqining pastligi; * Uy-joy infratuzilmasining rivojlanmaganligi
(yo'l, gaz, suv, elektr energiya, kanalizasiya qudratining yetmasligi);
* Qaytarish va inflyasiya muammosi; * qurilish materiallari bahosining o'sishi; * Hujjatlarni rasmiylashtirishda davlat to'lovlarining yuqoriligi (notarius); * Uy-joy narxining o'zgarishi (uy-joy olingungacha narxining o'sib ketishi).
- ➡ **Yechimi:** a) xorijiy grantlar asosida resurslarni jalb etish; b) ipoteka krediti berish mexanizmini soddalashtirish, ya'ni to'planishi lozim bo'lgan hujjatlar sonini

kamaytirish kerak; v) korxona, sug'urta tashkilotlari, ish joyidan kafolat berishi mumkin; g) ish haqini oshirish kerak; d) davlat dasturlarini ishlab chiqish kerak; ye) inflyasiyaning kuchayishiga, milliy valyutaning qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik lozim; j) qurilish materiallarini arzonlashtirish kerak. Davlat tomonidan uy-joy materiallarini import qilish bilan shug'ullanadigan ulgurji savdo bazalari tashkil qilish va ular transport xarajatlarining kamida 50 foizi davlat byudjeti malag'lari hisobidan subsidiyalashtirilishi, ularning daromadlariga nisbatan imtiyozli soliq stavkalari qo'llanilishi lozim; z) davlat ro'yxatidan o'tkazish to'lovlarini pasaytirish kerak; i) uy-joylarni ijaraga olish kerak. Davlat tomonidan ko'p kvartirali uylarni qurish va imtiyoz asosida ushbu uylarni ijaraga berish lozim.

TIJORATLI IPOTEKA KREDITI ShARTLARI.

- ☑ **Muddati:** kamida 15 yil;
- ☑ **Foizi:** Bank kredit siyosatida belgilangan tartibda - Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasidan yuqori bo'lmagan miqdorda (bugungi kunda - 14%);
- ☑ **Afzalliklari:** xoxlagan paytda olish mumkin;
- ☑ **Kamchiliklari:** Foizi yuqori (14%);
- ☑ **Muammolar:** a) qaytarish va inflyasiya muammosi; b) qurilish materiallari bahosining keskin tarzda ko'tarib borilayotganligi; v) uy-joy narxining o'zgarishi va boshqalar; imtiyozi yo'q.
- ☑ **Yechimlari:** a) xorijiy kredit liniyalari hisobidan resurslarni jalb etish; b) imtiyozli muxlatni joriy etish; v) banklarni rag'batlantirish (soliklar imtiyozlari orkali); g) milliy valyutaning qadsizlanishining oldini olish kerak; d) qurilish materiallari narxini arzonlashtirish kerak.

TA'LIM KREDITI (IMTIYOZLI).

- ➡ **Ta'lim kreditining muddati:** 10 yilgacha berilishi mumkin.
- ➡ **Foizi:** a) nogironlar, yetimlar, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari uchun – foizsiz ta'lim kreditlari; b) Kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan talabalar uchun kredit bo'yicha qo'shilgan foizlarning 50 foizi mehnat, aholini ish bilan ta'minlash va

ijtimoiy muhofaza qilish tuman bo'limlari tomonidan Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'laridan to'lanadi.

➡ **Afzalliklari:** * foizi past;

- muddati uzoq;
- imtiyozli muddati mavjud.

➡ **Kamchiliklari:** - imtiyozlar davlat resuri bilan chegaralangan;

- shartnoma asosida ta'lim oladigan barcha talabalarga berilmaydi.

➡ **Muammolar:** a) resurs yetarli emas; b) ta'minot muammolari

➡ **Yechimlari:** a) davlat resursini ko'paytirish; b) xorijiy grantlarni joriy etish; v) tijorat banklari o'z mablag'lari hisobidan imtiyozli ta'lim kreditlari berishni yo'lga qo'yish (soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish)

TA'LIM KREDITLARI (TIJORAT)

☑ **Muddati:** 1 yil yoki 2 yil

☑ **Foizi:** Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalashtirish stavkasidan yuqori bo'lmagan miqdorida (14%)

☑ **Afzalliklari:** shartnoma asosida ta'lim oladigan har bir talaba olishi mumkin

☑ **Kamchiliklari:** Foizi yuqori;

☑ **Muammolar:** a) kreditning qaytarilishi; b) ta'minot masalalari; v) Foizi yuqori, g) muddati qisqa; d) imtiyozi yo'q.

☑ **Yechimlari:** a) ta'lim krediti muddatini uzaytirish.; b) imtiyozli muxlatni joriy etish; v) banklarni rag'batlantirish (soliqlar imtiyozlari orqali); g) valyuta shaklida kredit berishni joriy etish; d) xorijiy mamlakatlarga ta'lim olishga ham kreditlarni berishni yo'lga qo'yish.

LOMBARD KREDITI

➡ **Muddati:** 12 oygacha

➡ **Foizi:** Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi miqdoridan yuqori

➡ **Afzalliklari:** Garovga qo'yib, pulni qarzga olish, maqsadli ishlatishning diapozoni katta, hujjatlashtirish ishlarining minimumligi.

➡ **Kamchiliklari:** foizi juda yuqori

➡ **Muammolar:** *Lombardlar katta kredit daromadi bilan shug'ullanishga berilmaydi

- ➡ **Yechimlar:** a) aloxida joylarda bank bo'limlari(minibanklar) ochish;
b) Foizini pasaytirish;
v) ta'minotini turli xillashtirish

OVERDRAFT KREDITI

- ☑ **Muddati:** 30 kungacha
- ☑ **Sharti:** oyning boshiga kredit karzi 0 ga teng bulishi kerak.
- ☑ **Afzalliklari:** ta'minot talab etilmaydi, faqat ishonchli mijozlarga beriladi va ular bo'yicha muammolar deyarli yo'q
- ☑ **Kamchiliklari:** Agar mijoz oyning oxirida kreditni yopmasa, boshqa kredit berilmaydi
- ☑ **Muammolar:** - bank malakali mutaxassislarining yo'qligi;
- mijozlarning yo'qligi;
- bank xatari;
- I sinfdagi kreditga va to'lovga layoqatli mijoz bo'lishi kerak.
- ☑ **Yechimlari:** a) Malakali mutaxassislarni tayyorlash; b) mijozlarni tanlab olish va qo'llab-quvvatlash; v) bank xatarini kamaytirish(kuchli monitoring orqali)

KONTOKORRENT KREDITI

- ➡ **Muddati:** kontokorrent schyotining amal qilish muddati 12 oy
- ➡ **Sharti:** qarz oluvchi avvalgidek moliyaviy barqarorligini saqlab qolishi lozim.
- ➡ **Afzalliklari:** ta'minot talab etilmaydi, yuqori likvidli va to'lov qobiliyatiga ega mijozga kontokorrent hisob varaq ochish mumkin.
- ➡ **Muammolar:** - kadrlarni tayyorlash; - banklarni bu kreditga rag'batlantirishni tayyorlash; - likvidlik muammosi.
- ➡ **Yechimlari:** - kadrlarni tayyorlash; b) programmalarni ishlab chiqish; v) mijozlarning likvidligini ko'tarish.

ISTE'MOL KREDITI

- ☑ **Muddati:** 3 yilgacha
- ☑ **Foizi:** Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida

☒ **Afzalliklari:** a) birdan pulni oladi, kam-kam qaytaradi; b)Iste'mol krediti olgan shaxs iste'mol mollari sotib olish va xizmatlarni to'lash imkoniyatiga ega buladi. Ya'ni mol-mulkka ega buladi.

☒ **Kamchiliklari:** - Faqat mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotib olishning mumkinligi, - oyligi bor kishiga beradi,
- xoxlagan do'kondan tovarlarni ololmaydi, - naqd pulga ololmaydi.

☒ **Muammolar:** a) resurslarning yetishmasligi;
b) kreditni kaytarishda yuzaga kelayotgan muammolar;
v) kreditni naqd pulda berilmasligi;
g) import maxsulotlarini sotib olishga iste'mol kreditini berilmaslik xollari;

☒ **Yechimlari:** - resursni ko'paytirish;
- foizini pasaytirish;
- ta'minotni kuchaytirish;
- import mahsulotlarini sotib olishga ham iste'mol krediti berishni joriy etish;
- daromadi bor shaxslarga kredit berish.

Ma'lumki, kichik biznesni rivojlantirish omillaridan biri – bu mazkur sohani kreditlar orqali rivojlantirishdir. Ya'ni kichik biznes sohasi subyektlarini iste'mol, ipoteka va mikrokreditlar berish orqali rag'batlantirish mumkin. 2008 yil mobaynida Samarkand viloyati miqyosida 1250 mln. so'm miqdorida kichik biznes sohasiga kreditlar ajratish rejalashtirilgan bo'lib, ulardan 600 mln. so'mi ipoteka, 350 mln.so'mi iste'mol va 300 mln. so'mi mikrokreditlarni tashkil etadi.

Iste'mol kreditlariga ehtiyoj bor, ammo resurslar yetarli emas.

Iste'mol krediti iqtisodiyotning barcha sohalarini, jumladan, xizmat ko'rsatish va savdo sohasini ham rivojlantirishga turtki berishi shubhasiz. Ammo, iste'mol kreditining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rni beqiyosligini alohida ta'kidlash lozim.

Kichik tadbirkorlik subyektlari o'z ishlab chiqarishlarini tashkil etish uchun yetarli mol-mulkka ega emasligi, ularning bank kreditiga ehtiyojini shakllantiradi. Ammo, kreditni qaytarish ta'minoti sifatida garovga qo'yish uchun yetarli mulkka ega emasligi, ular uchun bank krediti olish imkoniyatini cheklaydi. Bu endi ish

boshlayotgan barcha kichik tadbirkorlik subyektlari uchun xos bo'lgan umumiy holat. Iste'mol krediti esa, ushbu muammoni yechishga imkon yaratadi va natijada mamlakatda kichik tadbirkorlik qatlami hamda ularning YaIM dagi ulushini oshishiga ta'sir ko'rsatadi.

Malumki, *ipoteka krediti*ning asosiy afzalligi, uning qurilayotgan yoki sotib olinayotgan uy-joy, kvartira, ishlab chikarish obyekti garovga olgan holda kreditlash imkoniyatining vujudga kelishidir. Bu O'zbekiston sharoitini, uy-joyga bo'lgan katta talab mavjudligini inobatga olgan holda yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holatga uy-joy qurish uchun kredit olayotgan jismoniy shaxsning yoki ishlab chikarish obyekti qurish uchun kredit olayotgan yuridik shaxsning kredit qaytarishi taminoti sifatida qo'shimcha mol-mulk mavjudligi talab etilmaydi.

Agar inflyasiyaning yillik darajasi ipoteka krediti uchun o'rnatilgan foiz darajasidan yuqori bo'lsa, oqibat natijada bu holat banklar tomonidan berilgan ipoteka kreditlariga investisiya qilingan mablag'larning qadrsizlanishiga olib keladi. Shuning uchun banklar tomonidan foiz siyosatining ishlab chiqishda inflyasiya darajasini hisobga olishni taqozo etadi.

Uy-joy qurilishini, umuman boshqa qurilishlarning rivojlanishi, birinchi navbatda qurilish materiallari va konstruksiyalari ishlab chiqarish, qurilish mashinasozligi rivojlanishi, yog'ochni qayta ishlash sanoati va maishiy elektr buyumlari ishlab chiqarish hamda boshqa qurilish sohalari bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlar rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida sanab o'tilgan tarmoqlar bilan ishlab chiqarish kooperasiya orqali bog'liq bo'lgan boshqa barcha sanoat tarmoqlari, ya'ni ularga xom-ashyo, materiallar, uskunalar, texnika yetkazib beradigan tarmoqlar mahsulotlariga bozorga talab ko'payishi natijasida ushbu tarmoqlarda ham barqarorlashuv va ishlab chiqarishni o'sishiga erishiladi.

Minglab yangi ishchi o'rinlari vujudga kelishi natijasida iste'mol tovarlari uchun xaridga qodir talab obyektiv tarzda o'sadi. Bu esa, o'z navbatida iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning jadallashuviga olib keladi. Demak, ipoteka kreditining rivojlanishi,

butun iqtisodiyot rivojlanishi uchun dastlabki turtki vazifasini bajaradi, desak xato bo'lmaydi. Ipoteka kreditining eng muhim afzalliklari:

- mamlakatda iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi va ish bilan band bo'lgan aholi sonining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondiradi.

Ipoteka kreditini berish jarayonida tijorat banklari oldida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimi bo'yicha taklif va mulohazalar yuzaga kelishi tabiiy bir holda aylanib qolinmoqda.

Bizga ma'lumki, tijorat banklari oldida turgan eng og'ir muammo ipoteka kreditlari berish bo'yicha talab darajasi arzon bo'lgan resurslarni topishdir. Hamda mavjud inflyasiya darajasi saqlanib qolsa, daromadni yo'qotmaslik chora – tadbirlarini amalga oshirishdir.

Bank resurslarining asosini tashkil etuvchi aholi omonatlari o'rtacha yillik 14%dan qabul qilingan.

Ikkinchidan, 2008 yil yakunlariga ko'ra inflyasiya darajasi 6,8%ni tashkil etdi.

Bu ikkala faktor Nizomda ko'zda tutilgan shartlar, ya'ni 15 yil muddatga 5% miqdorli kreditlarni imtiyozli davr bilan berilishini deyarli yo'qqa chiqaradi. Chunki, tijorat banklari daromad olish uchun tashkil etilgan muassasadir. U zararga ishlamaydi.

Bunday muammolarni hal etishning yo'nalishlari tariqasida qo'yidagilarni taklif etmoqchimiz:

- tijorat banklari xalqaro moliya – kredit institutlaridan ipoteka kreditlarini berish shartlarida mos keluvchi mablag'larni jalb qilish bo'yicha ishlarni jadallashtirish.
- aholiga uy-joy qurilishini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishida aktiv foydalanishini ta'minlash uchun maxsus uzoq muddatli kamida o'n yillik depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarish hamda ipoteka kreditlarini kredit obyekti summasining 20%dan kam bo'lmagan miqdordagi depozit sertifikatlariga ega bo'lgan shaxslarga berish. Depozit sertifikatlari va aholi omonatlarini yo'qotishlari

oldini olish uchun har moliya yili oxirida tijorat banklari tomonidan real inflyasiya darajasida kompensasiya tulovlarini amalga oshirish.

Kichik biznes sohasini rag'batlantirish yo'nalishlaridan yana biri ularni mikro kreditlar bilan ta'minlashdir. Hozirgi kunda kichik biznes subyektlariga mikro kreditlarni taqdim etish bo'yicha imtiyozli resurslar yetarli emas. Shu sababli, venchurli fond (riskka asoslangan fond) tashkil etib, ularni rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlarini mikro kreditlar bilan ta'minlashni rivojlantirish uchun:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda markazlashgan resurslar va byudjetdan tashqari jamg'armalar hissasini oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini kreditlashda uzoq muddatli kreditlardan keng miqyosda foydalanish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini xorijiy kredit liniyalari metodikasi orqali mikro kreditlashni jadallashtirish lozim.

4.2 Kredit turlari va shakllarini kelgusida rivojlantirish istiqbollari.

Kredit turlari va shakllarini rivojlantirishga – O'zbekiston iqtisodiy siyosatining hozirgi paytdagi eng muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki, aynan kredit turlari va shakllarini rivojlantirish orqali iqtisodiyotda faollikni oshirishga erishish va shu asosda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlab, o'sishga tomon siljish mumkin.

Tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarni kreditlash jarayonida aniqlangan **muammolarni** qo'yidagicha tasniflashimiz mumkin:

- davlat tomonidan imtiyozli kreditlarni ajratish uchun imtiyozli resurslarning yetarli emasligi;

- berilayotgan kreditlarning ta'minoti masalalari asosiy muammolardan biri sanaladi. Chunki, kreditning ta'minlanganligi uning qaytarilishida garov bo'ladi.

- iste'mol kreditlarini berishda resurslarning yetishmasligi, kreditlarni qaytarishda yuzaga kelayotgan muammolar, mazkur kreditni naqd pulda berilmaslik hollari va import mahsulotlarini sotib olishga iste'mol kreditini berilmaslik kabi hollar uchramoqda;

- overdraft, kontokorrent kabi kredit turlarini joriy etish uchun kadrlar va dasturlarning tayyor emasligi;

- kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkalarining yuqoriligi;

- kreditning ta'minoti masalasida, bunda takroriy qarz oluvchilarga yana kredit olish uchun ta'minot qayta talab etiladi. Bunda muammoning yechimi sifatida yaxshi kredit tarixiga ega bo'lgan takroriy qarz oluvchilarga kelishilgan holda dastlabki kreditni olish uchun qo'yilgan ta'minotning ba'zi bir turlarini asos qilib olish, chunki shu orqali qarz oluvchilarning kredit ta'minotini hujjatlashtirish uchun ketgan vaqti va xarajatlari tejaladi va bu yerda bank tomonidan ta'minot ustidan davriy monitoring olib borilishi lozim;

- kichik biznes subyektlari huquqiy savodxonligi darajasining pastligi;

- kreditlarni berishda bank xatarining vujudga kelishi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning ish yuritishida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash, korxonaning asosiy va aylanma fondlarining doiraviy aylanishining to'xtab qolishiga yo'l qo'ymaslik, korxonalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, korxonalar tomonidan tovar mahsulotini sotganda sotilgan tovar uchun to'lov summasini olish obyektiv va subyektiv sabablar tufayli kechiktirilgan holda kreditning zarurligi kelib chiqadi.

Ammo, kredit berish uning zarurligi bilan kifoyalanib qolmasdan, uning maqsadli ishlatilishi shart-sharoitlari bilan ham belgilanadi.

Shunday qilib, kredit munosabatlarini rivojlantirishda banklar kredit uchun xarakterli muhim shartlar va qonunlarga asoslangan holda kreditlash jarayonini amalga oshirishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, xo'jalik yurituvchi subyektlarni kreditlashda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish maqsadida qo'yidagi **takliflarni** keltiramiz:

- kredit ta'minoti masalasida potensial qarz oluvchilar uchun sug'urta kompaniyalarining xizmatlaridan foydalanish kengroq yo'lga qo'yish hamda yaxshi kredit tarixiga ega bo'lgan mijozlarga ishonchli kreditlarni taqdim etishni, shuningdek, takroriy qarz oluvchilarga qayta kredit olish uchun dastlabki kredit uchun qo'yilgan ba'zi bir ta'minot turlarini tomonlar kelishilgan holda kredit ta'minoti sifatida qayta asos qilib olishni joriy etish;

- sug'urta kompaniyalarining qarz oluvchilarning kreditni qaytara ololmaslik xatarini sug'urtalash xizmatini jonlantirish;

- arzonroq kredit resurslarini bankka jalb qilish;

- yuqoridagi jadvallar tahlili asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda markazlashgan resurslar va byudjetdan tashqari jamg'armalar hissasini oshirish taklif etiladi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini kreditlashda uzoq muddatli kreditlardan keng miqyosda foydalanish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini xorijiy kredit liniyalari metodikasi orqali mikro kreditlashni jadallashtirish;

- kreditga layoqatlilikni aniqlashda axborotning boshqa manbalarini, ya'ni boshqa moliyaviy institutlardan olingan ma'lumotlardan keng tarzda foydalanish, respublikamiz kredit axborot-byurolarini tashkil qilish;

- imtiyozli ta'lim kreditini rivojlantirish uchun davlat resurslarini ko'paytirish, xorijiy grantlarni joriy etish va tijorat banklari o'z mablag'lari hisobidan imtiyozli ta'lim krediti berishni yo'lga qo'yish (soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish) maqsadga muvofiqdir;

- tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobidan beriladigan tijoratli ta'lim kreditlarini rivojlantirish uchun:

➡ ta'lim krediti muddatini uzaytirish.;

➡ imtiyozli muxlatni joriy etish;

➡ banklarni rag'batlantirish (soliklar imtiyozlari orkali);

➡ valyuta shaklida kredit berishni joriy etish;

➡ xorijiy mamlakatlarga ta'lim olishga ham kreditlarni berishni yulga kuyish.

- iste'mol kreditini berish yuzasidan yuzaga kelayotgan muammolarning yechimi sifatida qo'yidagilar taklif kilinadi:

- ☑ resurslarni ko'paytirish;
- ☑ foizini pasaytirish;
- ☑ ta'minotni kuchaytirish;
- ☑ daromadi bor shaxslarga kredit berish;
- ☑ import mahsulotlarini sotib olishga ham iste'mol krediti berishni joriy etish.

- overdraft va kontokorrent kabi kredit turlarini rivojlantirish uchun:

- ➡ malakali mutaxassislarni tayyorlash;
- ➡ mijozlarni tanlab olish va qo'llab-quvvatlash;
- ➡ kuchli monitoring orqali bank xatarini kamaytirish;
- ➡ mijozlarning likvidligini ko'tarish va boshqalar.

- ipoteka krediti berishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan beriladigan imtiyozli ipoteka kreditlarini rivojlantirish uchun:

- a) xorijiy grantlar asosida resurslarni jalb etish;
- b) ipoteka krediti berish mexanizmini soddalashtirish, ya'ni to'planishi lozim bo'lgan hujjatlar sonini kamaytirish kerak;
- v) korxona, sug'urta tashkilotlari, ish joyidan kafolat berishi mumkin;
- g) ish haqini oshirish kerak;
- d) davlat dasturlarini ishlab chiqish kerak;
- ye) inflyasiyaning kuchayishiga, milliy valyutaning qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik lozim;

j) qurilish materiallarini arzonlashtirish kerak. Davlat tomonidan uy-joy materiallarini import qilish bilan shug'ullanadigan ulgurji savdo bazalari tashkil qilish va ular transport xarajatlarining kamida 50 foizi davlat byudjeti malag'lari hisobidan subsidiyalashtirilishi, ularning daromadlariga nisbatan imtiyozli soliq stavkalari qo'llanilishi lozim;


z) davlat ro'yxatidan o'tkazish to'lovlarini pasaytirish kerak; i) uy-joylarni ijaraga olish kerak. Davlat tomonidan ko'p kvartirali uylarni qurish va imtiyoz asosida ushbu uylarni ijaraga berish lozim.

- tijoratli ipoteka kreditini berishni rivojlantirish uchun:

1) xorijiy kredit liniyalari hisobidan imtiyozli ipoteka kreditlarini jalb etish lozim;

2) ikki pog'onali ipotekali kreditlash mexanizmini joriy etish taklif etiladi.

Ikki pog'onali ipotekali kreditlash mexanizmi



ипотека кредитlarining foiz stavkalarini aholi uchun qulay darajada shakllantirish imkonini beradi; Ikkichidan, ipotekali kreditlash jarayoniga uzoq muddatli resurslarni jalb qilish imkonini ham berishi lozim.

Fikrimizcha, ikki pog'onali ipotekali kreditlashning mazkur mexanizmi nisbatan takomillashgan mexanizm hisoblanadi. Bunda tijorat banklari ipoteka kreditlarini mijozlarga maqbul bo'lgan foiz stavkalarida beradilar. Undan keyin, kreditlar Agentlik tomonidan sotib olinadi va Agentlik ipoteka majburiyatlari ta'minoti asosida ipoteka obligasiyalarini chiqaradi. Agar mazkur obligasiyalar bo'yicha muammo yuzaga kelsa, davlat tulov yuzasidan kafil xisoblanadi va to'lovni amalga oshiradi. Tijorat banklari ipoteka kreditlarining foiz stavkalari Agentlikning ipoteka obligasiyalari bo'yicha belgilangan foiz stavkalari asosida shakllanadi. Bunda, albatta, bankning 1,25 – 2,0 foiz miqdoridagi marjasi ham hisobga olinadi. Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi Agentlikning ipoteka majburiyatlari bo'yicha belgilaydigan foiz stavkalari uchun asos bo'lib xizmat qilishi lozim.

Shuningdek, ipoteka obligasiyalari real qiymatining pasayishiga yo'l qo'ymaslik darkor. Aks holda, ipoteka obligasiyalarining jozibadorligi keskin pasayadi. Shuning uchun, ipoteka obligasiyalarining jozibadorligiga putur yetishining oldini olishi uchun qo'yidagicha yo'l tutish maqsadga muvofiq bo'lar edi desak xato bo'lmaydi:

- ✶ inflyasiyaning kuchayishiga, milliy valyutaning qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik;
- ✶ ipoteka obligasiyalariga shunday darajada foiz to'lash kerakki, ushbu foiz obligasiyalarning inflyasiya va milliy valyutaning almashuv kursi ta'sirida pasaygan qiymatini qoplash imkonini bersin.

Shunday qilib, ikki pog'onali ipotekali kreditlash mexanizmi davlatning moliyaviy qo'llab-quvvatlanishiga asoslangan mukammal kreditlash mexanizmi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkin mumkinki, kredit turlari va shakllarini rivojlantirish istiqbolini belgilash albatta kredit resurslari, muddati, foiz stavkasi, kadrlar siyosati, iqtisodiyot, kichik biznes va kichik kredit tashkilotlari bilan uzviy bog'liqdir. Ya'ni kredit turlari va shakllarini rivojlantirish imtiyozli resurslar bo'lishni talab etadi. Shu bilan birga, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining pasaytirilishi yoki Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining pasaytirilishi o'z navbatida bank kreditlariga ehtiyojni oshiradi. Axolining kreditlarga bo'lgan ehtiyojini banklar tomonidan qondirilishini ta'minlash iktisodiyotni rivojlantirishning asosiy dastaklaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar asosida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda hali hamon qiyinchiliklar va muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarining daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli kreditlarning mavjudligi sezilarlidir.

Muammoli kreditlar:

- mijozning moliyaviy holatiga to'g'ri baho berilmaganligi va chuqur tahlil etilmaganligi;
- kreditlar ustidan yetarli darajada monitoring o'rnatilmaganligi;
- hujjatlarning to'liq talab qilinmaganligi;
- kredit mablag'larining biznes-rejada ko'rsatilgan maqsadlarga ishlatilmasligi hamda mablag'ning hufyona o'zlashtirilishi;
- kredit ta'minoti sifatida taklif etiladigan garov predmetining talabga javob bermasligi;
- bank xodimlari bilan o'zaro til biriktirib, kredit mablag'ini talon-taroj qilish oqibatida yuzaga keladi.

Ushbu muammoli kreditlarni bartaraf etish masalalari bo'yicha respublikamizda tegishli qonuniy hujjatlar qabul qilingan. Biroq, bu masalalar yuzasidan muammolari xali ham mavjud.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyatida yuzaga kelayotgan yuqoridagi muammolarni bartaraf etishning asosiy yo'nalishlaridan biri – bu kreditlarning turlari va shakllarini rivojlantirish strategiyasidir. Chunki, tijorat banki tomonidan kredit turlari va shakllarining rivojlantirilishi, mazkur kreditlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni ma'lum darajada minimallashtiradi.

Joriy mavjud vaziyatni inobatga olgan holda kreditlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun ajratiladigan shaklini, ipoteka va iste'mol krediti shakllarini hamda kreditlar salmog'ida uzoq muddatli kreditlar turlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishda:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda markazlashgan resurslar va byudjetdan tashqari jamg'armalar hissasini oshirish, byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari orqali berilayotgan kreditlarda bank marjasi faqat 2-3% ni tashkil qilganligi uchun ushbu mablag'larni soliqdan ozod etish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini kreditlashda uzoq muddatli kreditlardan keng miqyosda foydalanish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini xorijiy kredit liniyalari metodikasi orqali mikrokreditlashni jadallashtirish;

- banklarning kreditlash jarayonidagi mustaqiliklarini oshirish;

- kredit berilgandan keyin qarz oluvchi mijozni mol yetkazib beruvchi tomonidan mahsulotni o'z vaqtida yetkazib berilishini ta'minlash maqsadida, mijozlarning ssuda hisob raqamidagi pulni akkreditiv pul o'tkazib berish shakli bilan o'tkazish va boshkalar.

Ipoteka kreditini rivojlantirishning asosiy afzalliklari:

1. Respublikamizdagi aholining ish bilan ta'minlanishiga erishiladi;
2. Mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi;
3. Aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondiriladi.

Ipoteka krediti iqtisodiyotning barcha sohalarini, jumladan, xizmat ko'rsatish va savdo sohasini ham rivojlantirishga turtki beradi.

Ma'lumki, ipoteka kreditini berish yuzasidan tijorat banklari oldida turgan eng og'ir muammo ipoteka kreditlari berish bo'yicha talab darajasi arzon bo'lgan resurslarni topishdir. Mazkur muammoni qisman bo'lsada bartaraf etish maqsadida qo'yidagi taklif va mulohazalarni bildirmoqchimiz. Ya'ni:

- maxsus uzoq muddatli kamida o'n yillik depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarish hamda ipoteka kreditlarini kredit obykti summasining 20%dan kam bo'lmagan miqdordagi depozit sertifikatlariga ega bo'lgan shaxslarga berish. Depozit sertifikatlari va aholi omonatlarini yo'qotishlari oldini olish uchun har moliya yili oxirida tijorat banklari tomonidan real inflyasiya darajasida kompensasiya to'lovlarini amalga oshirish.

- ipoteka kreditini rivojlantirish uchun resurslarni hajmini jumladan, xorijiy moliya institutlarining moliyaviy mablag'arini jalb etib, mazkur kredit uchun resurs hajmini joriy etish va rivojlantirish tavsiya etiladi.

Ta'kidlab o'tish joizki, muammoli kreditlarni bartaraf etish yuzasidan kreditning turlari va shakllarini rivojlantirish bilan bir qatorda tijorat banklari tomonidan qo'yidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

Bank tomonidan muammoli kreditlar oldini olish bo'yicha ko'riladigan choralar qo'yidagilardan iborat:

- vaziyatning yomonlashishiga olib kelgan sabablarning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini aniqlash;
- mazkur kreditni maxsus nazorat qilinadigan kreditlar ro'yxatiga kiritish;
- kelgusi chora-tadbirlar rejasini belgilab olib, korxona boshqaruvi bilan uchrashish;
- kerak bo'lsa, qarzdor mijozning kredit reytingini pasaytirish, kredit uchun to'lovlarni bank daromadlarida aks etishini to'xtatish, rezerv fondlarga ajratmalarni ko'paytirish;
- tahlil natijalarini hisobga olib, zarur hollarda kredit bitimi shartlarini o'zgartirish;
- mazkur mijoz bilan boshqa sohalar bo'yicha munosabatlarda bank uchun kelgusi xatarni aniqlash;
- barcha kredit hujjatlarini, xususan kreditlash shartlarini belgilangan kredit shartnomasini chuqur tahlil etish;
- kredit qaytishi ta'minoti barcha shakllarining ishonchliligini qayta baholab chiqish.
- mijozning hisob raqami holatiga e'tiborni kuchaytirish.
- qarzdorlik tuzilmasini o'zgartirish dasturini ishlab chiqish.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida muammoli kreditlar bilan ishlash bo'limining vazifalari qilib qo'yidagilarni belgilab olish zarur:

- kredit portfelini tahlil qilib borish;
- muammoli kreditlarning diagnostikasini olib borish;

- muammoli kreditlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- muammoli kreditlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash;
- kreditni sog'lomlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar.

**Yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat yuritayotgan xususiy tadbirkorlar
va yangidan ro'yxatdan o'tib faoliyatini yuritayotgan yuridik shaxslarni
kreditga layoqatlilik qobiliyatini baholash uslubi (metodikasi)**

	Ball
1.Tadbirkor(yuridik shaxs rahbari)ning faoliyati bo'yicha tajribasi	
ish tajribasiga ega emas	0
1 yilgacha	2
1 yildan 5 yilgacha	3
5 yildan yuqori	5
2. Tadbirkor (yuridik shaxs rahbari)ning boshqa sohalardagi faoliyati bo'yicha ish tajribasi	
ish tajribasiga ega emas	0
1 yilgacha	2
1 yildan 5 yilgacha	3
5 yildan yuqori	5
3. Tadbirkor (yuridik shaxs rahbari)ning ma'lumoti	
o'rta	1
o'rta maxsus	2
tugallanmagan oliy	3
oliy	4
4.Tadbirkor (yuridik shaxs raxbari)ning faoliyati	
yangi ro'yxatdan o'tgan yoki 6 oygacha muddatda faoliyat ko'rsatmagan	1
ro'yxatdan o'tib, 6 oydan oshiq muddatda faoliyat kursatmoqda	2
ro'yxatdan o'tib, 1yilgacha muddatda faoliyat kursatmoqda	3
ro'yxatdan o'tib, 1 yildan oshik muddatda faoliyat kursatmokda	4
5.Boshqa to'lovlardan mavjud qarzdorlik	
mavjud emas	4
joriy qarzdorlik mavjud	3
katta miqdorda bo'lmagan muddatli qarzdorlik mavjud (eng kam ish xakining 25 barobarigacha)	2
katta miqdordagi qarzdorlik mavjud (eng kam ish hakining 25 barobaridan ortik bo'lgan)	1
muddati o'tgan	0
6.Kredit ta'minoti turlari	
depozitlar, bank kafolati	5
kafillik	3
qimmatli qog'ozlar	2
ko'chmas va ko'char mulklar	4
sug'urta kompaniyasi kafolati	2

7.Mijozning kredit tarixi

kredit mablag'laridan foydalanmagan	1
kreditdan foydalangan va muddatidan kechiktirib qaytargan	2
kreditdan foydalangan va muddatida qaytargan	3
kreditdan foydalangan va muddatidan oldin qaytargan	4

1. Tadbirkor(yuridik shaxs rahbari)ning bank hisob raqamidagi pul mablag'larining oboroti

pul mablag'lari oboroti bo'lmagan	0
o'rtacha oylik pul mablag'lari oboroti eng kam ish haqining 50 barobarigacha bo'lgan	1
o'rtacha oylik pul mablag'lari oboroti eng kam ish haqining 50 barobaridan 100 barobarigacha bo'lgan	2
o'rtacha oylik pul mablag'lari oboroti eng kam ish haqining 100 barobaridan 200 barobarigacha bo'lgan	3
o'rtacha oylik pul mablag'lari oboroti eng kam ish haqining 200 barobaridan yuqori barobari miqdorigacha bo'lgan	4

Umumiy ball	35
--------------------	-----------

35 dan 30 ballgacha - kredit beriladi

30 dan 22 ballgacha - kredit berishi mumkin

22 dan 12 ballgacha - kredit berish muammoliroq bo'lib hisoblanadi

12 dan 3 ballgacha - kredit berilmaydi

Izoh: yangidan ro'yxatdan o'tib faoliyatini yuritayotgan yuridik shaxslarga kredit ajratishda aniqlanadigan ball tizimida 7 qatordagi 4 ballgacha kamaytiriladi.

Kredit arizasi

1.1.	Kredit	oluvchi
(manzili, rahbarning F.I.O.)		
1.2.	Tashkiliy-huquqiy	shakli
(davlat korxonasi, xususiy va x.k.)		
1.3.	Muassislar	(asosiylari)
1.4.	Kredit	oluvchining banki
1.5.	Mulk qiymati	_____ming
so'm		
shu jumladan,		
-	o'z mablag'lari	_____ming so'm,
(miqdori)		
(mulkdagi qiyosiy		
salmog'i)		
shulardan,		
-	ustav fondi	_____ming
so'm		
1.6.	So'nggi "____"_____sanaga yoki ariza berilgan kundagi "____"_____sanaga	
bank	ssudasi bo'yicha qarzlari	_____ming so'm,
(mulkdagi qiyosiy salmog'i)		
1.7.	Asosiy faoliyat	turi,
maxsulotlari _____		
2.1.	maqsadi	Kredit
Kredit summasi quyidagicha:		

1.04.200__ y. _____ ming so'm
 1.07.200__ y. _____ ming so'm
 1.10.200__ y. _____ ming so'm
 1.01.200__ y. _____ ming so'm

Foydalanishning _____ umumiy
 muddati _____

2.2. Kreditni qaytarilish kafolati:

- _____ garov

 (garov ashyosining nomi)

-
 kafillik _____
 (Kafil korxonaning to'liq nomi; kafil bo'lgan jismoniy
 shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi)

3.1. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlari:

a) ishlab chiqarish hajmi, tovar oboroti, daromad _____ ml

n.so'm
 (o'tgan yil qiyosiy narxlarida)

_____ ml
 n.so'm

_____ mln.so'm
 (usish, pasayish)

b) _____ asosiy tovar yetkazib
 beruvchilar: _____

Yetkazib beriladigan maxsulot nomi	Maxsulot yetkazib beruvchining nomi va manzili	Yetkazib beriladigan maxsulot summasi	
		yillik ehtiyoj hajmi	tuzilgan shartnomalar

v) ishlab chiqariladigan maxsulot va ko'rsatiladigan xizmatlarning asosiy iste'molchilari:

Maxsulotlar, xizmatlar nomi	Iste'molchi- ning nomi, manzili	Maxsulotni olib ketish huquqining mavjudligi	Sotish hajmi	
			Reja bo'yicha	Tuzilgan shartnomalar

3.2 Moliyaviy ko'rsatkichlar:

a) o'z aylanma mablag'lari _____ ming so'm davr boshida,
hisobot

sanasida _____

(aylanma mablag'lar, tovar zahiralari, moddiy-tovar boyliklarni
shakllantirishdagi qiyosiy salmog'i - keragining tagiga chizilsin).

Yil oxiriga rejalashtirilayotgan o'z aylanma mablag'lari mavjudligi (usish)

_____ ming so'm,
_____ foiz.

b) Debitorlik-kreditorlik qarzlari holati to'g'risida ma'lumotlar (ular muddati
o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari summasi talkin etilgan shakldagi ma'lumotni,
har oyning 10-sanasiga taqdim etilishlari va chorak balansi ma'lumotlari bilan
solishtirilishlari lozim).

Korxona rahbari
Bosh buxgalter

(imzo)
(imzo)

Mijozlarning kredit skoringi. Kreditning sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Kreditning sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Ballar

1. Mijozning bandlik soxasi (doirasi):

a)	Rahbar	xodim
10		
b)		Xizmatchi
8		
v) ixtisosli ishchi		6
g) ixtisossiz ishchi		4
d) to'liqsiz ish kuni ishlaydigan xodim		2
2. Bir joyda ish bilan bandligi:		
a) 10 yildan ortiq		10
b) 5 yildan ortiq		8
v) 3 yildan ortiq		6
g) 1 yildan ortiq		4
d) 1 yildan kam		2
3. Daromadlari:		
a) eng kam ish xaqining 10 barobari miqdorida		10
b) eng kam ish xaqining 7 barobari miqdorida		8
v) eng kam ish xaqining 5 barobari miqdorida		6
g) eng kam ish xaqining 3 barobari miqdorida		4
d) eng kam ish xaqining 3 barobari miqdoridan kam		2
4. Qaramog'ida yashovchilar soni:		
a)		yo'q
10		
b) bitta		8
v) ikkita		6
g)		uchta
4		
d) to'rt va undan ortiq		2
5. Boshqa to'lovlar bo'yicha qarzdorligi:		
a)		yo'q
10		
b) joriy		8
v) muddatli katta bo'lmagan miqdorda (25 eng kam ish xaqining miqdorida)		6
g) muddatli katta miqdorda (25 eng kam ish xaqining miqdorida)		1
d) muddati		o'tgan
0		
6. Ta'minot turi:		
a) depozitlar, bank kafolati		10
b) kafillik		8
v) qimmatli qog'ozlar		6

g)	kuchar	va	kuchmas	mulk
4				
d)	sug'urta kompaniyasining kafolati			2

Ballar yig'indisi

oilaning bir a'zosiga to'g'ri keladigan oylik daromad

60 dan 48 balgacha kredit beriladi

48 dan 36 balgacha kredit berilishi mumkin

36 dan 24 balgacha kredit berilishi muammoli

24 dan 12 balgacha kredit berilmaydi

Kontokorrent bo'yicha kredit shartnomasi

_____ shahar (tuman) 200__yil “___” _____
_____ bank _____ (boshqarmasi) filiali kelgusida “BANK” deb ataluvchi

_____ (lavozimi, F. I. O)
ishtirokida, (boshqarma) filial Nizomiga va _____ bankidan berilgan
ishonchnomaga asosan bir _____ tomondan va

_____ (qarz oluvchining to'liq nomi)
kelgusida “QARZDOR” deb ataluvchi

_____ (lavozimi, F.I.O)

ishtirokida, amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarga asosan ikkinchi tomondan
ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida to'zdilar.

1. Shartnomaning mazmuni

- 1.1. “Bank” “Qarzdor” ga qarz hisob varag'idan pul hisob-kitob to'lovi hujjatlarini to'lash yo'li bilan 1.3. badda ko'rsatilgan shartlar asosida;
- 1.2. “Bank” ka “Qarzdor” tomonidan kredit ta'minoti turlaridan birini taqdim etilgandan so'ng kredit beriladi.
- 1.3. “Bank” _____ “Qarzdor” _____ ga

_____ (son va so'z bilan)

so'm miqdorida

_____ (kreditning maqsadi)

“___” _____ 200__ gacha bo'lgan muddatga “___” yillik foizda to'lash sharti bilan hamda ajratiladigan kredit summasining ___ foizida komission xizmat olish sharti bilan kredit mablag'i ajratadi.

1.4. “Qarzdor” ushbu olingan kreditlarni maqsadli ishlatish va olingan asosiy qarz va foiz to'lovlarini shartnoma shartlaridan kelib chiqqan holda o'z vaqtida qaytarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.5. Qarz oluvchiga mavjud kredit limiti doirasida kundalik (asosiy) faoliyati: moddiy-tovar boyliklar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul-hisob-kitob hujjatlariga muvofiq kredit berish.

2. Hisob-kitob tartibi

2.1. “Qarzdor” “Bank” tomonidan ajratilgan kreditni taqdim etilgan muddatli majburiyatnoma(lar)ga yoki kreditni qaytarish jadvaliga va kredit shartnomasi shartlarida belgilangan muddatlarga muvofiq qaytaradi.

2.2. Kredit uchun foizlar kredit berilgan kundan boshlab har oyda kunlik hisoblanib, oyning 25 kunigacha memorial order bilan undiriladi. Kreditni qaytarish jadvali yoki majburiyatnomada ko'rsatilgan kreditni qaytarish muddati yetib kelganida, kredit

oluvchining asosiy “talab qilib olinguncha” depozit hisob raqamidan memorial order asosida undiriladi.

2.3. Kredit uchun hisoblangan foizlar nakd pul yoki nakd pulsiz hisob-kitob shaklida to'lanishi mumkin.

2.4. “Qarzdor” olgan kreditni qaytarish va undan foydalanish bo'yicha foizlarni to'lashga doir muddati o'tgan qarzdorlik vujudga kelgan hollarda ularni to'lash to'lovlar (kalendar) navbati tartibida amalga oshiriladi.

2.5. Kreditni o'z vaqtida qaytarish muddati 30 kungacha kechiktirilgan holda 1.1. bandagi foiz stavkasi miqdori 1,3 barobarga, kreditni qaytarish muddati 30 kundan 60 kungacha kechiktirilsa, 1,5 barobarga oshiriladi.

2.6. Kreditga foizlarni hisoblashni to'xtatish Markaziy bankning 2003 yil 11 oktyabrda tasdiqlangan 541 sonli Nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Bankning huquq va majburiyatlari

3.1. Bankning huquqlari

3.1.1. Kreditlash jarayonida berilgan kreditga taalluqli buxgalterlik va statistik hisobotlarni oladi, tahlil qiladi va kreditni maqsadli ishlatilishi hamda garovga qo'yilgan mol-mulkni saqlanishi bo'yicha vaqti-vaqti bilan joyida tekshiruv o'tkazib turadi (bunday tekshiruvlar muvofiqlashtirish Kengashining roziligisiz o'tkaziladi);

Monitoring jarayonida garovga olingan vositalarning narxi bozorda garovga olingan davrga nisbatan pasayganda va yaroqsiz holga kelib qolganligi aniqlaganda, qo'shimcha ta'minot turlarini talab etish huquqiga egadir.

3.1.2. Boshlang'ich foiz stavka miqdorini Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga bog'liq holda qarzdor bilan qo'shimcha kelishuv tuzish yo'li bilan o'zgartirish mumkin.

3.1.3. “Qarzdor” tomonidan kreditga hisoblangan foiz to'lovlarini to'lash to'g'risida o'z vaqtida to'lov topshiriqnomalari taqdim etilmasa bu qarzlarni memorial order bilan undirib oladi.

3.1.4. “Qarzdor” tomonidan shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarga rioya qilinmaganda:

- kredit bo'yicha muddati o'tgan to'lovlar yuzaga kelganda yangidan kredit berishni tuxtatadi;

- kreditni to'liq maqsadsiz sarflanishiga yo'l qo'yilganda, ilgari berilgan kredit muddati qaytarilmaganda, qarz oluvchining moliyaviy xo'jalik faoliyati yomonlashganda (zarar, balans nolikvidligi va b.), buxgalteriya hisobi va hisobotini buzganlik faktlari aniqlanganda, bankka notug'ri hisobotlar taqdim etganda va shartnomada ko'rsatilgan boshqa majburiyatlarni bajarilishiga rioya qilinmaganda ilgari berilgan kreditlarni muddatidan oldin talab qilib olinguncha depozit hisob raqamidan yoki boshqa banklarda ochilgan ikkilamchi hisob raqamidan undirib oladi hamda garovga qo'yilgan mol-mulkka to'liq egalik huquqini oladi. Agar kreditni maqsadsiz ishlatilganda kreditni maqsadga nomuvofiq ishlatilgan qismini va ushbu maqsadsiz ishlatilgan qismiga 1% miqdorida jarima undiriladi.

Bunday xolatda “Bank” qarzni undirishga yunaltirishdan 5 kun oldin bu haqda “Qarzdor” ni xabardor qiladi. Ko'rsatilgan muddatda “Qarzdor” “Bank” ka kreditni to'lash haqida to'lov topshiriqnomasi taqdim etadi va u “Bank” tomonidan “Qarzdor” ni hisobvarag'ida mablag' bor yo'qligidan qat'iy nazar qabul qilinadi.

Mablag' yetarli bo'lmagan taqdirda kredit to'lov muddati o'tgan hisobvarag'iga o'tkaziladi.

"Qarzdor" tomonidan "Bank" ning e'tirozi inobatga olinmaganda yoki qarzni to'lash to'g'risida to'lov topshiriqnomasi taqdim etilmaganda, "Bank" tomonidan tulanmagan kredit to'lov muddati o'tgan hisobvarag'iga o'tkaziladi va kelgusida uni undirilishi depozit va boshqa hisob raqamlaridan to'lovlar (kalendar) navbati tartibida memorial order bilan amalga oshiriladi;

- "Bank" bundan tashqari Xo'jalik sudlariga murojaat qilmasdan kreditni qaytarilishini ta'minlash uchun qo'yilgan garov shartnomasidagi mol-mulkni sotish, kafilning mol-mulkini sotish, kafilning hisob raqamidan mablag'larni kesib olish, kafolat bergan muassasalar, banklar va sug'urta kompaniyalar hisob raqamlaridan qarz summasini undirib olish huquqiga egadir.

3.1.5. "Bank" quyidagi hollarda Xo'jalik sudlariga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan holda ushbu shartnomani bir tomonlama muddatidan oldin bekor qilish va kredit va unga hisoblangan foizlarni undirish huquqiga ega:

- "Qarzdor" kredit olish uchun xaqikiy bo'lmagan (fiktiv) hujjatlar taqdim etilganligi aniqlanganda;

- "Qarzdor" tomonidan kreditni foydalanish davrida kredit yoki foizlarni to'lash muddati 60 kun (kiska muddatli kreditlar uchun) yoki 90 kun (Uzoq muddatli kreditlar uchun) kechiktirilgan davrda;

- "Qarzdor" tomonidan kreditni foydalanish davrida kredit olingandan so'ng 60 kun ichida bank hisob raqamida oborot qilmagan vaqtlarda;

- Garovga qo'yilgan mulklar tekshirish jarayonida unga zarar yetkazilganligi va talon-taroj qilinganligi aniqlanganda;

- Kafil tashkilotning moliyaviy holati yomonlashganda ya'ni to'lovga qobilyati bo'lmagan hollarda;

- "Qarzdor" tomonidan kreditni maqsadsiz ishlatilgan holatlari aniqlanganda.

3.1.6. "Qarzdor" tomonidan kredit bo'yicha asosiy qarzdorlik va unga hisoblangan foizlar kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmasa, "Bank" Fuqarolik kodeksining 280-moddasi 2 qismiga muvofiq mustaqil ravishda sudga murojat qilmasdan, garov predmetini tasarruf qilish huquqiga ega.

3.1.7. "Qarzdor" tomonidan kredit bo'yicha asosiy qarzdorlik va unga hisoblangan foizlar kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmagan taqdirda, "Bank" , mazkur qarzlarni qaytarishni "Qarzdor" ning likvidli mol-mulkleri hisobiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 4 dekabrda 422-son qarori bilan tasdiqlangan "Banklarning kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish Tartibi" ga muvofiq amalga oshirish huquqiga ega.

3.1.8. "Qarzdor" tomonidan kredit bo'yicha asosiy qarzdorlik va unga hisoblangan foizlar kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmagan taqdirda kafillik bergan xo'jalik subyekti hisob raqamiga 3 kun muddat ichida to'lov talabnomasi qo'yish orqali undirish huquqiga ega.

3.2. Bankning majburiyatlari:

3.2.1. "Bank" "Qarzdor" ga ajratiladigan kreditni (foizlarni) buxgalterlik hisobini yuritish uchun alohida tegishli hisob varag'lar ochiladi.

3.2.2. Bank qarz oluvchiga berilgan kredit hisobini yuritish uchun kontokorrent hisob raqamini ochadi.

3.2.3. To'lov hujjatlari taqdim etilgan kuni Bank krediti hisobidan ularning to'lash.

3.2.4. Qarz oluvchiga hisob-kitob xizmati uchun shartnomada ko'rsatilgan foiz stavkasiga muvofiq kredit koldigi bo'yicha foiz to'laydi.

3.2.5. "Bank" tomonidan kreditni muddatidan oldin undirib olinishi sabablari to'g'risida "Qarzdor" ni xabardor qiladi.

3.2.6. har kuni "Qarzdor" -mijozga kreditni berilgan kunidan boshlab shartnomada ko'rsatilgan foiz miqdorida foiz hisoblaydi va hisob raqamidan undirib boradi.

3.2.7. Respublika Xukumati va Markaziy banki hamda _____ bank i Boshqaruvining qarorlariga asosan kreditlash va hisob-kitoblar bo'yicha me'yoriy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilganligi to'g'risida "Qarzdor" ni xabardor qiladi.

4.Qarzdorning huquq va majburiyatlari

4.1. Qarzdorning huquqlari:

4.1.1. Ushbu shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida belgilangan muddatda va summada kredit oladi;

4.1.2. Qo'shimcha kelishuv rasmiylashtirish orqali kredit shartnomasidagi muddatni o'zgartiradi, unga tegishli o'zgartirish kiritadi yoki bekor qiladi;

4.1.3. Kredit bo'yicha qarzlarni muddatidan oldin qaytaradi;

4.1.4. "QARZDOR" kredit uchun hisoblangan foizlarni nakd pul yoki nakd pulsiz hisob-kitob shaklida to'lashi mumkin.

4.1.5. Bank depozitiga mablag' kuyganligi uchun kompensasiya olish.

4.2 Qarzdorning majburiyatlari:

4.2.1. Kreditni ushbu shartnomada ko'rsatilgan maqsadlar uchun yunaltiradi bunda kreditlarni qaytarib berish, to'lash, muddatlilik, maqsadli foydalanish va qaytarishning kafolatlanganligi kabi kreditlashning asosiy tamoyillariga to'liq rioya qiladi.

4.2.2. Olingan kreditni ushbu shartnomada, Biznes rejada qayd etilgan maqsadlarda ishlatilishini ta'minlaydi, hamda talab qilingan vaqtda (har oyda yoki har chorakda) kreditni maqsadli ishlatilishi yuzasidan barcha hujjatlarni "Bank" ka taqdim etib boradi.

4.2.3. "Qarzdor" "Bank" tomonidan ajratilgan kreditni taqdim etilgan muddatli majburiyatnoma(lar)ga yoki kreditni qaytarish jadvaliga va kredit shartnomasi shartlarida belgilangan muddatlarga muvofiq qaytaradi.

4.2.4. "Qarzdor" kreditdan foydalanganligi uchun bankka yillik ____ foiz miqdorida ustama xaqi to'laydi.

4.2.5. "Qarzdor" kredit uchun hisoblangan foizlarni mazkur shartnomada belgilangan shartlar asosida to'laydi.

4.2.6. Kalendar yili oxirida kontokorrent hisob raqamining kredit qoldig'ini ta'minlash.

4.2.7. Foizlar alohida tartibda debet koldigi bo'yicha har oyda _____ foiz miqdorida to'lanadi.

4.2.8. Kreditdan ko'zlangan maqsadda foydalanilmaganligi aniqlangan hollarda berilgan kredit summasining 25 foizi miqdorida Bankka jarima to'lash.

4.2.9. Kreditni to'lay olmaslik xataridan qochish maqsadida "Bank" ka quyidagi ta'minotni taqdim etadi:

mol-mulk yoki qimmatli qogozlar garovi

(garovga qo'yilgan mol-mulklarning

turi, summasi, notarial idorada tasdiqlangan sanasi, garov shartnomasini Davlat kadastr

organida qayd etilganligi to'g'risida berilgan guvoxnomani sanasi va raqami ko'rsatiladi)

-banklar yoki sug'urta idoralarining kafolati

(kafolat beruvchining nomi va summasi ko'rsatiladi)

-uchinchi shaxslarning kafilligi

(kafillik summasi, kafillik beruvchining nomi va kafillik beruvchiga xizmat ko'rsatuvchi bankning nomi ko'rsatiladi)

-sug'urta idoralarining sug'urta polisi

(sug'urta polisining summasi, sanasi. raqami va sug'urta polisi bergan sug'urta idorasining nomi ko'rsatiladi)

Bunday xolatda "Bank" tomonidan garovga olinayotgan moddiy qiymatliklarni (qimmatbaho qogozlardan tashqari) sug'urta idoralaridan sug'urta qildiradi va qonunchilikda belgilangan tartibda notarial tasdiqlatadi.

4.2.10. "Bank" ka davlat solik xizmatining mahalliy (tuman) organi tomonidan tasdiqlangan so'nggi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi, debitorlik va kreditorlik qarzlari yoyilmasi hamda 90 kundan oshib ketgan qarzdorliklari uchun solishtirma dalolatnoma (1 va 2a shakllar), foyda va zararlar haqidagi hisobot (2-shakl)ni taqdim etadi;

a) "Bank" xodimiga berilgan kreditdan maqsadli foydalanilganligi to'g'risida tekshiruv o'tkazish uchun zarur buxgalterlik hujjatlarini taqdim etadi;

b) garovga qo'yilgan mol-mulklarni holatini tekshirish bo'yicha imkoniyat yaratib beradi.

v) Monitoring jarayonida garovga olingan vositalarning narxi bozorda garovga olingan davrga nisbatan pasayganda va yaroqsiz holga kelib qolganligi aniqlaganda, qo'shimcha ta'minot turlarini taqdim etishga majburdir.

4.2.11. Shartnomani bekor qilish vaziyati yuzaga kelgan taqdirda "Bank" kreditini va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytaradi.

4.2.12. Mazkur shartnomaga muvofiq ajratilgan kreditlash limitining foydalanilmagan summasi uchun Bankka __ foiz miqdorida vositachilik xaqini to'lash.

4.2.13. Korxonani moliyaviy ahvoliga ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy-huquqiy shakli yoki qayta tashkil etish kabi o'zgarishlar amalga oshirilmokchi bo'lsa, bu haqda oldindan "Bank"ni xabardor qiladi. Qayta tashkil etilayotganda yoki tugatilayotganda shartnomada ko'rsatilgan muddatdan qat'iy nazar zudlik bilan kredit va hisoblangan foiz to'lovlarini to'liq miqdorda to'laydi.

4.2.14. O'zining yuridik manzili o'zgarganda, qayta tashkil etilganda yoki faoliyati tugatilganda "Bank" ka 10 kun muddat ichida xabar beradi.

5. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Tomonlarning biri kredit shartnomasidagi majburiyatlarni bajarmaganligi yoki to'liq bajara olmaganligi holda, bu tomon O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga asosan javob beradi.

5.2. Bank ushbu shartnomaga muvofiq kreditni ajrata olmagan holda, "Qarzdor" ga har bir kechiktirilgan kun uchun 0,5 foiz, ammo bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

5.3. "Qarzdor" kredit va ular uchun hisoblangan foiz to'lovlarni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlamagan taqdirda "Bank" ka har bir kechiktirilgan kun uchun 0,5 foiz, ammo bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi. Penyaning to'lanishi "Qarzdor" ni kredit va ular uchun hisoblangan foiz to'lovlarni to'lashdan ozod etmaydi.

6. Kelishmovchiliklarni hal etish tartibi

6.1. Tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan ushbu shartnomani ijrosi bilan bog'liq bo'lgan barcha kelishmovchilik va noroziliklar o'zaro kelishuv orqali hal etiladi.

6.2. O'zaro kelishuvlar natijasida hal etilmagan noroziliklar amaldagi qonunchilik asosida O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik sudiga ko'riladi.

7. Boshqa shartlar

7.1. Ushbu shartnoma tomonlar tomonidan imzolangan vaqtdan boshlab "Qarzdor" tomonidan kredit ta'minoti uchun barcha hujjatlar taqdim etilgandan so'ng amal qilish kuchiga ega bo'ladi.

7.2. Ushbu shartnomani amal qilish muddati tomonlar o'rtasida o'zining majburiyatlari to'liq bajarilgandan so'ng tugaydi.

7.3. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ikkala tomon tarafidan yozma ravishda rasmiylashtirilgan hamda imzolangan taqdirdagina xaqiqiy kuchga ega bo'ladi.

7.4. Ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan barcha holatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasidagi amaldagi qonunchilikka muvofiq ish yuritishadi.

7.5. Ushbu shartnoma tomonlar uchun bir nusxadan 2 nusxada tuzilgan bulib, har biri bir xil yuridik kuchga ega.

8. Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitilari:

“BANK”

“QARZDOR”

_____ bank

_____ (filial nomi)

_____ (qarzdor nomi)

vak.x/r _____
_____ STIR _____

x/r _____
_____ STIR _____

Manzil: _____

Manzil: _____

tel _____

tel _____

Rahbar _____

Rahbar _____

_____ (F.I.Sh)

_____ (F.I.Sh)

_____ (imzosi)

_____ (imzosi)

muhr, sana

muhr, sana

Overdraft bo'yicha kredit shartnomasi

_____ shahar (tuman) 200__yil “__” _____

_____ bank _____ (boshqarmasi) filiali kelgusida “BANK” deb ataluvchi

_____ (lavozimi, F. I. O)
ishtirokida, (boshqarma) filial Nizomiga va _____ bankidan berilgan
ishonchnomaga asosan bir _____ tomondan
va _____

_____ (qarz oluvchining to'liq nomi)
kelgusida “QARZDOR” deb _____ ataluvchi

_____ (lavozimi, F.I.O)
ishtirokida, amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarga asosan ikkinchi tomondan
ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida to'zdilar.

1. Shartnomaning mazmuni

1.1. “Bank” “Qarzdor” ga qarz hisob varag’idan pul hisob-kitob to’lovi hujjatlarini to’lash yo’li bilan 1.3. badda ko’rsatilgan shartlar asosida;

1.2. “Bank” ka “Qarzdor” tomonidan kredit ta’minoti turlaridan birini taqdim etilgandan so’ng kredit beriladi.

1.3. “Bank” “Qarzdor” ga

(son va so’z bilan)

so’m miqdorida

(kreditning maqsadi)

“___” 200__ gacha bo’lgan muddatga “___” yillik foizda to’lash sharti bilan kredit ochadi.

1.4. Kredit moddiy-tovar boyliklar, uning ustav faoliyatidan kelib chiqadigan va bank qonunchiligi me’yorlariga zid kelmaydigan bajarilgan ishlar va ko’rsatilgan xizmatlarga xaq to’lash uchun beriladi.

2. Hisob-kitob tartibi

2.1. “Qarzdor” “Bank” tomonidan ajratilgan kreditni taqdim etilgan muddatli majburiyatnoma(lar)ga yoki kreditni qaytarish jadvaliga va kredit shartnomasi shartlarida belgilangan muddatlarga muvofiq qaytaradi.

2.2. Kredit uchun foizlar kredit berilgan kundan boshlab har oyda kunlik hisoblanib, oyning 25 kunigacha memorial order bilan undiriladi. Kreditni qaytarish jadvali yoki majburiyatnomada ko’rsatilgan kreditni qaytarish muddati yetib kelganida, kredit oluvchining asosiy “talab qilib olinguncha” depozit hisob raqamidan memorial order asosida undiriladi.

2.3. Kredit uchun hisoblangan foizlar nakd pul yoki nakd pulsiz hisob-kitob shaklida to’lanishi mumkin.

2.4. “Qarzdor” olgan kreditni qaytarish va undan foydalanish bo’yicha foizlarni to’lashga doir muddati o’tgan qarzdorlik vujudga kelgan hollarda ularni to’lash to’lovlar (kalendar) navbati tartibida amalga oshiriladi.

2.5. Kreditni o’z vaqtida qaytarish muddati 30 kungacha kechiktirilgan holda 1.1. bandagi foiz stavkasi miqdori 1,3 barobarga, kreditni qaytarish muddati 30 kundan 60 kungacha kechiktirilsa, 1,5 barobarga oshiriladi.

2.6. Kreditga foizlarni hisoblashni to’xtatish Markaziy bankning 2003 yil 11 oktyabrda tasdiqlangan 541 sonli Nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Bankning huquq va majburiyatlari

3.1. Bankning huquqlari

3.1.1. Kreditlash jarayonida berilgan kreditga taalluqli buxgalterlik va statistik hisobotlarni oladi, tahlil qiladi va kreditni maqsadli ishlatilishi hamda garovga qo’yilgan mol-mulkni saqlanishi bo’yicha vaqti-vaqti bilan joyida tekshiruv o’tkazib turadi (bunday tekshiruvlar muvofiqlashtirish Kengashining roziligisiz o’tkaziladi);

Monitoring jarayonida garovga olingan vositalarning narxi bozorda garovga olingan davrga nisbatan pasayganda va yaroqsiz holga kelib qolganligi aniqlaganda, qo'shimcha ta'minot turlarini talab etish huquqiga egadir.

3.1.2. Boshlang'ich foiz stavka miqdorini Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga bog'liq holda qarzdor bilan qo'shimcha kelishuv tuzish yo'li bilan o'zgartirish mumkin.

3.1.3. "Qarzdor" tomonidan kreditga hisoblangan foiz to'lovlarini to'lash to'g'risida o'z vaqtida to'lov topshiriqnomalari taqdim etilmasa bu qarzlarni memorial order bilan undirib oladi.

3.1.4. "Qarzdor" tomonidan shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarga rioya qilinmaganda:

- kredit bo'yicha muddati o'tgan to'lovlar yuzaga kelganda yangidan kredit berishni tuxtatadi;

- kreditni to'liq maqsadsiz sarflanishiga yo'l qo'yilganda, ilgari berilgan kredit muddati qaytarilmaganda, qarz oluvchining moliyaviy xo'jalik faoliyati yomonlashganda (zarar, balans nolikvidligi va b.), buxgalteriya hisobi va hisobotini buzganlik faktlari aniqlanganda, bankka notug'ri hisobotlar taqdim etganda va shartnomada ko'rsatilgan boshqa majburiyatlarni bajarilishiga rioya qilinmaganda ilgari berilgan kreditlarni muddatidan oldin talab qilib olinguncha depozit hisob raqamidan yoki boshqa banklarda ochilgan ikkilamchi hisob raqamidan undirib oladi hamda garovga qo'yilgan mol-mulkka to'liq egalik huquqini oladi. Agar kreditni maqsadsiz ishlatilganda kreditni maqsadga nomuvofiq ishlatilgan qismini va ushbu maqsadsiz ishlatilgan qismiga 1% miqdorida jarima undiriladi.

Bunday xolatda "Bank" qarzni undirishga yunaltirishdan 5 kun oldin bu haqda "Qarzdor" ni xabardor qiladi. Ko'rsatilgan muddatda "Qarzdor" "Bank" ka kreditni to'lash haqida to'lov topshiriqnomasi taqdim etadi va u "Bank" tomonidan "Qarzdor" ni hisobvarag'ida mablag' bor yo'qligidan qat'iy nazar qabul qilinadi. Mablag' yetarli bo'lmagan taqdirda kredit to'lov muddati o'tgan hisobvarag'iga o'tkaziladi.

"Qarzdor" tomonidan "Bank" ning e'tirozi inobatga olinmaganda yoki qarzni to'lash to'g'risida to'lov topshiriqnomasi taqdim etilmaganda, "Bank" tomonidan tulanmagan kredit to'lov muddati o'tgan hisobvarag'iga o'tkaziladi va kelgusida uni undirilishi depozit va boshqa hisob raqamlaridan to'lovlar (kalendar) navbati tartibida memorial order bilan amalga oshiriladi;

- "Bank" bundan tashqari Xo'jalik sudlariga murojaat qilmasdan kreditni qaytarilishini ta'minlash uchun qo'yilgan garov shartnomasidagi mol-mulkni sotish, kafilning mol-mulkini sotish, kafilning hisob raqamidan mablag'larni kesib olish, kafolat bergan muassasalar, banklar va sug'urta kompaniyalar hisob raqamlaridan qarz summasini undirib olish huquqiga egadir.

3.1.5. "Bank" quyidagi hollarda Xo'jalik sudlariga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan holda ushbu shartnomani bir tomonlama muddatidan oldin bekor qilish va kredit va unga hisoblangan foizlarni undirish huquqiga ega:

- "Qarzdor" kredit olish uchun xaqikiy bo'lmagan (fiktiv) hujjatlar taqdim etilganligi aniqlanganda;

- “Qarzdor” tomonidan kreditni foydalanish davrida kredit yoki foizlarni to’lash muddati 60 kun (kiska muddatli kreditlar uchun) yoki 90 kun (Uzoq muddatli kreditlar uchun) kechiktirilgan davrda;
- “Qarzdor” tomonidan kreditni foydalanish davrida kredit olingandan so’ng 60 kun ichida bank hisob raqamida oborot qilmagan vaqtlarda;
- Garovga qo’yilgan mulklar tekshirish jarayonida unga zarar yetkazilganligi va talon-taroj qilinganligi aniqlanganda;
- Kafil tashkilotning moliyaviy holati yomonlashganda ya’ni to’lovga qobiliyati bo’lmagan hollarda;
- “Qarzdor” tomonidan kreditni maqsadsiz ishlatilgan holatlari aniqlanganda.

3.1.6. “Qarzdor” tomonidan kredit bo’yicha asosiy qarzdorlik va unga hisoblangan foizlar kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmasa, “Bank” Fuqarolik kodeksining 280-moddasi 2 qismiga muvofiq mustaqil ravishda sudga murojat qilmasdan, garov predmetini tasarruf qilish huquqiga ega.

3.1.7. “Qarzdor” tomonidan kredit bo’yicha asosiy qarzdorlik va unga hisoblangan foizlar kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmagan taqdirda, “Bank”, mazkur qarzlarni qaytarishni “Qarzdor” ning likvidli mol-mulkari hisobiga O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 4 dekabrda 422-son qarori bilan tasdiqlangan “Banklarning kreditlari bo’yicha qarzdorlik o’z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish Tartibi” ga muvofiq amalga oshirish huquqiga ega.

3.1.8. “Qarzdor” tomonidan kredit bo’yicha asosiy qarzdorlik va unga hisoblangan foizlar kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmagan taqdirda kafillik bergan xo’jalik subyekti hisob raqamiga 3 kun muddat ichida to’lov talabnomasi qo’yish orqali undirish huquqiga ega.

3.2. Bankning majburiyatlari:

3.2.1. “Bank” “Qarzdor” ga ajratiladigan kreditni (foizlarni) buxgalterlik hisobini yuritish uchun alohida tegishli hisob varag’lar ochiladi.

3.2.2. Mijozning mablag’lari koldigi, shuningdek, Qarz oluvchiga berilayotgan kredit hisobini yuritish uchun overdraft hisob raqamini ochish.

3.2.3. To’lov hujjatlari taqdim etilgan kuni Bank krediti hisobidan ularning to’lash.

3.2.4. “Bank” tomonidan kreditni muddatidan oldin undirib olinishi sabablari to’g’risida “Qarzdor” ni xabardor qiladi.

3.2.5. har kuni “Qarzdor” -mijozga kreditni berilgan kundan boshlab shartnomada ko’rsatilgan foiz miqdorida foiz hisoblaydi va hisob raqamidan undirib boradi.

3.2.6. Respublika Xukumat va Markaziy banki hamda _____ banki Boshqaruvining qarorlariga asosan kreditlash va hisob-kitoblar bo’yicha me’yoriy hujjatlarga o’zgartirishlar kiritilganligi to’g’risida “Qarzdor” ni xabardor qiladi.

4.Qarzdorning huquq va majburiyatlari

4.1. Qarzdorning huquqlari:

4.1.1. Ushbu shartnomada ko’rsatilgan shartlar asosida belgilangan muddatda va summada kredit oladi;

4.1.2. Qo’shimcha kelishuv rasmiylashtirish orqali kredit shartnomasidagi muddatni o’zaytiradi, unga tegishli o’zgartirish kiritadi yoki bekor qiladi;

4.1.3. Kredit bo’yicha qarzlarni muddatidan oldin qaytaradi;

4.1.5. Bank depozitiga mablag' kuyganligi uchun kompensasiya olish.

4.2.1. Kreditni ushbu shartnomada ko'rsatilgan maqsadlar uchun yunaltiradi bunda kreditlarni qaytarib berish, to'lash, muddatlilik, maqsadli foydalanish va qaytarishning kafolatlanganligi kabi kreditlashning asosiy tamoyillariga to'liq rioya qiladi.

4.2.3. “Qarzdor” “Bank” tomonidan ajratilgan kreditni taqdim etilgan muddatli majburiyatnoma(lar)ga yoki kreditni qaytarish jadvaliga va kredit shartnomasi shartlarida belgilangan muddatlarga muvofiq qaytaradi.

4.2.5. “Qarzdor” kredit uchun hisoblangan foizlarni mazkur shartnomada belgilangan shartlar asosida to’laydi.

4.2.7.Kreditni to'lay olmaslik xataridan qochish maqsadida "Bank" ka quyidagi ta'minotni taqdim etadi:

(garovga qo'yilgan mol-mulklarning

organida qayd etilganligi to'g'risida berilgan guvoxnomani sanasi va raqami ko'rsatiladi)

(kafolat beruvchining nomi va summasi ko'rsatiladi)

(kafillik summasi, kafillik beruvchining nomi va kafillik beruvchiga xizmat ko'rsatuvchi bankning nomi ko'rsatiladi)

-sug'urta idoralarining sug'urta polisi _____

(sug'urta polisining summasi, sanasi, raqami va sug'urta polisi bergan sug'urta idorasining nomi ko'rsatiladi)

Bunday xolatda "Bank" tomonidan garovga olinayotgan moddiy qiymatliklarni (qimmatbaho qogozlardan tashqari) sug'urta idoralaridan sug'urta qildiradi va qonunchilikda belgilangan tartibda notarial tasdiqlatadi.

4.2.8. "Bank" ka davlat solik xizmatining mahalliy (tuman) organi tomonidan tasdiqlangan so'nggi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi, debitorlik va kreditorlik qarzlari yoyilmasi hamda 90 kundan oshib ketgan qarzdorliklari uchun solishtirma dalolatnoma (1 va 2a shakllar), foyda va zararlar haqidagi hisobot (2-shakl)ni taqdim etadi;

a) "Bank" xodimiga berilgan kreditdan maqsadli foydalanilganligi to'g'risida tekshiruv o'tkazish uchun zarur buxgalterlik hujjatlarini taqdim etadi;

b) garovga qo'yilgan mol-mulkni holatini tekshirish bo'yicha imkoniyat yaratib beradi.

v) Monitoring jarayonida garovga olingan vositalarning narxi bozorda garovga olingan davrga nisbatan pasayganda va yaroqsiz holga kelib qolganligi aniqlaganda, qo'shimcha ta'minot turlarini taqdim etishga majburdir.

4.2.9. Shartnomani bekor qilish vaziyati yuzaga kelgan taqdirda "Bank" kreditini va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytaradi.

4.2.10. Mazkur shartnomaga muvofiq ajratilgan kreditlash limitining foydalanilmagan summasi uchun Bankka foiz miqdorida vositachilik xaqini to'lash.

4.2.11. Korxonani moliyaviy ahvoliga ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy- huquqiy shakli yoki qayta tashkil etish kabi o'zgarishlar amalga oshirilmokchi bo'lsa, bu haqda oldindan "Bank"ni xabardor qiladi. Qayta tashkil etilayotganda yoki tugatilayotganda shartnomada ko'rsatilgan muddatdan qat'iy nazar zudlik bilan kredit va hisoblangan foiz to'lovlarini to'liq miqdorda to'laydi.

4.2.12. O'zining yuridik manzili o'zgarganda, qayta tashkil etilganda yoki faoliyati tugatilganda "Bank" ka 10 kun muddat ichida xabar beradi.

5. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Tomonlarning biri kredit shartnomasidagi majburiyatlarni bajarmaganligi yoki to'liq bajara olmaganligi holda, bu tomon O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga asosan javob beradi.

5.2. Bank ushbu shartnomaga muvofiq kreditni ajrata olmagan holda, "Qarzdor" ga har bir kechiktirilgan kun uchun 0,5 foiz, ammo bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

5.3. “Qarzdor” kredit va ular uchun hisoblangan foiz to’lovlarni o’z vaqtida qaytarilishini ta’minlamagan taqdirda “Bank” ka har bir kechiktirilgan kun uchun 0,5 foiz, ammo bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to’laydi. Penyaning to’lanishi “Qarzdor” ni kredit va ular uchun hisoblangan foiz to’lovlarni to’lashdan ozod etmaydi.

6. Kelishmovchiliklarni hal etish tartibi

6.1. Tomonlar o’rtasida yuzaga keladigan ushbu shartnomani ijrosi bilan bog’liq bo’lgan barcha kelishmovchilik va noroziliklar o’zaro kelishuv orqali hal etiladi.

6.2. O’zaro kelishuvlar natijasida hal etilmagan noroziliklar amaldagi qonunchilik asosida O’zbekiston Respublikasi Xo’jalik sudiga ko’riladi.

7. Boshqa shartlar

7.1. Ushbu shartnoma tomonlar tomonidan imzolangan vaqtdan boshlab “Qarzdor” tomonidan kredit ta’minoti uchun barcha hujjatlar taqdim etilgandan so’ng amal qilish kuchiga ega bo’ladi.

7.2. Ushbu shartnomani amal qilish muddati tomonlar o’rtasida o’zining majburiyatlari to’liq bajarilgandan so’ng tugaydi.

7.3. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o’zgartirish va qo’shimchalar ikkala tomon tarafidan yozma ravishda rasmiylashtirilgan hamda imzolangan taqdirdagina xaqiy kuchga ega bo’ladi.

7.4. Ushbu shartnomada ko’zda tutilmagan barcha holatlarda tomonlar O’zbekiston Respublikasidagi amaldagi qonunchilikka muvofiq ish yuritishadi.

7.5. Ushbu shartnoma tomonlar uchun bir nusxadan 2 nusxada tuzilgan bulib, har biri bir xil yuridik kuchga ega.

8. Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitilari:

“BANK”	“QARZDOR”
_____ bank	_____
_____	_____
(filial nomi)	(qarzdor nomi)
vak.x/r _____	x/r _____
_____STIR_____	_____STIR_____
Manzil: _____	Manzil: _____
_____	_____
tel _____	tel _____
_____	_____
Rahbar _____	Rahbar _____

(F.I.Sh)

(imzosi)
muhr, sana

(F.I.Sh)

(imzosi)
muhr, sana

Qimmatli qogozlar garovi asosida kredit berish to'g'risida shartnoma
(lombard krediti)

_____ shahar (tuman) 2003 yil "____" _____

_____ bank _____ (boshqarmasi) filiali kelgusida "BANK" deb
ataluvchi _____

_____ (lavozimi, F. I. O)
ishtirokida, (boshqarma) filial Nizomiga va _____ bank idan berilgan
ishonchnomaga asosan bir tomondan
va _____

_____ (qarz oluvchining to'liq nomi)
kelgusida "QARZDOR" deb ataluvchi

_____ (lavozimi, F.I.O)
ishtirokida, amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarga asosan ikkinchi tomondan
ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida to'zdilar.

1. Shartnomaning mazmuni

1.1. "Bank" "Qarzdor"ga qarz hisob varag'idan pul hisob-kitob to'lovi hujjatlarini
to'lash yo'li bilan 1.3. badda ko'rsatilgan shartlar asosida;

1.2. "Bank" ka "Qarzdor" tomonidan kredit ta'minoti turlaridan birini taqdim
etilgandan so'ng kredit beriladi.

1.3. "Bank" "Qarzdor" ga

_____ (son va so'z bilan)

so'm miqdorida

_____ (kreditning maqsadi)
"____" 200__yilgacha bo'lgan muddatga "____" yillik foizda to'lash
sharti bilan moddiy-tovar boyliklar, ishlab chiqarish faoliyatiga taallukli bo'lgan
bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul-hisob-kitob hujjatlarini to'lashga
hamda garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlarni saqlash bilan bog'liq bo'lgan
amaliyotlarbo'yicha ular qiymatining 0,03 foizi miqdorida vositachilik xaqi olgan
holda kredit ochadi.

1.4. Qarz oluvchi garovga kuygan qimmatli qog'ozlarning qiymati _____
so'm miqdorida belgilandi va garov summasi sifatida qabul qilindi.

1.5. Qimmatli qogozlar garovi kredit shartnomasi to'zilgunicha taqdim etiladigan
garov to'g'risidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi va notarial tartibda
tasdiqlanadi. Notarial rasmiylashtirish harajatlarini Qarz oluvchi to'laydi.

1.6. Garovga qo'yilgan qimmatli qogozlar bo'yicha olingan dividendlar (foyda)
foizlar hisoblanmagan holda muddatsiz depozitga o'tkaziladi.

1.7. Kreditlar ssuda hisob raqamidan kredit arizasida ko'rsatilgan shartnomalar (bitimlar)ning mavjudligi bilan tasdiqlangan pul-hisob-kitob hujjatlari to'lovi uchun beriladi.

1.8. Lombard krediti quyidagi tartibda to'lanadi (keraklisining tagiga chizilsin):

- Qarz oluvchining hisob raqamidan pul mablag'lari bush qoldig'ini har kuni hisobdan chiqarish va ularni ssuda hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan;
- Qarz oluvchining muddatli majburiyatlari bilan.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

BANK VA QARZ OLUVCHI mazkur shartnomaning ijrosi uchun birgalikda javobgar hisoblanadi.

2.1. BANK quyidagi huquqlarga ega:

- garovga qo'yilgan qimmatli qogozlar bo'yicha olingan daromadni ularni saqlash harajatlari, shuningdek, kreditni va undan foydalanganlik foizlarini to'lash uchun yunaltirgan holda depozit hisob raqamidan hisobdan chiqarish;
- Qarz oluvchi kreditni belgilangan muddatda tulamagan hollarda imtiyozli oy o'tganidan so'ng garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlarni mustaqil ravishda sotish.

Olingan tushum ssuda bo'yicha qarzlarni, mustaqil ravishda sotish bilan bog'liq bo'lgan boshqa harajatlarni qoplash uchun yunaltiriladi. Tushumning kolgan summasi Qarz oluvchiga qaytariladi;

- Qarz oluvchi qayta tashkil etilsa yoki tugatilsa, garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlarni muddatidan oldin undirib olish;
- Qarz oluvchidan qimmatli qogozlar bahosining o'zgarishi, birja kursi tebranishlari sababli kreditning qo'shimcha ravishda ta'minlanishini yoki uni garov qiymatining pasayish summasi miqdorida kamaytirishni talab qilish. Agar mazkur shart Qarz oluvchi tomonidan bajarilmasa, Bank kreditning ta'minlanmagan qismini hisob-kitob raqamidan undirish yoki kredit berishni to'xtatish yoxud kreditni to'liq hajmida muddatidan oldin undirib olish huquqiga ega;

- agar bu tabiiy faloqat sababli yuz bergan bo'lsa, yo'qotilgan va yetishmagan miqdor uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

2.2. QARZ OLUVCHI quyidagi huquqlarga ega:

- o'zining to'lov topshiriqnosi bilan kreditni muddatidan oldin to'liq yoki ulushlar bilan to'lash;

- Bank oldida o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini to'liq bajarganidan so'ng, ikki bank kuni mobaynida garovga qo'yilgan qimmatli qogozlar va depozit hisob raqamiga o'tkazilgan foydani olish;

- Bankka sifatsiz saklaganligi, mablag'ni ssuda hisob raqami hisobidan notug'ri chikarganligi (uchirganligi) va tuxtatib kuyganligi uchun jarima to'lovi yuzasidan e'tiroz bildiradi.

2.3. BANK quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:

- kreditni o'z vaqtida bermaslik;
- hisob-kitob-kredit amaliyotlari koidalarini buzganlik;
- Qarz oluvchi tomonidan Bank va Qarz oluvchining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan ro'yxat bilan saqlash uchun topshirilgan garovga qo'yilgan qimmatli qogozlar uchun. Garovga qabul kilinayotgan qimmatli qog'ozlarni topshirish kredit berilgunicha amalga oshiriladi, dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va qarz oluvchi

ishtirokida maxsus seyfga joylashtiriladi. Dalolatnomada Qarz oluvchining garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlarning saqlanish shakli va sharoitlariga oid ma'qo'llash bahosi hamda uning roziligi aks ettirilishi zarur;

- Depozit shartnomasining foizlar va dividendlarni hisoblab yozish qismi bo'yicha shartlarini bajarish;

- depozit va garov shartnomalari rasmiylashtirilganidan va mazkur shartnoma yuridik kuchga ega bo'lganidan so'ng kreditni o'z vaqtida hamda to'liq xajmda berish;

- kredit berishga doir bank shartlarini bajarish va uning ta'minlanishini nazorat qilish;

- Bank oldida o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bo'zgan, kredit berish jarayonida o'zining moliyaviy barqarorligini zarar ko'rib ishlash holatigacha yo'qotgan Qarz oluvchiga nisbatan o'z vaqtida kredit berish koidalarida ko'zda tutilgan choralarni qurish.

2.4. QARZ OLUVCHI quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:

- garovlarni ro'yxatga olish kitobidagi oldingi va keyingi garovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bankka o'z vaqtida va ishonchli taqdim etish;

- qimmatli qog'ozlarni o'z vaqtida va ushbu qimmatli qogozlar bo'yicha olingan foydalarga egalik qilish huquqini bergan holda Bankka saqlash uchun topshirish;

- Bankka oylik (kundalik) balanslar, garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlarning Fond Birjasidagi savdosi natijalari, shuningdek, kredit arizasida belgilangan yetkazib beruvchilar (haridorlar) bilan to'zgan shartnoma shartlarining o'zgarishi to'g'risida o'z vaqtida va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish;

3. Boshqa shartlar

3.1. Ushbu shartnoma tomonlar tomonidan imzolangan vaqtdan boshlab "Qarzdor" tomonidan kredit ta'minoti uchun barcha hujjatlar taqdim etilgandan so'ng amal qilish kuchiga ega bo'ladi.

3.2. Ushbu shartnomani amal qilish muddati tomonlar o'rtasida o'zining majburiyatlari to'liq bajarilgandan so'ng tugaydi.

3.3. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ikkala tomon tarafidan yozma ravishda rasmiylashtirilgan hamda imzolangan taqdirdagina xaqiy kuchga ega bo'ladi.

3.4. Ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan barcha holatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasidagi amaldagi qonunchilikka muvofiq ish yuritishadi.

3.5. Ushbu shartnoma tomonlar uchun bir nusxadan 2 nusxada tuzilgan bulib, har biri bir xil yuridik kuchga ega.

4. Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

"BANK"

bank

"QARZDOR"

(filial nomi)
vak.x/r _____
_____ STIR _____
Manzil: _____

tel _____

Rahbar _____

(F.I.Sh)

(imzosi)

muhr, sana

(qarzdor nomi)
x/r _____
_____ STIR _____
Manzil: _____

tel _____

Rahbar _____

(F.I.Sh)

(imzosi)

muhr, sana

Iste'mol kreditini olish uchun Ariza.

_____ bankning _____ filiali boshlig'i _____ ga
(F.I.O) (filial nomi)

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi

(F.I.O, to'g'ilgan yili)

Pasport _____

(seriya, nomer, kim tomonidan, qayerda va qachon berilgan)

Yashash _____ manzili

Quyidagi iste'mol maqsadlari uchun kredit berishingizni surayman

(kredit maqsadi)

Olinadigan kredit summasi

(summa raqam va yozuvda)

Muddati _____

(oylar)

Ta'minot _____
(ta'minot turi)

Asosiy qarz va foiz to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini kafolatlayman.

Quyidagi hujjatlar kredit arizasiga ilova qilinadi:

1. Yashash joyidan va oila tarkibi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
2. Ish joyidan daromadi va ushbu tashkilotda qancha vaqtdan beri ishlashi to'g'risida ma'lumotnoma;
3. Soliq organlaridan daromadlarni tasdiqlovchi ma'lumotnoma;
4. Ijtimoiy ta'minot organlaridan ma'lumotnoma (nafaqaxurlar uchun)

I.Sh.O _____
(imzo)

(sana)

**Uy-joy sotib olish yoki uy-joy qurish uchun
Ariza**

_____ bankning _____ filiali boshlig'i _____ ga
(filial nomi)

(F.I.O)

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi

(F.I.O, to'g'ilgan yili)

Pasport

(seriya, nomer, kim tomonidan, qayerda va qachon
berilgan)

Yashash
manzili _____

Quyidagi _____ maqsadlar _____ uchun kredit berishingizni surayman

(kredit maqsadi)

Olinadigan kredit summasi

(summa raqam va yozuvda)

Muddati _____

(oylar)

Ta'minot

(ta'minot turi)

Asosiy qarz va foiz to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini kafolatlayman.

Quyidagi hujjatlar kredit arizasiga ilova qilinadi:

1. Yashash joyidan va oila tarkibi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
2. Ish joyidan daromadi va ushbu tashkilotda qancha vaqtdan beri ishlashi to'g'risida ma'lumotnoma;

3. Soliq organlaridan daromadlarni tasdiqlovchi ma'lumotnoma;
4. Ijtimoiy ta'minot organlaridan ma'lumotnoma (nafaqaxurlar uchun)

I.Sh.O _____
(imzo)

(sana)

Ish xaqi to'g'risida ma'lumotnoma

(ishchining I.Sh.O)

_____ da
(korxona, tashkilot muassasaning to'liq nomi)

_____ da ishlaydi
(lavozimi)

Xodimning 200__ yil “__” _____ dan 200__ yil “__” _____ gacha ish xaqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari quyidagicha:

oy	jumladan					to'lovlar jami					
	jami ish xaqi	oklad	mukofot	moddiy yordam	boshqa		daromad solig'i	nafaqa fondiga To'lovlar	kasaba uyushmasiga to'lovlar	boshqa	

Ushbu ma'lumotnoma bankdan iste'mol yoki uy-joy qurish va sotib olish maqsadida kreditlarini olish uchun taqdim etildi.

Rahbar

(i.sh.n)

M.U

Bosh buxgalter

(i.sh.n)

Ma'lumotnoma berilmaydi:

- ish haqidan majburiy ravishda 20% va undan ortiq ushlab qolinadigan ishchilarga;
- turli sabablar bilan ishdan bo'shayotgan xodimlarga.

TAYaNCh SO'Z VA IBORALAR

KREDIT – iqtisodiy kategoriya bo'lib, u vaqtincha o'z egalari qo'lida bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lam qarti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlarni bildiradi.

KREDITNING VAZIFALARI – taqsimlash, emissiya qilish, nazorat qilish, bo'sh pul mablag'larini harakatdagi pul mablag'lariga aylantirish va rag'batlantirish vazifalari kredit kategoriyasiga xosdir.

KREDITLASH TAMOYILLARI – qaytarib berishlilik, muddatlilik, maqsadlilik, to'lovlilik va ta'minlanganlik tamoyillari kreditlashning umumiy tamoyillaridir.

KREDIT SUBYEKTLARI – har hil bo'lishi mumkin. Bularga korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

KREDIT SUMMASI – bu qarzga beriladigan pul birligining hajmi.

KREDIT TIZIMI – bank va kredit muassasalari ularning kredit operatsiyalarini bajarish uslublari, takil etishning huquqiy shakllari majmuini ifodalaydi.

BANK KREDIT SIYOSATI – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklari boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlari kreditlash portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir.

KREDIT SIYOSATINING VAZIFASI – banklarning kredit tarkibini yaxshilash ularning aylanishini tezlashtirish, ssudalar hajmini kengaytirish.

KREDIT SIYOSATINING MAQSADI – mijozlar ehtiyojini qondirish va qo'shimcha foyda olish.

KREDIT SIYOSATIGA TA'SIR ETUVCHI TASHQI OMILLAR – bu siyosiy va iqtisodiy sharoit: bank qonunlarning rivojlanish darajasi, banklararo raqobat, bank infratuzilmasiing rivojlanish darajasi kiritiladi.

KREDIT SIYOSATIGA TA'SIR ETUVCHI ICHKI OMILLAR – kredit siyosatiga ta'sir etuvchi ichki manba omillarga: bank resurslarning baza va strukturasi tuzilmasi,

kredit tashkilotlarning likvidligi, banklarning ixtisoslashganligi, maxsus o'qimishli hodimlar miqdori va boshqalar.

BANK KREDIT PORTFELI MONITORINGI - bu kredit resurslarini rasional joylashtirish va undan samarali foydalanish hamda berilgan kreditlar va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlashga yo'naltirilgan bilimlar, uslublar va chora-tadbirlar majmuasidan iborat.

BANK KREDITI – bu moliya muassasalari(banklar, fondlar, tashkilotva uyushmalar) tomonidan har qanday xo'jalik subyektlari(tadbirkorlar, korxonalar, tashkilotlar va boshqalar)ga pul shaklida ssuda tarzida beriladi.

ISTE'MOL KREDITI - bu aholining iste'mol talablarini qondirishga yordam beruvchi kreditdir va uy-ro'zg'or buyumlari: radio-elektron va maishiy asbob-uskunalar, mebellar, interyer buyumlari, turar uy-joylarni ta'mirlash bilan bog'liq tovarlarni xarid qilish, avtomashina sotib olish va aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar va boshqa xizmatlarning haqini to'lash uchun 3 yilgacha bo'lgan muddatda beriladi.

TA'LIM KREDITLARI - tijorat banklari filiallari tomonidan oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlariga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqorosi bo'lgan talabalarning o'qishi uchun talabalarning o'zlariga, ularning ota-onalariga yoki vasiylariga berilishi mumkin.

BANKLARARO KREDITLAR – bank kreditining keng tarqalgan shakllaridan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi ma'lum bir tijorat bankning boshqa turdagi ssudalar berish siyosatini aniklab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu normaning aniq miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

DAVLAT KREDITI- kreditning bu shaklining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlat bir tomondan qarz beruvchi va ikkinsi tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok qilishi mumkin. Qarz beruvchi vazifasini bajara turib, davlat, davlat kredit institutlari, jumladan Markaziy bank orqali iqtisodning har xil sohalarini kreditlashni o'z zimasiga oladi. Davlat kreditining xarakterli xususiyati, davlat tomonidan lingan qarz mablag'lari ishla chiqarish fondlari aylanishida yoki moddiy boyliklar yaratishda ishtirok qilmaydi. Bu mablag'lar davlat qarzlarini qoplash uchun ishlatiladi.

XALQARO KREDIT – bir davlat, shu davlat banki, huquqiy shaxsi tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa huquqiy shaxslariga muddatlilik va to'lovlilik asosida beriladigan kreditdir.

MARJA – banklarning oladigan foizi bilan beridigan foizi o'rtasidagi farqdir.

OVERDRAFT - kontokorrent hisob raqamining maxsus shakli hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bank mijozning asosiy "talab qilib olinguncha" depozit hisob raqamida qisqa muddat mobaynida debetli (qoplanmagan) qoldiq bo'lishiga ruxsat beradi. Overdraft hisob raqamidan foydalanish xuquqi eng ishonchli mijozlargagina beriladi.

YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLIK - yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishidir.

OILAVIY TADBIRKORLIK - jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiriladigan birgalikdagi faoliyati bo'lib, er-xotin tomonidan ularga birgalikdagi umumiy mulk xuquqi asosida tegishli bo'lgan umumiy mol-mulk negizida amalga oshiriladi. Oilaviy tadbirkorlik er-xotinning va ularga ko'maklashadigan oila a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi

MIKROFIRMA - bu mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, ish bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ishlab chiqarish sohasida 20 kishidan, xizmat ko'rsatish soxasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo, va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan korxonalar

KICHIK KORXONA - mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, yengil va oziq -ovqat sanoati, metalga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel va qurilish materiallari sanoatida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 100 kishidan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida 50 kishidan, fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish

hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalarda 25 kishidan oshmagan korxonalar.

DEXQON XO'JALIGI - oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, oila boshlig'iga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishiga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish va sotishni amalga oshiradigan oilaviy mayda tovar xo'jalikdir.

FERMER XO'JALIGI - o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir.

MIKROKREDIT - qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining 1000 baravari miqdoridan oshmaydigan pul mablag'idir.

BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMA KREDIT LINIYASI - byudjetdan tashqari jamg'arma tomonidan kichik biznes subyektlarini maqsadli asosda kreditlash uchun tijorat banklariga ularning balansida uning summasini aks ettirgan holda ajratiladigan mablag'lar.

«MAXSUS IMTIYOZLI KREDITLASH JAMG'ARMASI» - kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar, shuningdek, mikrocreditlar berish maqsadida tashkil qilingan jamg'armadir. Imtiyozli kredit berish jamg'armasi hisobidan beriladigan mikrocreditlar bo'yicha foiz stavkalari mikrocredit berilgan kundagi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

FAKTORING - bu xo'jalik yurituvchi subyektlar – mol yetkazib beruvchilarni (bundan keyingi matnda - mijoz) ular tomonidan bank - moliya agentiga to'lovchilardan (bundan keyingi matnda -to'lovchi) jo'natilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun ular tomonidan akseptlangan, lekin hali to'lanmagan to'lov talabnomalari bo'yicha pul to'lovini olish huquqini o'tib berishlari evaziga, regres huquqisiz, moliyalashtirish borasidagi bank xizmati turidir.

MOLIYAVIY LIZING - bu ijara munosabatlarining alohida turi bo'lib, bunda bir tomon (lizing oluvchi) ning topshirig'iga binoan uchinchi tomonidan (sotuvchidan)

mulk (lizing obyekti) ni lizing shartnomasida belgilangan shartlarda lizing oluvchiga to'lov asosida foydalanish va egalik qilish uchun hamda keyinchalik lizing oluvchining xususiy mulkiga o'tishi sharti bilan berish maqsadida sotib oladi.

SINDISIYALASHTIRILGAN KREDIT - bir necha banklar tomonidan yirik investisiya loyihalarini birgalikda kreditlash.

YIRIK INVESTISIYA LOYIHASI - umumiy qiymati tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshadigan investisiya loyihasi.

BANK SINDIKATI - sindisiyalashtirilgan kredit berish borasida ikki yoki undan ortiq banklar o'rtasida o'zaro kelishuv.

YETAKCHI BANK - sindisiyalashtirilgan kreditlash tashabbusi bilan chiqqan va zimmasiga ishtirokchi-banklar nomidan kredit hujjatlarini yuritish mas'uliyati yuklatilgan qarz oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatuvchi bank.

ISHTIROKCHI BANK - sindisiyalashtirilgan kredit berishda qatnashuvchi bank. Sindisiyalashgan kreditlar faqat yuridik shaxslarga beriladi.

MUDDATLI KREDIT - kredit shartnomasiga ko'ra to'lov muddati hali yetib kelmagan ssudadir.

MUDDATI UZAYTIRILGAN KREDIT - ayrim hollarda kreditni qaytarish muddati kelmasdan avval qarzдор tomonidan bankka taqdim etilgan iqtisodiy asoslangan yozma iltimosnoma asosida kreditni qaytarish muddatini keyinroqqa surilishi to'g'risida filial kredit komissiyalari qarorlari asosida Bosh bank kredit qo'mitasi bilan kelishilgan holda ijobiy qaror qabul qilingan qarzlار.

MUDDATI O'TGAN KREDITLAR - kredit shartnomasida belgilangan qaytarish muddati, shuningdek, garchi ularning muddati uzaytirilgan bo'lsa, uzaytirish muddati ham tugagan qarzlardir. Muddati o'tgan kreditlar iqtisodiy mohiyatiga ko'ra qayta rasmiylashtirilgan hisoblanadi, chunki kredit shartnomasida muddati o'tqazib yuborilganligi uchun oshirilgan foiz stavkalarini qo'llash ko'zda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent.:Fan, 1992.
2. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun. 1995 yil 21 dekabr. - T.: O'RMB, 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 1996 yil 25 aprel. - T.: O'RMB, 1996.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. Xalq so'zi, 2000 yil 21 mart.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori №24. 1999 yil 15 yanvar. – T.: O'RMB, 1999.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomi №905, 2000 yil 2 mart.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risida»gi Nizom №906, 2000 yil 2 mart.
8. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-kitob, Toshkent, O'zbekiston, 1996.
9. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XIII sessiyasida so'zlangan nutq, 1993 yil, 2 sentyabr (2 kitob, 3-39 bet).
10. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - Toshkent, O'zbekiston, 1995 (3 – kitob, 135 – 150 betlar).
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «2007 yil mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari»ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi nutqi – «Xalq so'zi» gazetasi, 9 fevral 2008 yil.

12. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. - T.: Moliya, 2000.
13. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. - T.: Moliya, 2002.
14. Abdullayev Yo. Kredit. 100 savol va 100 javob. – T: Mehnat, 1996.
15. Angelidi M.S. Organizasiya kreditnogo prosessa v kommercheskix bankax. – T., 1996.
16. Bankovskiye operasii, Chast- 2, Uchetno-ssudnye operasii i agentskiye uslugi bankov, Pod red. O.I.Lavrushina, - M.: INFRA-M., 1996.
17. Lavrushin O.I. Bankovskiye operasii.ch.1,2,3.- M.: INFRA-M., 1996.
18. Lavrushin O.I. i dr. Kreditny proess kommercheskogi bank. – M.: DEKA, 1995.
19. Mullajanov F. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. – Toshkent.: O'zbekiston, 2001.
20. Piter Rouz. Bankovskiy menedjment. - M.: 1995.
21. Panova G.S. Kreditnaya politika kommercheskogo banka. - M.: 1997.
22. Slovar sovremennoy ekonomicheskoy teorii. Obщaya redaktsiya Devida U. Pirsii. Perevod s ang., INFRA – M, 1997.
23. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent.: Fan, 2003.
24. Usmonov S.N. Bozor iqtisodiyoti asoslari. – Toshkent.: Fan, 1999.
25. O'lmasov A., Sharifxo'jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent.: Mehnat, 1995.
26. O'lmasov A. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent.: Mehnat, 1995.
27. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – Toshkent.: DI-TAF, 1996
28. Ekonomicheskaya teoriya. Pod nauchnoy redaktsiyey Vidyashina V.I., Juravlevoy G.P., Gulyamova S.S, Sharifxodjayeva M.Sh., Abduraxmanova K.X. – Tashkent.: Shark, 1999.
29. Ekonomika i biznes., Pod red. V.D.Kamayeva. – M.: MGTU, 1993.
30. ATB «Mikrokreditbank»ining kredit siyosati.
31. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnali. – 1999-2007 y.y sonlari.
32. «Bozor, pul va kredit» jurnali. – 1999-2008 y.y sonlari.

33. «Bank axborotnomasi» gazetasi. – 1999-2008 y.y sonlari.
34. «Xalq so'zi» gazetasi.- 2000-2008 (may) y.y sonlari.
35. Internet saytlari:
- [www.cbu.uz.](http://www.cbu.uz)
 - [www.ipakyulibank.uz.](http://www.ipakyulibank.uz)
 - [www.asakabank.uz.](http://www.asakabank.uz)
 - [www.cbr.ru.](http://www.cbr.ru)
 - [www.nbu. com.](http://www.nbu.com)
 - [www.finance.uz.](http://www.finance.uz)
 - [www.narodnoeslovo.uz.](http://www.narodnoeslovo.uz)
 - [www.pravo.uz.](http://www.pravo.uz)
 - [www.ipotekabank.uz.](http://www.ipotekabank.uz)
 - [www.bfa.uz.](http://www.bfa.uz)
 - [www.tfi.uz.](http://www.tfi.uz)